

87  
0-47

B.M. OCHILOVA

# AXLOQ FALSAFASI

87 | 138763

D-47 Ochilora, B.M.

AxCOO: falsafesi!

## Китобларни вақтида топшириш вараги

87  
0-47


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI

B.M. OCHILOVA

# AXLOQ FALSAFASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi  
tomonidan – 100000 "Gumanitar", 110000 "Pedagokika" ta'lif  
yo'nalishida tahlil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan*



Toshkent  
«IJOD-PRINT»  
2019

UO'K:37:61(075.8)

KBK 74

O 47

### Ochilova B.M.

**Axloq falsafasi:** / O'quv qo'llanma: Bilish sohasi – 100000 Gumanitar. Ta'lif sohasi – 110000 Pedagogika. B.M.Ochilova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi. Jizzax davlat pedagogika instituti. – Toshkent: "Ijod-print", 2019. 160 b.

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil 18-avgustdagagi 4- sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan va Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018-yil 28-avgustda 744 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Falsafa fani dasturining "Etika" fanning predmeti va jamiyat hayotidagi ahamiyati" mavzusi asosida yozilgan.

Qo'llanma bakalavriat ta'lif yo'nalishlarida falsafa, etika, estetika fanlaridan ta'lif olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Mazkur qo'llanmadan tarbiyaviy ishlar va targ'ibot tadbirlarini amalga oshirishda foydalanishi mumkin. Inson borlig'i bilan qiziquvchi barsha kitobxonlarga ham qo'llanma tavsiya etiladi.

### Taqrizchilar:

K.Tulenova – f.f.d.

Z.Pardayeva – f.f.d.

M.Saidov – f.f.n.

A.Amanlayev – f.f.n.

O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lif yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashining 2019-yil 17-avgustdagagi 4- sonli majlis qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

ISBN 978 9943-5591-6-5

© «IJOD-PRINT-2019-y»

© OCHILOVA B.M-2019-y

## KIRISH

Bugungi kunda jamiyatda yaxshilikka intilib, yomonlikdan tiyilish, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, zo'ravonlikdan voz kechish va hayotni hurmat qilish, hamjihatlik va ijtimoiyadolatga asoslangan tartib o'rnatish, sabr-toqat va bag'rikenglik, burch va ma'suliyat bilan inson omilini to'liq ro'yobga chiqarish qadriyat darajasiga ko'tarildi va bunday ma'naviy muhitni qaror toptirish ahamiyati kun sayin o'sib bormoqda. Chunki, axloqiy ong va munosabat, ijtimoiy faoliyat, ijtimoiy siyosiy muloqot va o'zini o'zi anglash, o'z-o'zini tanqid orqali o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini takomillashtirish zarurati jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhitini, uning qiyofasini va ijtimoiy taraqqiyotining yo'nalishlarini belgilab beradi. O'zbekistonda Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan, yangicha tizimni shakllantirish borasidagi siyosat zamirida ham, eskirgan, qotib qolgan tizim elementlarini xaotik holatda beqarorlashtirish asosida yangicha sistemani barpo etish usuli ham sinergetik tafakkur asosida amalga oshirilmoqda<sup>1</sup>.

Bugungi kunning asosiy talabi bo'lgan shaxsning avvalo o'ziga nisbatan tanqidiy tahlilning shakllanishi, o'z manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'unlashtirishining asosida insonning o'zini-o'zi nazorat qilishi, o'zini-o'zi boshqarishi va anglashi singari ma'naviy va sinergetik jihatlar birligi yotadi. Bu shaxs ma'naviy borlig'ining ajralmas xossalari bo'lgan tafakkur, erkinlik va ijodkorlik hodisalarida namoyon bo'ladi. Bu hodisalarning shaxs hayoti va faoliyatiga turlicha ta'sir ko'rsatishi masalasi hozirgi zamon axloq

<sup>1</sup> Qarang: Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.:O'zbekiston, 2017. -B.6.

falsafasining ba'zi muammolarini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasining yoshlarga doir davlat siyosatini takomillashtirish bandida, 2017-yil 18-iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PQ-3138-son, 2017-yil 28-iyuldagagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bos-qichga ko'tarish to'g'risida"gi PQ-3160-son qarorlarida, 2018-yil 5 iyunda qabul qilingan 3775- sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarorlari mazmunida ham shu kabi masalalar, xususan, garmonik rivojlangan, kreativ fikrlaydigan, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni yaratadigan shaxslarni tarbiyalash vazifasi belgilandi.

Hozirgi vaqtida axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko'pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda. Bugungi zamon voqelikka ochiq ko'z bilan, real va hushyor qarashni, jahonda va yon-atrofimizda mavjud bo'lgan, tobora kuchayib borayotgan ma'naviy tahdid va xatarlarni to'g'ri baholab, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqarib yashashni talab etadi. "Inson biror bir ishga azmu qaror etar ekan, yaxshilik va yomonlik, axloqiylik va axloqsizlik o'rtasidan o'ziga yo'l tanlaydi. Bu tanlov insonning o'ziga bog'liq bo'lganligi uchun inson axloqiy mas'uliyatga egadir"<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Manaviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.; Manaviyat, 2013.B.110.

Belgilangan vazifalar va ko'rsatmalardan kelib chiqib, hozirgi vaqtida ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvvi va sivilizatsiyalar to'qnashuvi keskin tus olayotgan, butun jahonda ijtimoiy hayotning chuqur transformatsiyalashuvi yuz berayotgan bir vaziyatda yoshlari milliy xarakter sifatini ko'rsatuvchi o'zigi xos barometr vazifasini o'taydigan milliy ma'naviy-axloqiy qiyofani shakllantirish, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan shaxs omilini barqaror yuzaga chiqarish asoslarini tasniflash, dinamikasini prognozlash zaruriyatni dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Inson o'z o'zini tashkillashtiruvchi, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib turuvchi murakkab sistemadir. U bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tabiiy - organik, ijtimoiy - shaxsiy va ruhiy - axloqiy tuzilmalarning bir butunligidan tashkil topgan. Ushbu tuzulmalar uyg'unligi o'z-o'zini tashkillashtirish va takomillashtirish imkonini oshiradi. Axloqiy tuzilma boshqa tuzilmalar singari o'z-o'zini tashkillashtirishi turli usullar bilan yuzaga keladi. Ma'naviy qadriyatlar shunday usullardan biri hisoblanadi.

Ajdodlar ma'naviy axloqiy g'oyalari bir necha o'n asrlik tarixga ega bo'lishiga qaramay, shaxs va jamiyat uchun qadriyaviy ahamiyatini yo'qotmagan. Ularda insonni yetuklikka chorlovchi diniy, ahloqiy, huquqiy, ijtimoiy, umuminsoniy hikmatlar mavjud va bu hikmatlar insonda barqaror sifatlarni ta'minlaydi.

Chunonchi, Zardo'shtiylik necha asrlar davomida insoniyatning hissiy va aqliy olamiga ijobiy ta'sir o'tkazib, kishilarni ezgulikka da'vat etib keldi. Qomusiy allomalar Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Ibn Rushd, Burhon-ud-din al-Marg'inoniy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy manaviy merosi hanuz jahon tafakkur ahlini o'ziga tortib keladi.

Haqiqatdan, "bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor.

Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor”<sup>1</sup>.

Bu borada, “biz bugungi kuminizni tushuntirib berish va kelajagimiz haqida xabar qilish uchun tarixni so‘roqqa tutamiz”, - deganda V.G. Belinskiy haq edi.

Ma’naviy qadriyatlar mazmun mohiyatiga ko‘ra inson tarbiyasida funksionalligi va ijtimoiy xarakteri bilan aksiologik xususiyatga ega. Insonda axloq, odob, iymon, vijdon, halollik, mehnatsevarlik, baynalminalchilik, insonparvarlik, e’tiqod, vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy tuyg‘u, burch va ma’suliyatni his qilish kabi axloqiy sifat va qoidalar qanchalik kuchli bo’lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayadi, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo’ladi. Bunday insonlar qancha ko‘p bo’lsa, jamiyat shuncha barkamol bo’ladi, ilm-fan, madaniyat rivoj topadi. Shuning uchun ham ma’rifatparvar mutafakkir Abdulla Avloniy qayd etganidek, “tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”.

Mazkur o’quv qo’llanma shu maqsadga xizmat qilish niyatida yozildi.

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. – B. 482.

## BIRINCHI BO'LIM

---

### AXLOQSHUNOSLIK

#### O'quv elementlari

1. Axloqning tabiatи va uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni
2. Tasavvuf axloq konsepsiysi
3. Shaxs axloqiy madaniyati
4. Hozirgi zamon axloq muammolari

#### Tayanch so'z va iboralar

Axloq, axloqiy munosabat, axloqiy qadriyatlar, tasavvuf, ruhiyat, axloqi hamida, axloqi zamima, nafs, tiyilish, qanoat, saxovat, futuvvat, yaxshi fe'l, komillikka ishtiyoq, maqsadga mehr, maqsadga ishonch, o'z-o'zini anglash, axloqiy sog'lomlik, samarabaxsh xulq-atvor, tafakkur, erkinlik, ijodkorlik, fenomenologiya, sinergetika.

**Axloqning tabiatи va uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni.** Hayot haqiqati shundan dalolat beradiki, dunyodagi barcha bilim va tajribalar, so'z, tushuncha, tasavvur hamda xulosalar bevosita yo bilvosita inson faoliyati bilan bog'liq holda vujudga keladi, rivojlanadi, boyib takomillashib boradi, yoxud aksincha - eskirib, umrini o'tab, zavolga yuz tutadi. Ayni paytda jahonda shunday bir buyuk hodisa borki, u toki odamzotning ongli hayoti mavjud ekan, hech qachon zavol bilmaydi. Shuning uchun ham uni o'ta noyob fenomenal hodisa deb ataymiz. Bu sog'lom fikrlaydigan, ezgu orzu-umidlar bilan yashaydigan inson va jamiyat tomonidan hamma zamonlarda ham qadrilanib kelgan axloqdir. Zotan, o'z vaqtida Markaziy Osiyo fikh maktabining yetuk siymosi Burhon-ud-din al-Marg'inoniy ta'kidlaganidek, "Axloqsiz odam katta fasoddir"

Ezgulik va illatlar, hayot va o'lim, yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik va egrilik, ulug'vorlik va pastkashlik, altruizm va

xudbinlik – bu va boshqa ko'plab masalalar asrlar davomida faylasuflarni qiziqtirib kelgan. Shuning uchun kishilik jamiyatida axloqning o'rni bahstalab, ayni paytda, muhim ilmiy va amaliy mavzulardan biri bo'lib hisoblanadi.

Axloq haqidagi fan – "etika" falsafaning tarkibiy qismlari dan biri sifatida, "Qanday harakat qilmoq lozim", "Nima qilish mumkin, nima taqiqlanadi", "Men nima uchun yashayman", "Nima yaxshi-yu, nima yomon" kabi masalalarga javob topish uchun amaliy fan sifatida ajralib chiqqan. Keyinchalik etikaning nazariy va amaliy sohalarga, falsafiy va normativ etikaga bo'linishi sodir bo'ldi.

Axloq falsafasida "axloq", "xulq", "etika" substansional kategoriylar hisoblanadi. Axloq lotincha "moralis", "mores" so'zlaridan olingan bo'lib, ma'nosi xulq, odat demakdir. Mutfakkir Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda "Insonlarni yaxshilikka chaqirguvchi, yomonlikdan qaytarguvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur"<sup>1</sup>.

Xulq (odob) – odamlarning amaliy xatti-harakati, odamlar o'rtasidagi amaliy munosabatlardir. Xulq (odob) rasm-taomul, odat -odatlarning butunligi, odamlar o'rtasida iqtisodiy tuzum taqozosi bilan, turmush sharoitning alohida tarzidan, an'analaridan paydo bo'lgan va lekin muntazam qarashlar, qoidalar, yo'l-yo'riqlar sistemasiga kirmagan munosabatlarning xususiyatini ifodalaydi.

Etika yunoncha "ethos" so'zidan olingan bo'lib, xulq, odat degan ma'noni bildiradi. Etika axloqning paydo bo'lishi va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini, axloqiy hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini, axloqning ijtimoiy mohiyatini va u orqali ijtimoiy jarayonlarni o'rganadi. Demak, etika axloq haqidagi nazariyadir.

Axloq falsafasi ijtimoiy fanlar orasida o'zining munosabatlар ko'laming kengligi, predmeti, tartibga solish usuli-

<sup>1</sup> Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T., 1992.-B. 11.

ning o'ziga xosligi, manbalarining rang-barangligi, davlat va jumiyat oldida turgan muhim vazifalarning hal etishga qoldi, davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri anglaydigan, vut'anparvar, xalqparvar, tashabbuskor, zamonaviy bilimlar bilan qurollangan, ezgu insoniy fazilatlarga ega yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash uchun o'ziga xos metodologiya vazifasini o'tashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Binobarin, axloqning bosh mavzui insondir. Insonlarning o'zaro munosabatlari va muommalari axloqning bevosita obyekti hisoblanadi.

Ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lgan axloq insoniyat jamiyat shakllanishining ilk bosqichlarida paydo bo'lgan, iqtisodiy va boshqa munosabatlarning o'zgarishi davomida, insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatining taraqqiyoti jarayonida rivojlanib borgan. Axloq sotsial tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish funksiyasini bajaradi.

Axloq ijtimoiy faoliyatni tartibga solishning boshqa shakllaridan o'z talablarining asoslanishi bilan farq qiladi. Axloqda ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning yoki guruhlarning manfaatlari o'ziga xos ravishda shakllangan va hamma qabul qilgan, ommaviy namuna, odat, rasm -tamoil, jamoatchilik fikrining kuchi bilan mustahkamlangan qoidalar, me'yorlar va baholar tarzida ifodalanadi. Shuning uchun axloq talablari hammaga babbaravar qaratilgan va lekin hech kimning buyrug'i bilan joriy etilmagan shaxssiz burch shakliga kiradi. Bu talablar nisbatan barqaror xarakterga egadir. Ular o'rashib qolgan tartib kuchi bilan saqlanib kelayotgan oddiy rasm-odat va an'anadan shu jihat bilan farq qiladilarki, inson qanday yashamog'i va xatti-harakat qilmog'i lozim, degan tasavvurlar shaklida g'oyaviy asosga ega bo'ladilar.

Axloq-odob talablari har bir kishi tomonidan bajarilishi jamaot tomonidan nazorat qilinadi va ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari bilan tasdiqlanadi. Bu hol axloqda ongning boshqa sotsial nazorat shakllariga qaraganda kattaroq rol o'ynashini

taqozo qiladi, zotan, bu ong tushuncha va hukmlarning aqliy shaklida ham, his-tuyg'u, intilish, mayillarning hissiy shaklida ham ifodalanishi mumkin.

Axloqda ijtimoiy ong bilan bir qatorda individual ong shakli ham muhim o'rin tutadi. Individ jamiyat ishlab takomillashtirgan axloq-odob tasavvurlariiga tayangan, tarbiya jarayonida ularni o'zlashtirib borgan holda o'z xatti-harakatini mustaqil ravishda tartibga solishi va tevarak-atrofida sodir bo'layotgan hamma narsaning axloqiy ahamiyati haqida fikr yurgizishi mumkin. Shu tufayli axloqda individ faqat ijtimoiy nazorat obyekti sifatida emas, balki uning ongli subyekti, ya'ni axloqiy shaxs sifatida ham maydonga chiqishi mumkin.

Ijtimoiy hayotning turli sohalariga tatbiqan axloqda maxsus qoidalar ifodalanadi va bu qoidalar mustaqil sohalarini tashkil etadi, shuningdek, mehnat axloqi, kasb axloqi, oila axloqi, diplomatiya axloqi, bozor va tadbirkorlik axloqi kabi shakllarda axloq o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Axloq jamiyatda kishilar orasidagi turli munosabatlarni muvofiqlashtirish, kishilar faoliyatining insonparvarlik qadriyatları va mo'ljallarini belgilab berish, shaxsni ijtimoiylashtirish kabi funksiyalarini bajaradi

Ijtimoiy voqelikning turli hodisalarini va kishilarning xatti-harakatlarini ular qanday axloqiy ahamiyatga ega bo'lishiga qarab, ma'qullash yoki qoralash axloqiy baholash deyiladi. Axloqiy baholash qilingan harakatlarning axloq-odob talablariga muvofiq kelishi yoki muvofiq kelmasligini aniqlaydi. Axloqiy baholashning zamirida xatti-harakatlarning obyektiv sotsial ahamiyatini bilish asos bo'lib yotadi. Ana shu asosda axloqiy baholash yordami bilan kishilarning xatti-harakatini tartibga solish mumkin. Umumiy axloqiy baholash yaxshilik va yomonlik kategoriyalarda amalga oshiriladi.

Bir xildagi ish amallarga joriy qilinadigan umumiyl talab va ta'qiqlar vositasi bilan kishilar xatti-harakatini tartibga soluvchi axloq-odob talablari axloqiy qoidalar deyiladi. Axloqiy qoidalarini rasm-odat va jamoatchilik fikrining kuchi barqaror qiladi.O'z ijtimoiy mazmuni jihatidan axloqiy qoidalar umuminsoniy ham milliy bo'lishi mumkin.

Axloq va axloqiylik o'z-o'zidan yuzaga keladigan jarayon emas. Bu jarayon keng qamrovli bo'lib, o'zida bir qator ijtimoiy-manaviy ko'rinishni mujassam etadi, manaviyat tizimidagi sohalar bilan yaqindan aloqada bo'ladi.

Jamiyat a'zolarining axloqiy fazilatlari, ularni shakllantirish va takomillashtirish vazifalari, ta'lim-tarbiyaning yo'llari va usullariga kishilarning yashash va mehnat qilish sharoitlari, turmush tarzi, milliy jihatlari, diniy e'tiqodlari katta ta'sir ko'rsatgan. Har qanday axloqiy ta'limotlar jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida obyektiv, subyektiv ehtiyojlar va zaruriyatlar asosida kelib chiqqan.

Shu nuqtayi nazardan Sharq va G'arb axloqiy ta'limotlari qanchalik farqlanmasin, ularga tegishli va belgilovchi bo'lgan umumiyliek ichida jahoniy miqiyosidagi chuqur ijtimoiy falsafiy hodisa sifatida komil inson,adolat,yaxshilik,vatanparvarlik g'oyalari alohida o'rinn tutadi.

Bu borada Javoharla'l Neruning: "Beruniy yunon falsafasini egallab, hind falsafasini mutolaa qilmoq uchun sankrit tilini o'rgandi. So'ng yunon va hind falsafasini bir-biriga solishtirib, ulardagagi mavjud bo'lgan umumiyliekni ko'rib g'oyatda ajablangan edi"<sup>1</sup> – degan fikri zamirida juda katta mano yotadi.

Sharqda ham, G'arbda ham ilk axloqiy fikrlar va qarashlar xalq og'zaki ijodi – maqollar, matallar, hikoyatlar, hikmatlar va rivoyatlarda namoyon bo'lgan, asrlar davomida ular og'izdanog'izga o'tib bizgacha yetib kelgan.

Sharq va G'arbda qadim zamonalardan hozirgi kungacha etikaning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan evdemonizm (eudaimonia-baxt-saodat, rohat-farog'at, farovonlik) va gedonizm (nedone-lazatlanish, huzur, zavq) g'oyalari tahlili muhim o'rinn tutgan.

Etika kategoriyalari, tamoyillari va me'yorlari xususida Sharqda ham, G'arbda ham ko'plab asarlar bitilgan.

<sup>1</sup> Qarang: Nizomiddinov N. Sharqi Osiyo diniy-falsafiy ta'limotlari va islom. – T., 2006.- B.115.

Ayrim jihatlariga ko'ra Sharq va G'arb odami, eng avvalo, axloqiy, ruhiy, ma'naviy qiyofasi o'zaro farqlanadigan odamdir. Sharq odamining tarbiya yo'li, dunyoni anglash tarzi va urf-odatlari g'arblarnikiga o'xshamaydi...Sharqda ikki turli aql mavjudligi e'tirof qilingan. Birinchisi, aqli kull – ilohiy, qudratli, mutlaq aql bo'lib, ilohiy quvvatning faol tajalliyidan iborat. Aqli juz – kichik aql, insonning moddiy hayoti, yashash odobi, faoliyatiga tegishli...Fazoviy aql va ilohiy hissiyotlarga yetishgan buyuk insonlarning tabiatini, odam va olam mohiyatini anglash miqyosi Sharqda ham, G'arbda ham deyarli bir xil...Ammo bu xususiy hodisa. Umumiyligi boshqa: Sharq – nafsga dushman. G'arb – nafsga do'st. G'arbliklar uchun, aytaylik, tasavvuf ahliga o'xshab nafsni yengish choralarini izlash va shu yo'lda aziyat chekish – kulgili ish. Ular bunday "tajribalar" bilan qiziqishni hatto hayoliga keltirishni ham istamaydi. Zero, ko'ngli moddiy quvvatga taslim kishi ma'naviy quvvatdan ruhlanmaydi...Xullas, chinakam G'arb olami – go'zal axloq, mehr va muruvvat, to'g'rilik va faoliyat sohibi. Uning ruhoniyat va hayolot olamiga faqat havas qilish mumkin. Uning viqori – kamtarlikda, zakiyligi - xoksorlikda<sup>1</sup>.

Sharq va G'arb axloqiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish ularning xususiyatlari haqida ilmiy, adekvat xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Axloqiy tafakkur taraqqiyotida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari muhim o'rinni tutadi. Uning ta'limotining ta'siri nafaqat Xitoy, balki boshqa mamlakatlarda ham yaqqol sezilgan. 1988-yilda Xalqaro Nobel mukofotining Parijdagi yig'ilishi Murojaatnomasida insoniyat XXI asrda yashab qolishini istasa, 25 asr ilgari yashab ijod etgan Konfutsiyning donishmandligidan yaxshi xabardor bo'lmg' i darkor<sup>2</sup> degan e'tirofdan ham buni anglash mumkin

Konfutsiyning o'z nomi bilan ataluvchi ta'limoti tom

<sup>1</sup> Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. – T.: Fan, 2009. B.301–303.

<sup>2</sup> Qarang: Ismatullayeva N. Konfutsiy hayoti va Lun Yuy asari. T.: TDSHI nashriyoti, 2013. B.7.

ma'noda ijtimoiy-axloqiy, falsafiy g'oyalarga to'liq bo'lib, hikmatiy amaliy xususiyati bilan ajralib turadi. "O'zingga ravo ko'rmaganni o'zgaga ham ravo ko'rma"<sup>1</sup> shiori Konfutsiy g'oyalarining markazida turadi.

Konfutsiyning o'z-o'zini anglash haqidagi "ramziy" fikrlari diqqatni jalg qiladi. Daraxt – odamlarga muhabbat, mehribonlik. Bu odamiylikning boshlanishi. Inson o'zining axloqiy burchini anglamay turib, o'zini anglay olmaydi. Inson o'zini o'zidan topadi. Temir – haqiqat, adolat. Inson yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishi lozim. Olov - udum, odatga sodiqlik. Masalan, ota-onaga hurmat ko'rsatish. Olov hammaga barobar issiqlik va yorug'lik taratadi. Suv – poklik, sog'lom likr, donolik, oqillik, o'z xatti-harakati oqibatlarini oldindan ko'ra bilish, o'ziga chetdan qarash va baho bera olish. Yer – saxovat, saxiylik.

Tafakkur uning fikricha ham nazariy ham amaliy protse-dura, ularning birida sodir bo'lgan o'zgarish boshqasida ham muayyan o'zgarish yasaydi. Shu nuqtayi nazardan Konfutsiy muayyan axloqiy tamoyillarni ishlab chiqdi:

- har kuni yangi bilimlarni o'zlashtirish;
- jamiyatda va jamiyat uchun yashash;
- bir-biriga yon bermoq;
- mansabi va yoshi katta bo'lgan kimsalarga qulq solish;
- imperatorga bo'y sunish;
- o'zini tiyish, har narsada me'yorga rioya qilish;
- insonparvar bo'lish;
- davlatga sodiq xizmat qilish, vatanparvar bo'lish;
- yuksak maqsadlarni oldiga qo'yish;
- oliyjanob bo'lish;
- davlat va atrofdagilarga faqat yaxshilik qilish;
- majburiyatdan shaxsiy malaka va maslakni ustun qo'yish;
- davlat va insonlarning shaxsiy farovonligi to'g'risida qayg'urish.

<sup>1</sup> Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. – T.: Yangi ast avlod, 2014.- B. 8.

Konfutsiy qarashlarida mamlakat taraqqiyoti, tinchligi va osoyishtaligi hukmdor ma'rifati va fazilatlariga bog'liqligi, rahbarlik murakkab ish ekanligi, yuksak axloqli kishilar o'z xizmatlari bilan hukmdor ishlariga ko'maklashishi, jamiyat boshqaruvida va farovonligida fidoiy bo'lishlikka da'vat bor.

Konfutsiy fikriga ko'ra tartib bo'lgan joyda tinchlik, barqarorlik, yuksak ma'suliyat va adolat qaror topadi. Axloqi yuksak hukmdor o'z xalqini yuksak darajaga ko'tarishga harakat qiladi va buning uchun chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Konfutsiy oliyjanob inson masalasini ko'tarib chiqqan ilk faylasuf hisoblanadi. Mutafakkir ta'kidlagan bilimlar ham nazariy ham amaliy jarayon bo'lib, unga muvofiq inson tomonidan axloqiy talablarning bajarilishi zarurligi asoslangan. "Oliyjanob inson haqidagi tasavvur uch xil ko'rinishga ega. Uzoqdan qaraganda u juda jiddiy ko'rindi. Yaqinlashgach, u muloyim tuyiladi. Uning gaplarini eshitganda cho'rtkesar bo'lib ko'rindi. Oliyjanob inson dunyoviy ishlarni bir-biridan ajratib bajarmaydi, balki burchga ko'ra ish qiladi, u kiyim va yemakka emas, balki haq yo'lga intiladi. Axloqlilik va haqqoniylilik, kamtarlik va yomonlikka yaxshilik bilan javob berishi orqali ham uni ilg'ash mumkin.

Oliyjanob inson qo'l ostida ishslash oson, lekin unga yoqish juda mushkul. Uning e'tibori to'g'ri yo'l bilan qozonilmasa, aks holda u buni yoqtirmaydi. U insonlardan foydalanishda har bir shaxsning qobiliyatiga qarab odilona ish ko'radi. U mudom qonun va intizomni o'laydi.

Konfutsiy talqinicha oliyjanob inson 9 ta narsani o'ylashi kerak. Bular:

1. Ko'rganini angladimi yo yo'q;
2. Eshitganini aniq eshitdimi yo yo'q;
3. Yuzidagi ifodasi yoqimlimi yo yo'q;
4. Tashqi qiyofasida ehtirom zohirmi yo yo'q;
5. Suhbatdagi so'zlari samimiymi yo yo'q;
6. Ishiga nisbatan tirshqoqmi yo yo'q;

7. Savol tug'ilganda so'rashi kerakmi yo yo'q;
8. G'azabini sochish yomon oqibatlarga olib keladimi yo yo'q;
9. Erishish mumkin bo'lgan narsa adolatga muvofiq keladimi yo yo'q”<sup>1</sup>.

Konfutsiy fikriga ko'ra axloq qoidalariiga amal qilinmagan ehtirom, behuda urinish bo'lib chiqadi hamda axloq qoidalariiga amal qilinmagan ehtiyotkorlik qo'rquvni, axloq qoidalariiga amal qilinmagan mardlik g'alayonni, axloq qoidalariiga amal qilinmagan to'g'riso'zlik zaharxandalikni keltirib chiqaradi.

Insoniyat manaviyat tarixida “Avesto” kitobi va unda Zardusht asos solgan axloqiy ta'limot alohida ahamiyatga ega. Bu ta'limotning o'ziga xos xususiyati, unda diniy qoidalalar axloq usulida bayon etilgan. Ya'ni, Zardushtning yakka xudolik dini tom ma'noda axloqiy asosga qurilgan.

Zardushtiylikda bosh masala e'tiqodda sobitlik, rostgo'yligu halolu fidoyilik ustun turadi. Zardo'sht shunday deydi:

*“Besh narsaga bog'langanman, besh narsadan  
chekinganman.  
Ezgu fikrga bog'langanman, yovuz fikrdan chekinganman.  
Ezgu kalomga bog'langanman, yovuz kalomdan  
chekinganman.  
Ezgu amallarga bog'langanman, yovuz olamdan  
chekinganman”<sup>2</sup>.*

Zardushtiylarda ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal birligi shu qadar kuchli ma'naviy qudratga ega bo'lganki, hatto buni ularni har bir xatti-harakati, yashash tarzi, yerga, suv va havoga bo'lgan cheksiz hurmatida anglash mumkin:

“...Ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amalni kim, bu yerda va har yerda ulug'lanadi va ulug'langusi madh etaman. O'zim ham jonus-dilim bilan yaxshilikka intilaman.

<sup>1</sup> Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. –T.: Yangi ast avlod, 2014. - B.158–160.

<sup>2</sup> Avesto. –T.: Sharq, 2001. – B.113.

*Ey Axura Mazda! Ey go'zal Ardabihisht!  
Buni o'zimizga munosib ko'rdik:*

Ikki olamda ham eng go'zal bo'lgan fikr, kalom va amalni tanlaymiz”<sup>1</sup>.

Yaxshilik bilan nopolik, rivojlanish bilan tanazzul o'rtasidagi doimiy kurash bu ta'limotning asosini tashkil qilgan. “Zardushtiylar aqidasicha inson paydo bo'lgandan beri odamzod andishasida ikki gavhar paydo bo'lgan: biri andishada guftoru kirdorda yaxshilik bo'lsa, ikkinchisi andishada kirdoru guftordagi yomonlikdir. Dono ana shu gavhardan yaxshilikni intihob etadi, nodon esa yomonlikni tanlaydi. Ana shu ikki gavhar bir-biriga payvast bo'lganda, borlik va yo'qlik, harakat va sukunat paydo bo'ladi, natijada yomonlik va tanaz-zulni badxohlar tarafdarlik etsa, mavjudiyat va behro'zlikni yaxshilik tarafdarlari payravlik qiladi, qo'llashadi. Shuning uchun barcha odamlar “andeshai nek”, “guftori nek” hamda “kirdori nek”ka yuz tutib, “andeshai bad”, “kirdori bad” va “guftori bad”dan yuz o'girib yashamoqlari, birining hamisha barqarorligini, ikkinchisining esa mahkumligini ta'minlash uchun kurashmoqlari zarur, zeroki, ularning birida odamu olam kamoloti in'ikos etsa, ikkinchisida inson va hayot razo-lati namoyon bo'ladi.

“Avesto”da ana shu mezonnning nazariy va amaliy jihatlarining mukammal tasnifi berilgan hamda har bir kishining hayotda, ishda va amalda ularni bajarish, axloq me'yorlariga rioya qilish yo'l-yo'riqlari ko'rsatilgan:

1. Andeshai nek: Tangrining yagonaligiga inonmoq, imonda sobitlik, tavakkul, qanoat, xayrixohlik, mehribonlik, haq tanimoq, sulhjuylik, kechirimlik bo'la bilish, oshnochilik, shijoatlilik, rahmli va muruvvatli bo'lmoq, poktiynatlik, insof, xushxulqlilik, beozorlik, ochiqyuzlik, ehsonlilik, nafsi chegaralash, kasb va ilmni sevmoq, mas'uliyatlilik va haqiqatparast bo'lmoqdan iborat.

<sup>1</sup> Avesto. –T.: Sharq. 2001. – B.235.

2. Guftori nek: yagona Tangriga hamdu sano aytmoq, to'g'ti so'zlilik, ahdida sobitlik, haqgo'ylik, salom va ta'zimda bo'lmoq, durustgo'ylik, to'g'ri va rost guvohlik bermoq, shirinkalomlik, o'ylab, sinab gapirmoq, rost qavllikdan iborat.

3. Kirdori nek: Tangri va payg'ambar buyurgan farz va minnatlarga so'zsiz itoat etmoq hamda ularni bajarmoq, yaxshi ishslash, omonatga xiyonat qilmaslik, ojizlarni qo'llash, serg'ayrat bo'lmoq, xalq uchun, Vatan uchun xizmat qilmoq, mehimondo'stlik, parhezkorlik, yomon ishlardan yuz o'girmoq, mehribonlik, insonsevarlik, jamiyat qonunlariga itoat etmoq, o'tganlarni esda tutish, haqiqattalab bo'lmoq, bemorlar holidan xabar olib turmoq, muhtojlarga yordam berish, o'z ishi va kasbiga mehr qo'yish, adolatli bo'lmoqdan iboratdir.

1. Andeshai bad: Xurofotparastlik, Tangrini tanimaslik, kufr, g'urur, badxohlik, dushmanlik, haqiqatga ishonmaslik, hadiksirash, jangarilik, suqko'zlik, toshbag'irlilik, insofsizlik, hasad, g'arazgo'ylik, nafs bandasi bo'lmoq, xasislik, dilsiyohlik, vafosizlik, badxulqlik, ishi va kasbiga mas'uliyatsizlik, nodonlik, parhezni bilmaslik, bahonatalab bo'lmoq, shakkoklik, nodurustlik, ginalik, nayrangbozlik, g'aflatga berilmoqdan iborat.

2. Guftori bad: Tangrini unutmoq, yolg'onchilik, tuhmatchilik, yolg'on guvohlik bermoq, vafosizlik, ahdshikanlik, kufr aytmoq, nohaqlik, qasamxo'rlik, achchiqzabonlik, o'ylamay gapirmoq, nodurust hukmga kelmoqdan iborat.

3. Kirdori bad: Xudo va payg'ambarga itoat etmaslik, tanballik va ishyoqmaslik, o'g'rilik, qotillik, mardumozorlik, ta'magirlik, sitamgarlik, hunarsizlik, bilimsizlik, omonatga xiyonat, haromxo'rlik, intiqomchilik, makkorlik, shoshqaloqlilik, zolim va badxohlarni qo'llash, noravobinlik, badaxloqlik, zai-fozor bo'lmoq, ziyonkorlik va boshqalar tashkil qiladi.

Hayot axloq va ma'naviyatning ana shu mezonlarining barcha jihatlari Zardusht va'zlarida, payg'ambarning Tangri bilan ruhiy muloqotlari – me'roj voqeasida o'z aksini topgan".

Zardushtiylik ta'limotida insoniyatni ezgulikka chorlash va yaxshilikning mukofoti eng ulug', eng go'zal, eng a'lo qismat ekanligi bir necha bor ta'kidlangan. Jumladan, "Avesto"da shunday deyiladi:

*"Oyoqlaring, qo'llaring va es-hushingni  
Ezgu amal,adolat va to'g'rilikka yo'lla,  
Yomon ishdan, bedodlik va egrilikdan tiyil!"<sup>1</sup>.*

Zardusht insonga ezgulik qurolini berib, yovuzlikdan g'olib bo'lishga undadi. "Men yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman", - deyiladi Avestoning Yasna (14) kitobida. "O Spitama, shartnomani buzuvchi kishi butun mamlakatni buzadi, shu bilan birga Artaga tegishli barcha mulku mollarga putur yetkazadi. O Spitama ahdingni buzma..." ("Yasht", X bob.) Axuramazda, insonlar o'tasida bo'layotgan munosabatlar o'zaroadolat, samimiylik, hurmat, beg'arazlik, yordam va oqibatli bo'lish zarurligiga, yomon fi-krlardan holi bo'lishga chaqiradi. G'oyalarning bunday tarzda qo'yilishi dunyo ana shu kuchlarning yonma-yon yashashidan iborat, oila va jamoada berilgan so'zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o'tasida tuzilgan ahdnomani buzish,adolatsiz bo'lish katta gunoh degan hikmatning mohiyatini anglashga undaydi.

Zardushtiylikning muqaddas "uchlik" va "yettilik" ka asoslangan udum va an'analari ming yillar davomida insoniyatning ma'naviy-axloqiy taraqqiyotiga xizmat qilib keldi. Xususan, unda etti mavjudod - tuproq, suv, olov, havo, o'simlik, hayvon va inson xudo tomonidan yaratilgan ilohiy mohiyatga ega vujudlar deb hisoblangan. Ular orasida inson eng oliy mavjudod bo'lib, boshqa olti vujud - mavjudodga homiylik, g'amxo'rlik qilishi lozim, deb hisoblangan. Ya'ni, inson tuproqni serunum qilishi, suvni va suv havzalarini toza tutishi, o'simlik va daraxtlarni ko'paytirishi, hayvonlarga homiylik

---

<sup>1</sup> Avesto-T.. Sharq, 2001. – B.290.

qilishi zarur, shuningdek, o'zining jismiy va ma'naviy-axloqiy sog'lig'iga e'tibor berishi, qarindosh-urug'lariga g'amxo'rlik qilishi, o'g'il va qizlarini o'z vaqtida uy-joyli qilishi, yomon tahlardan saqlanishi, beva-bechoralarga yordam berishi dar-kor.

Zardusht ta'limotiga asosan inson, jamiyat va tabiatga axloqiy munosabatlar bolalarning yoshligidan o'rgatib boril-gan. Asosan 7 yoshga to'lgan bolalar tarbiya jarayonida "men zardo'shtiylik diniga sodiq bo'lishga va'da beraman, men yuxshi fikrlar, yaxshi so'zlar, yaxshi ishlarga ishonaman....". Zardusht aqidasicha, har bir insonning qalbi pok bo'lib, hulqi xush bo'lsa, hunar va ilm egallab, rizqi ro'zi halol bo'lsa, uning amali chin bo'ladi. Unday obidning qo'li ishda. Dili va tili ibodatda bo'lib, bu dunyoni yashnatishga xizmat qiladi. Zeroki, xushxulqu pokdil, sobitqadamu hunarparvar odamlar-gina olamni komillik sari eltadilar.

Zardushtiylikda ma'rifat va bilimning kuchiga qattiq e'tiqod qilinadi va jamiyat hayotida ham oqibat natijada ma'rifat yutib chiqadi, deb hisoblanadi. O'sha davrda bolalarning faqat sihat-salomat va jismonan baquvvat bo'lishi haqidagina emas, balki ilmu ma'rifat olishi va ma'naviy sofligi, yaxshilik, ezgulik xislatlarini egallashlari to'g'risida ham g'amxo'rlik qilishgan. Asosan bolalarda mehnatsevarlik, rostgo'ylik, sahovatlilik fazilatlarini tarbiyalashga muhim ahamiyat berilgan"!

Shuning uchun "Avesto" da ta'lim-tarbiya berishning ilk tizimi tavsiya etilgan:

a) diniy va axloqiy tarbiya; b) jismoniy tarbiya; d) o'qish va yozishga o'rgatish.

O'sha vaqtlardayoq bolalarning faqat sihat-salomat, jismonan baquvvat bo'lishi haqidagina qayg'urish emas, balki ilmu hikmat sohibi bo'lishi va ma'naviy sofligi, yaxshilik-ezgulik xislatlarini egallashlari to'g'risida fikrlar ilgari surilgan. Nega?

<sup>1</sup> Yo'idoshev J., Hasanov S. Avestoda axloqiy ta'limiy masalalar. -T.: O'qituvchi, 1992. - B. 22

Zardushtiylik ta'limotida ma'rifat va bilimning kuchiga qattiq e'tiqod qo'yilgan va jamiyat hayotida oqibat – natijada ilmu hikmat yutib chiqadi, deb hisoblangan.

Zardushtiylik ta'limoti mohiyatan axloqiy "o'z-o'zini tashkillashtirish" tafakkur uslubidir. "Inson o'z-o'zini tashkillashtirish uchun o'z-o'zini tartibga solish, regulyatsiya qilishi shart, ammo inson darajasida hayvonlardagidek somatik tartibga solish vositalari emas, axloqiy-ma'naviy darajadagi regulyatorlar kerak bo'ladi. Shuning uchun inson o'zini tartibga solishning boshqacha turlaridan foydalanadi. Axloqiy, e'tiqodga oid, irodaviy, tanqidiy, aqliy me'yorlar, dunyoqarash, axborot, ong, orzu-istik taribga solish vositalaridir. Inson o'z-o'zini boshqarish vositalari - aql, tafakkur, fazilatlar, qiziqish, talabni ham vujudga keltirdi, bu hodisalar boshqarish funksiyalarini bajaradilar. Bularsiz inson o'z-o'zini tashkillashtira olmaydi. Insonning ruhiy-ma'naviy o'z-o'zini tashkillashtirishida muhim rol o'ynovchi bu aloqadorlik, ya'ni ma'naviy va ruhiy uyg'unlik uning ijtimoiylik, aqlililik, hissiylik, axloqiylikni ta'minlaydi"<sup>1</sup>.

Zardushtiylikning bu kabi manaviy axloqiy tamoyillari va me'yorlari davrlar silsilasida ko'plab oqimlar va yo'nalishlarning, konsepsiyalarning manaviy zamini bo'ldi.

Islom axloqi ham o'z ichiga zardo'shtiylikning bir muncha elementlarini olgan. Qur'onidagi "Yaratuvchi har insonga tafakkur darjasasi va qobiliyat imkoniyatlari doirasida rizqu nasaiba ulashadi. Birovники ко'п, бoshqaniki kam ekanligi – har kimning o'zidan; Amallar niyatga qarab qabul qilinur, kim qanday niyat qilgaydir, shunga erishgusidir; Adolatlilik, oqillik bizning o'zimizdan boshlanmog'i kerak; Odamlarni yaxshilikka chorlab turib, o'zi ibodatda yo'q kishining da'vat qilishi katta gunohdir; Haqni nohaqlik bilan qorishtirmangiz hamda bila turib, haqiqatni yashirmangiz; O'zing aniq bilmagan nar-saga ergashma! Chunki qulqoq, ko'z, diling har biri to'g'risida

<sup>1</sup> Sinergetika mohiyati. Qonumiylarli va amaliyotda namoyon bo'lishi. – T.: Navro'z. -B. 121

Javob berur; Kechirimli bo'l, yaxshilikka buyur va johillardan yuz o'gir; Kim sabr qilib, kechirsa, albatta, bu mardlik ishlidundir; Yaxshilik qilishda odamlarning eng saxiysi bo'ling; Yomonlikni go'zal narsa ila daf qil" kabi oyatlar mazmunida shu ohanglarni ilg'ash mumkin.

Axloqning mohiyati islom dinining muqaddas manbayi Qur'oni Karimning barcha oyatlarida aks etgan. Umuman, mazkut manbada hayotdag'i har qanday holatlarda barcha insonlarga muvofiq keladigan o'zaro aloqador va bog'liq huquqiy ko'satmalar, ijtimoiy tamoyillar, xulq-atvor qoidalari, axloqiy tuvsiyolar, psixologik o'gitlar, ma'qullah shart bo'lgan hikmat-hurming bir butun tizimi mavjud va bu tizim abadiy xarakterga ega bo'lib, har qanday sharoitga mos keladi. "Yaxshilik va taqvo yo'lida hamkorlik qiling. Gunoh va dushmanlik yo'lida hamkorlik qilmang" ("Moida" surasi, 2-oyat), "Va oshkora hamda maxly gunohlarni tark qilinglar" ("Anom" surasi, 120-oyat). "Afni (qabul qilib) oling, yaxshilikka buyuring, johillardan esa yuz o'giring" ("A'rof" surasi, 199-oyat), "...biror qavm (kishilar) ni yoqtirmaslik sizlarni ularga nisbatanadolatsizlik qilishga undamasin!" ("Moida" surasi, 8-oyat), "Yaxshilik qilishga shoshillingiz" ("Moida" surasi, 48-oyat), "Mol-mulkaringizni o'ritada nohaq (yo'llar) bilan yemangizlar! ("Niso" surasi, 29-oyat), "(Har qanday) yomonlikning jazosi xuddi o'ziga o'xhash yomonlikdir. Bas, kimki afv etib (o'rtani) tuzatsa, bas, uning mukofoti Allohnинг zimmasidadir..." ("Sho'ro" surasi, 40-oyat), "...Agar sizlar (ularni) afv etsangiz, koyimasangiz va kechirsangiz, u holda, albatta, Alloh (ham sizlarga nisbatan) mag'firatli va rahmlidir" ("Tag'obun surasi", 14-oyat), "Yomonlikni go'zal narsa ila daf qil" ("Muminun" surasi, 96 oyat), "Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizza biror qavmga aziyat etkazib qo'yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo'lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko'ringiz"! ("Hujurot" surasi, 6-oyat), "(Sizlardan) biror millat (boshqa) bir millatni masxara qilmasin! Ehtimolki, (masxara qilingan millat) ulardan yaxshiroq bo'lsa..." ("Hujurot" surasi, 11- oyat).

“Qur’onni o’qiganimda hayotning dinamik prinsiplarini ko’raman, bu fasavvur emas, aksincha, unda insonning kundalik hayoti uchun butun dunyoga mos amaliy-axloqiy tizimi bor”<sup>1</sup>.

“Albatta, Biz bu omonatni osmonlarga, yerga va tog’larga taklif qildik. Bas, ular uni ko’tarishdan bosh tortdilar va undan qo’rqdilar. Uni inson ko’tardi. Darhaqiqat, u o’ta zolimdir, o’ta johildir” (“Ahzob” surasi, 72-oyat). Ma’lumki, “omonat” so’zi “amana” fe’lining masdari - ish-harakat nomi bo’lib, “ishonib topshirilgan narsa” degan ma’noni anglatadi. Alloh taoloning omonati Allohning farzlari va shariat takliflari, O’z amr va nahiylari edi. Bu omonatni ko’tarish shunchalar og’ir ediki, hatto shunday ulkan osmon, zamin va tog’lar ham uni ko’tarishdan qo’rqdilar, chunki bu omonatni uddalab, o’rniga qo’ya olishlariga ko’zлari yetmadi. U omonatni inson ko’tardi. Lekin inson jinsi (hamma emas albatta) o’ziga yuklatilgan va o’zi qabul qilgan omonatga muvofiq ish yuritmasdan, o’ziga zulm qiladi. Inson o’zi rozi bo’lib, qabul qilib olgan omonatga xiyonat qilmasdan, zulm qilmasdan, johil bo’lmasdan, o’ziga yuklatilgan omonatni ado etishi joizdir. “Kim Mening eslatmamdan yuz o’girsa, bas, uning uchun tang (baxtsiz) turmush bo’lishi muqarrar...” (“Toho” surasi, 124-oyat).

Xulqlanish insonning o’zining tilidagi, dilidagi va amallaridagi illatlarni bartaraf etish, zarur axloq sifatlarni o’ziga kasb qilish, farzi ayn, farzi kifoya, vojib, sunnat, muboh, odob va mantiqda iqtido orqali amalga oshiriladi. Lekin tabiatan badfe’l banda xulqlanish maqomiga erishmaydi. “Haqiqatan, kufr (imonsizlik)dagi kishilar – ularni ogohlantirsangiz ham, ogohlantirmasangiz ham, ularga baribir - imon keltirmagaylar. Ularning dillari va quloqlariga Alloh muhr urib qo’yan. Ko’zlarida esa parda (bor). Ular uchun ulkan azob (tayyorlab qo’yilgandir)” (“Baqara” surasi, 6-7-oyatlar). “Jahannam uchun jinlar va insonlarning ko’pchiligini yaratganmiz. Ularda qalblar bor, (lekin) ular bilan “anglamaydilar”. Ularda

<sup>1</sup> Navdu S. Islomiyatning oliy maqsadlari. Madras, 1918. B.167

ko'zlar bor, (lekin) ular bilan "ko'rmaydilar". Ularda qulqlar bor, (lekin) ular bilan "eshitmaydilar". Ana o'shalar hayvonlar bo'libdi[tan]. Balki ular (yanada) adashganroqdirlar. Ana o'shalar j'otillardir. ("A'rof" surasi, 179-oyat).

Insonnni anglash azaldan mushkul yumushlardan biri haobylanadi. Chunki "... inson ko'p janjal (bahs) qiluvchidir" ("Kafir" surasi, 54-oyat).

"Albitta, Biz senga ravshan fathni berdik. Alloh se-ning uvvah o'tgan gunohlaringni va keyingilarini mag'firat etish, ne'matini batamom qilish va seni to'g'ri yo'lga bosh-lash uchun... Va Alloh senga izzatli nusrat berishi uchun" ("Futh" surasi, 1-3 oyatlar).

Islom axloq falsafasiga ko'ra axloqiy yuksalish imon, ha-qiqat va adolatdan boshlanadi. Falsafa qomusiy lug'ati imon muayyan fikr, oliv g'oyaning haqiqatligiga komil ishonchdan iborat shaxsdagi alohida ruhiy holatdir deb ta'riflanadi. Islom in'llimotiga ko'ra imon uch unsurdan, ya'ni, ishonch (Al-lohning yagonaligiga), iqror (so'zda istig'for qilmoq) va amal (ezgu ishlar bilan qalb va so'z amrini isbotlamoq) dan tashkil topgan.

Demak, imon ma'naviyatining botiniy mohiyatlaridan biri bo'llib, kishi uchun hayotda to'g'ri yo'l topishning muhim omili hisoblanadi. Imonga asoslangan ruhiy holatlarning maz-muni insondagi ma'naviy kamolot darajasi bilan belgilana-di. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'pincha imon, asosan, diniy tushuncha sifatida kishilarimizning ongiga, tafakkuriga o'tmushgan. Aslida esa imonning ham diniy, ham dunyoviy falqini mavjud. Har kuni foydali bir amal, savob ish qilish, so'lil xulq sohibi bo'lish, butun insoniyatga mehr – muhabbat bilan qarash, jamiyatdagи kishilarining xulq-atvor me'yorlarini qalban his qilib, ularni buzmaslikka intilish, jamiyatdagи tartib - qoidalarga ongli munosabat, adolat, halollik ham imondir. Imonning zohiriy sifatlari himmat va saxovat, oriyat va nomus, zakovat va farosat, jamiyat hayotida tinchlik, adolat, insonparvarlik, birovning haqqiga xiyonat qilmaslik, halollik, ezgu ishlar qilishdir. "Imon markazida muayyan dunyoqa-

rash, olamga, odamga va ularning turli uyushmalariga munosabatni belgilash yotsa-da, ammo, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar – so'z bilan ish (amal) birligi, insof, diyonat, halol-poklik, vijdonlilik, sadoqat, muhabbat, til va dil birligi, vatan-parvarlik, shuningdek, oila, jamiyat, xalq va butun insoniyat oldidagi burchni anglash kabi fazilatlar imonlilik shartlari hisoblanadi<sup>1</sup>. Buyuk alloma Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarida bildirgan “Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q. Har kimda bu ikki yo'q – iymon yo'q va har kimda imon yo'q – andin odamiylik kelmak imkonni yo'q” fikrida ham axloq imon butunligini taqozo etishi ifodalangan.

Axloq ilmi mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy (“Fozil shahar aholilarining fikrlari”), Abu Rayhon Beruniy (“Hindiston”), Ibn Sino (“Axloq ilmiga doir risola”, “Burch to'g'risida risola”, “Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola”, “Adolat haqida kitob”), Yusuf Xos Hojib (“Qutadg'u bilig”), Ahmad Yugnakiy (“Hibatul haqoyiq”), Kaykovus (“Qobusnama”), Jalolidin Rumiy (“Ich-indagi ichindadur”), Farididin Attor (“Asrornoma”, “Pand-noma”, “Tazkirat ul-avliyo”, “Ilohiynoma”), Umar Hayyom (“Donishmandlik tarozusi”, “Borliq va burch haqida qaydlar”), Sa'diy Sheroyi (“Guluston”, “Bo'ston”), Abdurahmon Jomiy (“Bahoriston”), Alisher Navoiy (“Mahbub ul-qulub”), Jalolidin Davoniy (“Axloqi Jaloliy”), Husayin Voiz Koshifiy (“Axloqi Muxsiniy”), Abdulla Avloniy (“Turkiy guliston yoxud axloq”), Fitrat (“Rahbari najot”), Cho'lpon (“Hind sayyohi”) kabi mutafakkirlar o'z asarlarida axloqning eng muhim masalalarini ko'tarib chiqdilar, ko'plab axloqiy qarashlarni ilgari surdilar, axloqiy tamoyillar va munasabatdosh kategoriyalarni ishlab chiqdilar.

Sharqning buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy axloqlik hodisasining motivatsion xususiyati, namoyon bo'lishi, axloqning jamiyat hayotidagi o'rni va funksiyalarini tadqiq qilgan alloma hisoblanadi. Uning shoh asarlari “Jamiyatni o'rganish haqida kitob”, “Baxt saodatga erishuv yo'llari haqida risola”, “Fozil

<sup>1</sup> Falsafa qomusiyi lug'ati. – T.: Sharq, 2004.-B.160.

shahar aholisining maslagi haqida kitob”, “Shaharlar haqida siyosat yuritish”, “Urush va tinch turmush haqida kitob”, “Fozil, johil, fosiq, o’zgartirilgan va adashgan shaharlar haqida kitob”, “Ixso-ul-ulum”da axloqni bir butun tizim sifatida tadqiq etdi.

Daraxtning yetukligi, – deydi Forobiy uning mevasi bilan, insonning barcha go’zal xislatlari uning mehri, oriyati, sadog’at, xushfelligi, sharmu hayosi, halimligi, ya’ni axloqi bilan o’lchanadi.

Forobiy fikrini davom ettirib, inson o’zini axloqiy poklamay, tafakkurini boyitmay turib baxt-saodatga erishuvi yuzaga kelmaydi. Inson yaxshi tarbiya ko’rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo’lsa, u ko’p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi. Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog’-salomatligi yaxshi bo’lsin, yaxshi axloq va odobli bo’lsin, so’zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan suqlansin, xiyonat, makr va xiyladan uzoq bo’lsin, diyonatli bo’lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo’lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmidan mol dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to’g’risida bilimni egallasin<sup>1</sup> deb uqtiradi.

Alloma insonning yaxshilikni qo’lga kiritishi uning o’z qo’llida ekanligini ta’kidlab, inson haqiqatni va haqiqat tarafdarlarini sevadigan bo’lsin, yolg’on va yolg’onchilarga nafrat bilan qaraydigan bo’lsin, ruhi g’ururli va o’z vijdonini qadrinidigan bo’lsin, uning ruhi o’z tabiatini bilan past ishlardan yuqori va olivjanob ishlarga intiladigan bo’lsin deb uqtiradi.

Abu Nasr Forobiy tomonidan ishlab chiqilgan “xukmdorning axloq konsepsiysi” o’ziga xos axloqiy-me’yoriy dastur sifatida nafaqat Sharq, balki G’arb Uyg’onish va Yangi davr etikasiga ta’siri kuchli bo’ldi.

Allomaning fikriga ko’ra xukmdor davlatni boshqarishga kirishuvdan oldin o’zini turli hirslardan tozalishi, o’z xulqini tarbiyalashi kerak, turli lazzatlarga, kayfu safoga emas, ha-

<sup>1</sup> Forobiy . Fozil odamlar shahri . –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.-B.182

qiqatga bo'lgan hisni tarbiya qilish kerak va u o'zida 13 ta xususiyatni mujassamlashtirmog'i kerak:

1. To'rt muchali sog'-salomat, biror jismoniy nuqsoni bo'lmasin;
2. Kuchli xotira egasi bo'lsin;
3. Tabiatdan nozik fahm bo'lsin;
4. Zehni o'tkir, aqli tez bo'lsin;
5. Voizlik qobiliyatini egallagan bo'lsin;
6. Qadr-qimmatni biladigan, nomus-oriyatli bo'lsin;
7. Boylik va hashamlarga nafratli bo'lsin;
8. Noloyiq, fahs ishlar, nafsga berilishdan uzoq bo'lsin;
9. Haqiqatga va haqgo'y odamlarga muhabbatli, yolg'on va yolg'onchilarga adovatli bo'lsin;
10. Ilmlarga qiziqadigan va ilm-fanni rivojlantirishga intiladigan bo'lsin;
11. Hayotda kechayotgan voqealarni to'g'ri anglaydigan, farosatli, boshqalar fikrini tez anglaydigan, tabiatdan nozik-fahm bo'lsin
12. Odil bo'lsin vaadolatni sevsin, zolimlar va zulmga qarshi kurashadigan bo'lsin;
13. Me'yorni bilib ish yurgizsin .

X asrda aytilgan bu qoidalar bugun aytilganday, ya'ni o'z mohiyatini yo'qotmagan.

Sharqning yetuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy axloqning yuzaga kelish sabablari xususida teran fikrlarni o'rtaga tashlaydi. Allomaning ta'kidlashicha: "Alloh biz yashab turgan ayon olamini sababsiz, tasodifan, behuda yaratmagan. Yaratishdan asl maqsad oqilu nodonlarga o'zining yagona, qudratli, mehribon va ilm sohibi ekanligidan shaxodat berib turishidir"!

Abu Rayhonning axloqiy qarashlari mazmunida har bir yurtning urf-odatlari, an'analari, bayramlari, yashash tarzi,

<sup>1</sup> Абу Райхан Беруни. Изд. произ. Т.Ш. Определение границ мест для уточнения расстояний между населенными пунктами (Геодезия). -Т.: Фан, 1996.-С.83.

madaniyati borligi, ularni o'rganishga undash, hurmat qilishi, yoqimli va insonni yaxshilik sari yetaklovchi jihatlarini o'zlashtirish masalalari turadi.

Ibn Sino, uning serqirra merosi ko'plab tadqiqotlarning obyekti bo'lgan. "Kitob ush-shifo", "Al-Oonun", "Risolo fil-suhq", "Donishnomai Aloyi", "Kitob al-insof", "Tadbiri manzil" kabi usarlarining mazmunida olam va odam, ularning o'zaro ta'tiri va uyg'unligi, makon va zamon, energiya va harakat, insondag'i jismiy, nafsiy-hissiy va aqliy quvvat kabilalar tahlil qilingan.

Allomaning tibbiy axloq konsepsiysi necha asrki, dunyo tabobinti tomonidan dastur sifatida amal qilinadi. Bu konsepsiyaning yadrosini axloqning oltin qoidasi bo'lgan "me'yor" fushunchasi tashkil qiladi. Jism va ruh tarbiyasi, foydalilik va zarar, harakat va salomatlik, barqaror va tartibli ishslash, mehnat va dam olish, toza havo va toblanish me'yor kategoriysi orqali ochib beriladi.

Uning adob-axloq va insonparvarlik haqidagi ta'limoto tuttu ilmiy-amaliy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ibn Sinoning ta'lim berishicha, axloqiy fazilatlar va ilm o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Alloh zaruriy bir tarzda inson vujudini, uning tekki olamini o'z nuri ila munavvar qiladi. Natijada ilm va axloqiy fazilatlar muayyan qadriyatlarga aylanadi va Yaratgunning karami sifatida namoyon bo'ladi, uning qudrati va mehribonligidan insonlarga saboq beradi, chunki barcha mavjudotlar, mo'jizaviy hodisalar aniq maqsadni ko'zlab yaratilgan. Ibn Sino fikricha, odamlar dehqonchilik qilish va hunarlari orqali o'zlarining moddiy ehtiyojlarini qondirsalar, oqilu donolar suhbatidan bahramand bo'lish, kitob o'qish, ilm o'rganish asosida esa axloqli, manaviyatli va marifatli bo'ladiilar.

Ibn Sino "Tan riyozatidan ko'proq ruh riyozati lozimdir. Murd kishi o'zini riyozat va adab bilan ko'rsatsin, inson bilan hayvon o'rtasidagi farq yolg'iz maishatda emas, yaxshi axloq kush qilmoqdadur", kabi o'nlab qarashlarida axloqiy marifatning zaruriyati yoritiladi, axloqiy ma'rifat insonni yetuklik

sari yetaklaydi, buning uchun riyozat chekmoqlik talab etiliishi uqtiriladi.

XI asrning yirik olimi Yusuf Xojib “Qutadg‘u bilig”, “Adab ul-mulk”, “Pandnomai mulk”, “Shohnomai turkiy” kabi asarlarida axloqiy va estetik g‘oyalar o‘zaro uyg‘unlikda qarab chiqiladi. Ularda odob-axloq, go‘zal xulq, xukmdorlar xulqi bu dunyoda baxt-saodatga erishib yashashlariga sabab bo‘lishi ko‘rsatiladi. Bu asarlarida amaldorlarning axloq qoidalari, fazilatlari, qanday go‘zal ishlarni qilishlari va muloqot odobi haqida mulohazalar yuritiladi.

Yusuf Xos Xojib jamiyat osoyishtaligi odamlar orasidagi yaxshi munosabat va bilimdonlik, alq-zakovat, mulohazakorlik, ochiq yuzlilik, donolik, sahovat, sadoqat, uyat, nomus, andisha, kamtarlik, dil to‘qligi, rostgo‘ylik kabi insoniy fazilatlarga bog‘liqligini asoslab beradi.

Yusuf Xos Hojibning fikricha axloqning o‘lchovi kattalarga bo‘lgan hurmat va izzattadir. Alloma buni shunday misralarda ifodalaydi:

*Nima der, eshitgin, otalar so‘zin,  
Ota so‘zi ochar yigitlar ko‘zin:  
Kishi xizmat etsa agar o‘zgaga,  
Kishilik qiladi asli o‘ziga.*

Inson o‘zining farqlash xossasini har turli g‘arazdan tozalashi lozimdir. Din egasini taniydi. Faqat sen umringni farq etish xossasidan mahrum bo‘lgan kimsalar bilan kechirganing uchun bilmaysanki, uning yaxshini yomon dan farq etish vasfi zaiflashgan va endi dinni, ya’ni insonning hamrohini taniy olmaydi. Sen tanani boqding, ammo unda farqlash xossasi yo‘qdir. Farq etish bir sifat. Axir ko‘rmayapsanmi, jinning qo‘l-oyog‘i bor, faqat farqlash xususiyati yo‘q. Farqlash sendagi latif bir ma’nodir va sen kecha-yu kunduz undan mahrum bo‘lgan narsani (tanani) boqishga harakat etmoqdasan. Uning bu bilan tirik ekanligini bahona qilmoqdasan, holbuki, bu ham u bilan tirikdir. Bu

qanday ishki, sen farqlashdan tamoman mahrum bo'lganini boqding, voyaga etkazding va vaqt ni vujudingni yedirib-ichirish bilan o'tkazdingda, u latif ma'noga, ya'ni farq etish qidratiga parvosiz bo'lding! Sening taxmin qilganingdek, bu (tana) u (ma'no) bilan tirikdir, u (ma'no) bu (ta'na) bilan emas. U – nur, ya'ni latif ma'no berguvchi, ko'z, qulqoq va boshqa derazalardan, agar bular bo'lmasa, yana boshqa tirkishlardan o'zini ko'rsatguvchi. Bu xuddi: "Quyoshni chiroq bilan ko'rayapman" deb, quyosh qarshisiga chiroq keltirib qo'yishga o'xshaydi. Aslida, chiroq bo'lmasa ham, quyosh o'zini senga ko'rsataveradi. Chiroqqa nima hojat? Allohdan umidni uzmaslik kerak. Umid-ishonch yo'lining boshi. Yo'lda yurmasang ham, doimo yo'lining boshini ko'zla. "Noto'g'ri ishlar qildim", - dema, to'g'rilikni tut. O'shanda hech qanday egrilik qolmaydi<sup>1</sup> – deya, odamni tadqiq etar ekan, Mavlono Rumiy odamning tabiatini va intilishlarini kuzatadi, botiniy jollar va surilishlar, qalb siljishlarini qidirib topadi. Insonning imon gavhari, buyukligi barobarida, nuqsonlari, nafsi, hissi oqibatida kelib chiqadigan yovuzliklarni tahlil etib, bulardan qutulish, poklanish yo'llari, fazilatini bayon etadi. Shu taxlit, insonning ma'naviy kamoloti yo'llari, ma'rifatli bo'lishning ahamiyati va muhimligi yuqoridagi kabi misollar usosida tushuntiradi.

Farididdin Attor o'zni bilish, nafsni isloh aylash, shahvatni engish va Haqning vujudiga fone bo'lib, vahdat saodatini qo'lga kirish kabi olamshumul haqiqatdan bahs yuritgan al-bunadir. 250 dan ziyod hikoyatlardan iborat bo'lgan "Illohiy-noma" asarida ma'naviy ahloqiy kimyo, bu kimyo saodatning kuch-quvvati, har narsadan avval ishq, irfon va ilmga tayanih yo'llarini izohlab bergen.

Kimyo yoki kimyo saodat degan tushuncha – bu nafsni tozalash, uni jilolantirish, yomon fel-xo'ylari yaxshilar bilan o'zgartirib, vujud talabi ila tug'ilajak hayvoniy maylu

<sup>1</sup> Jaloliddin Rumiy. Ichindagi ichindadur. –T.: Yangi asr avlod, 2013.- II.21-22.

hirslardan ozod bo'lish demak. Nafsning tuban va chirkin xususiyatlari yo'qotilib, ularning joyiga yuksak va qiymatli fazilatlarni sobitlashtirmoq bilan nafs tazkiya etiladi. Ana shu haqiqat kimyodir, chunki u yomon xulqlar orasidan nafsning javharini yuzaga chiqarib, yaxshi va go'zallari bilan o'zgartiradi<sup>1</sup>.

Attor inson ongi, botiniy hayotini o'zgartirmay, zohiriyl dunyoda oliy orzu-umidlarga yetishib bo'lmasligiga to'la ishongan. Irfon kitobi "Asrornoma"sida ta'kidlashicha odam agar o'ziga o'zi marifatsizlik, hayvonlik va shaytonlikni ravo ko'rmasa, boshqa birov uni hirs va manfaat mahbusi, tubanlik yo jaholat malayiga aylantirolmaydi.

Buyuk alloma Alisher Navoiyning har bir asarida axloq masalalari ko'rilgan. Odobli inson, - deydi Navoiy barcha xalqlar uchun yoqimlidir, u mansabdor kishilardan go'zalroq va badavlat odamlardan hurmatliroqdir, odob – kishilar tarafidan qilishi mumkin bo'lgan hurmatsizlik eshigini bekitadi va odamni hazil-mazahdan, kamsitishdan saqlaydi.

Sharqning mashhur ahloqshunoslaridan biri Xusayn Voiz Koshifiy inson yaxshi xulq, go'zal (ahloq) muomala yo'lidan yurmay turib izzat va sharaf manzilini egallab olmasligi, hayvonot biyobonidan insoniyat dorulmulkiga yetib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Koshifiyning axloqiy qarashlari markazida insonparvarlikka da'vat turadi va uni juda keng ma'noda tushunadi. Uning fikricha kishilarning insonparvarlik fazilatiga bo'lgan ehtiyoji suv va olovga bo'lgan ehtiyojdan ham muhimroq. Koshifiyning nazdida inson o'n qoidaga amal qilish kerak:

"birinchi – elga muxolifat (teskari) ish qilmaslik; ikkinchi – o'z nafsiga insof tilash; uchinchi – kishi aybini ochmaslik; to'rtinchi – har kishida uchraydigan (nomunosib, yomon) xulq-atvor bo'lsa, uni afv etmoq; beshinchi – uni yaxshilik tomonga burish; oltinchi – och-yupunlarning hojatini chiqarmoq; yettinchi – inson uchun mashaqqat tortish; sakkizinchi

<sup>1</sup> Qarang: Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. – T.:Fan, 2009. B.48.

— o'z nafsinu tiyish; to'qqizinchi – kishi xalqqa toza yuz bilan ko'rinish; o'ninchı – kishiga yaxshi so'z aytmoq”<sup>1</sup>.

Axloq-odobga asoslangan “Turkiy guliston yohud axloq” ususrida Abdulla Avloniy axloqning mohiyati va funksional xususiyatini, inson xulq-atvori va tarbiyasi muammosini chuqur tohlil qilgani : “Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini bayon qiladurg'on kitob axloq deyilur, u insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir”<sup>2</sup>.

Avloniy ahloq binosining go'zal va chiroyli bo'lishiga tarbiyaning ta'siri kattaligini alohida uqtiradi. Ba'zilar tarbiyaning axloqqa ta'siri yo'q, insonlar asl yaratilishida qanday bo'lalar shunday o'sarlar, tabiiy o'zgarmas deb aytadilar. Lenkin bu so'z to'g'ri emasdир. Chunki tarbiyaning albatta axloqiy tu'siri bo'ladi. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordими bordir. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponning ustini qo'yib, astarini yuvib ovo'm bo'lmoq kabidirki, har vaqt ustidagi kir ichiga uradi. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdir. Avloniy fikridagi eng xarakterli jihat shundaki, u har bir narsaga ishonch-e'tiqodni, ixlos va ibratni ta'minlamoq uchun bolani yoshligidan ana shu fazilatlar ruhida tarbiyalash zarurligini tu'kidlaydi.

*Xulqi yomon yuz, ko'zlidin na sud,  
Yuz, ko'zli xulqni qilmas kashud.  
Xalq mariziga da'vo istasang,  
Marg davosin berilur – qistasang.  
Xulqi yomonning keturar ko'p zarar,  
Xulqing o'zi boshing (g)a kaltak urar.  
Xulqi fano bo'lsa, degil – alhazar,  
Xoru zalillikda qolur darbadar.*

<sup>1</sup> Qarang. Maxmudov R. Husayin Voiz Koshifiyning falsafiy axloqiy qarashlari. –T.: Mumtoz so'z. 2015. B. 67.

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. J.2. –T. Ma'naviyat, 1998. – B. 13.

Abdulla Avloniy inson komilligining bosh mezoni sifatida aqlni ko'rsatadi va barcha insoniy sifatlarning zaminini aql tashkil etishini ta'kidlaydi. Buni quyidagi rivoyat orqali ifodalaydi: "Bir kun otamiz Odam alayhis-salomga janob Haq tarafiddin hazrat Jabroil AOL, DIN va HAYOni kelturib: Alloh taolo sizga bu uch narsadan birini olub qolurga sizni ixtiyor qildi. Hohlaganiningizni olib qolingiz, sizga hadyadur, dedilar. Odam alayhis-salom: Aqlni ixtiyor qildim deganlarida, hazrat Jabroil Din ila Hayoga boqub: Sizlar o'z joyingizga ketingiz. Odam sizlarni qabul qilmaydi, desalar, alar: Janob Haq bizlarni, Aql qayda bo'lsa, sizlar ham shunda bo'lursiz, deb amr qilgan edi, bizlar Aqldan ayrilmaymiz, dedilar. Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, Aql qayda bo'lsa, Din va Hayo ham shunda bo'lur ekan"<sup>1</sup>.

Demak, allomaning ta'kidiga ko'ra yaxshi xulqlarning boshida va ularning takomilida belgilovchi mavqega ega bo'lgan inson aqli turadi.

*Aqldek zebo sifatni ko'rdi haq insonga eb,  
Oqil insonlar bilan berdi jahon olamga zeb.  
Aql nuri birla to'ldi dunyoga ilmu xunar,  
Aqsiz inson qachon bilgusidir naf'u zarar.*

Alloma Hayoni dilni ravshan qiladigan nur sifatida tasvirlaydi va inson doimo shu nur bilan ziyolashishi lozimligini uqtiradi:

*Hayo, nomus imona dalildur,  
Hayosiz doimo xoru zalildur.  
Uyolma ma'rifat hosil qiluvdan,  
Maorifsiz kishilar murda dildur.*

Avloniy qarashlarida axloqiy ratsionalizm belgilarini ko'rish mumkin: "Ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning

<sup>1</sup> Avloniy A. Tanlangan asarlar. J.2.-T., 1998. B.10-11.

ishlari yerida, o'zlari tinch va rohatda umr o'tkazurlar. Hozirgi zamonda bizning Turkiston boylarining ishlari to'xtab, sinuvlarning birinchi sababi ishlarini axloqsiz, bilimsiz, musrif, yalqov kishilarga topshiruvlari ila barobar o'zlarining zamonga muvofiq tartib va nizomdan xabarsizliklarining emushidur”<sup>1</sup>.

Allomaning mazkur fikrda ifodalangan muammo hozirgi kunda ham o'ziga xos ko'rinishda uchraydi. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham ko'rish mumkin. “Eng katta muammo – fermerlarning qishloq xo'jaligi sohasida yetarli bilimga ega emasligidir. To'g'ri, ularda kuch-g'ayrat, tashabbus, yerga mehr bor, ko'pchiligining ko'zi yonib turibdi. Lekin, afsuski, birligina xohish bilan biz yuqori hosildorlikka va pirovard matijaga erisha olmaymiz. Bizga qishloq xo'jaligi texnologiyalarini mukammal egallagan, zamonaviy ishlab chiqarish va innovatsiya usullaridan xabardor fermerlar suv bilan havodek zarur”.

Avloniy komil inson sifatlari majmuasiga kiritgan “nazari ibrat” tushunchasi yuqorida qayd etgan fikrining manfiqiy oqibatidir. Nazari ibrat, deydi Avloniy – har bir narsaga sinchiklab boqub, shundan o'ziga bir hissa ibrat olmoqqa aytilur. Hulqlarning eng afzali, insonlar uchun eng keraklisi nazari ibratdir. Inson ibrat nazari ila boqub dunyo kitobindan o'z qadr – hissasini bilub olmak lozimdir. Ma'rifat sohibi bo'lmak uchun ahvoli olamdan xabardor bo'lmak kerak.

Mahmudxo'ja Behbudiy qarashlarida ham shu kabi mulohazani ko'rish mumkin, chunonchi, “Olimi zamoniy bo'lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarub, zaruriyati diniya va o'z millatimiz tilini bilaturg'ondan so'ngra hukumatimizning nizomli maktablariga bermoq kerakdur... so'ng, Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injengerlik, sud'yalik, ilmi san'at, ilmi

<sup>1</sup> Avloniy A. Tanlangan asarlar.J.2-T.,1988.-B.39–40.

iqtisod, ilmi himmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o'qitmoq lozimdir”<sup>1</sup>.

Abdurauf Fitrat Turkistonning chuqur inqirozi sabablari dan biri qilib, madaniy – maishiy va ma’naviy hayotdagি ilatlarni ko’rsatadi. Chunonchi, kishilardagi tanballikni “Hind sayyohi qissasi”da quyidagicha tasvirlaydi: “Donishmand sayyoh Qarshida olacha to’quvchi mohir ustadan Ovropada o’z ishlarining o’n-yigirma, hattoki yuz-ikki yuz yil keyingi rivojini ko’zda tutadilar. Siz ham hunaringizning kelgusi taqdirini hech o’ylaysizmi? – deb so’raydi. Shunda usta: “Hozir ishimiz yaxshi, o’n yildan keyin kim tirigu kim o’lik”<sup>2</sup>. – deb javob beradi.

Fitrat “Najot yo’li” asarida axloqning ijtimoiy sifatlari ga e’tibor qaratgan. Fitrat talqiniga ko’ra, bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog’lom jismu tan, aql va axloqdir. Lekin ana shu qirol-aslahamiz sinib, zang bosib chirib ketgan. Shunday qurollar bilan bu dunyoda bizga na saodat va na rohat bor. ... Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus va e’tibor kerak bo’lsa, tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib... tarbiya etishimiz lozim. “Saodati dorayn” – ikki dunyo saodatiga erishish kishilar umrining samarasi o’laroq, komillik sifatida amalga oshishini va bunda vijdon amri vazifalarini ado etish zarur, vijdon amri kishilarning o’ziga yuklangan vazifa va majburiyatlarini har zamon va joyga qaramay, vijdonan va sidqidildan bajarishlaridir va bunga sayi-harakatlari bilan erishiladi. Bas, saodati dorayn orzusida yurgan har bir millat namoyandasini bir-birlariga madad bersinlar, illo busiz maqsadliga erisha olmaydilar. O’z osoyishtaligini g’animat bilgan, birovning xoliga qaramaydigan, millatiga matonat va madad ko’rsatmaydigan odamlarning na qavmi, na o’zi saodati doraynga erishadi.

<sup>1</sup> Behbudiy M. Tanlangan asarlar. –T., 1999. B.14

<sup>2</sup> Qarang: G’afurov I.Ijtimoiy ong va Fitrat // Jamiat va boshqaruv.-1997.-№ 1.-B.27.

Fitrat axloqiy komillika erishishda uch vazifani – “vazifat nafsiya”, “vazifai oila” va “vazifai insoniya”ni belgilaydi. Ulardan birinchisida nafs “kamoli - bu odamning ham o’ziga va ham o’z hamjinslariga foyda va naf’ keltirishidir”. Ayni vaqtida nafs asosiga ko’ra to’rtta – shijoat, hikmat, ifrat va adolatdan iborat bo’lgan solih amallarga xizmat qilib, o’zlari tiysa, nafratlansagina, uning darajasi yuqori bo’ladi. “Shijoat” bilan qiyosda qo’rroqlik (“jubun”) va haddan ziyyod jasurlik (“tahavvur”) axloqiy nuqsonlar hisoblanadi. Ular “shijoat”ga o’ngdan va so’ldan nisbatdosh bo’lib kelindi. Bu hol uning tashkil etuvchilaridan bo’lgan “karam”ga tegishli tarzda “baxillik” va “isrof”, “jasorat”ga “ojizlik” va “ziyon-zarar”, “sabot”ga “ikkilanish” va “sarkashlik”, “muloyimlik”ka “himoriy” va “g’azab” ko’tinishlarida namoyon bo’ladi<sup>1</sup>.

Cho’lpon o’z axloq falsafasida Fitrat kabi ijtimoiy masalalarga alohida e’tibor qaratadi. “Bizning e’tiborligimiz va ustunligimiz – bilimimizning e’tibori va iqtidorimizga bog’liq. Agar biz o’zimizning bilimimiz va iqtidorimizdan foydalanmasak, nimaki e’tiborli, ustun, balki eng yomon va past maxluqlardan ham pastroq va yomonroq bo’lib qolishimiz aniqdir”<sup>2</sup> – deb uqtiradi.

Axloq tabiatiga zid odatlar jamiyatda axloqsizlik hodisalariga o’rin berishini o’zbek to’y marosimi tanqidi orqali ochib beradi: “To’y foydali bo’lsa ham chegaradan o’tsa, zarardan boshqa narsa bo’lmaydi. Bizning mamlakatimizda to’y ko’p zararlarga sabab bo’lgan hollari mavjud. Buxoroda shunday odamlar borki, 10-12 yil davomida besh-olti ming so’m mablag’ini zo’r berib yig’adilar. Bir hafta ichida hammasini “to’y” nomi bilan nobut qiladilar, yana qarzdor va kambag’al bo’lib qoladilar. Agar bu beandishadan: “shuncha mol-xolni nimaga behudaga sarf va xarj qilib bu qora kunga tushdingiz? Qaysi din, qaysi mazhab, qaysi hukumat va qan-

<sup>1</sup> Fitrat. Najot yo’li. T., Sharq, 2001. –B.17

<sup>2</sup> Qarang: SHarofiddinov O. Ijodni anglash baxti. T.:SHarq, 2004. - B.116.

day qonun sizlarni bu axmaqona ishga majdur qildi?" , - deb so'rasangiz albatta javob bera olmaydi <sup>1</sup>..

Cho'lponing bu fikrlarida nafaqat o'sha davr, balki hozirgi zamonamiz uchun ham ibrat olsa arzigulik g'oyalalar mavjudki, bu g'oyalalar zamirida insonni tarbiyalashda hamma narsani qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish, millat axloqini, ma'naviyatini darz ketgazuvchi harakatlarni siqib chiqarishga qat'iy da'vat bor. Kishi fe'l-atvorida yangiliklarga intilish, yaratish, bunyodkorlik hissi emas, hamma narsaga loqaydlik, udumlarga ko'r-ko'rona yondashuv ustunlik qilsa milliy birlik, hamjihatlik va ulug'vorlik yo'qoladi, bu Fitratning ijtimoiy -axloqiy o'giti edi.

Cho'lponning ushbu fikrlari Ahmad Donish qarashlarida o'zgacha ifodalangan. Inson yeri koinot orasidan o'rin olgan ajib bir mavjudoddir... Agar u xayolga cho'msa: yetti qavat osmonni xayol qutichasiga joylaydi. Agar u fikr qilsa, butun borliqni fikr tokchasiga sig'diradi, agar uning mehri tovlansa, bechora chumolining kiprigi ustida saqlaydi, agar uning saxiyligi jilva qilsa, to'nini birovga berib o'zi yalang'och qoladi, agar uning xasisligi ruju qilsa, qumursqa og'zidagi donni tlashadi.

G'arb axloqshunosligida Suqrot "o'zini tanish", "o'zgalarni o'zgartirmoqchi bo'lgan inson, avval, o'zini o'zgartirishi lozim" degan g'oyalari bilan katta o'rin tutdi. Mazkur g'oyalalar nafaqat antik davr, balki keyingi davrlar etikasining ustuvor mavzularini belgilab bergan.

Masalan baxt, farovon hayot mavzulari. Bu mavzular evdemonizm ta'limotining yuzaga kelishida poydevor vazifasini bajardi.

Insonning baxtli bo'lishi o'z-o'zini bilish bilan bog'liq. O'z-o'zini bilish o'z ma'naviy-ruhiy olamini o'zgartirish bilan kechadi, shundan keyingina hayotni, tashqi dunyonni o'zgartirishi mumkin. Ma'naviy-ruhiy olamini o'zgartirish Suqrotga ko'ra bilimga bog'liq, bilm kishini ezgu niyatli qilib,

<sup>1</sup> Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -T.: Ma'naviyat, 2000.-B 31-32.

yuxshi ishlarga yetaklaydi. Bilimli kishi ongli tarzda gunoh qilmaydi, ayb, gunoh ishlar yomonlik, bilimsizlikdan kelib chiqadi. Bilim cheksiz, shuning uchun kishi o'z bilimidan qotqmay, mudom izlanishda bo'lishi, ya'ni "bilmasligini bilish" orqali yetuklikka erishishi mumkin. Insonning bilish xususiyoti shunchaki subyektiv faoliyat natijasigina emas, balki aqlu idrokni obyektiv holati, kuchi natijasi, ya'ni, bilish obyektiv zaturiyat, obyektiv ehtiyojdir.

Axloq ma'naviy faoliyatni, bu faoliyatni tartibga soluvchi, burchli bo'lishning, insonga qo'yiladigan talablarning turli shakllarida yuz beradigan axloqiy munosabatlarni va mazkur munosabatlarni tegishli tasavvurlar tarzida aks ettiradigan axloqiy ongni o'z ichiga olishini alloma asoslashga urg'u berdi. Axloqiy ongnining barcha ana shu shakllari mantiqiy jihatdan tartibga solingan tizimga birlashtirilgan bo'lib, bu tizim axloqiy harakatlarni faqat buyurishga emas, balki muayyan tarzda dalillash va baholashga imkon beradi.

Shuningdek, Suqrot "o'z-o'zingni anglab yet" muammo-sini kun tartibiga qo'yganda 3 manoni nazarda tutgan:

- a) donishmand bo'lisch;
- b) adolatni kasb etish;
- d) umumiy qoidalarga rioya qilish.

Suqrot farovon dunyoga, eng avvalo, oqil va donishmand kishilar erishadi, chunki aynan ular adolatli va qonunga itoatkor bo'lib, hayoti ezgulikka yo'g'rilgan deb hisoblaydi.

Aflatunning axloqiy qarashlarí Suqrot g'oyalarining mantiqiy davomidir desa bo'ladi. "Bizga xush keladigan va har bir odam uchun qonun sifatida ixtiyoriy qabul qilsa bo'ladigan hamda shu qatori yoqimli, dilxush, eng yaxshi va zebo, odamlar erisha oladigan, saodatmand yashasa bo'ladigan qancha hayot turlari bor? Ushbu hayot turlari – mulohazali (ongli), oqil, mardona, sog'lom hayot. Bu to'rt turga to'rttasi qaramaqarshidir: mulohazasiz(ongsiz), bebos, qo'rkoq, nosog'lom.

Kimki mulohazali hayot bilan tanish bo'lsa, u har jihatdan osoyishta kechadi: uning dardlari osoyishta; huzurlari ham osoyishta; unda bo'shashtiruvchi ehtiroslar ham, jun-

bushga keluvchi xohishlar ham yo'q. Aksincha, bebosh hayot qo'polliklarga to'la..."<sup>1</sup>

Etikani mustaqil fan sifatida ilmiy-falsafiy bilimlar tizimiga kiritgan mashhur yunon faylasufi Arastu "Nikomax etikasi" asarida etikaga insonlar o'rta sidagi munosabatlar doirasida va oqil, ijtimoiy hayvon-individning axloqini o'rganuvchi fan, deb nom berdi. Etikaga amaliy fan sifatida qaragan Arastu axloq hodisasiga quyidagicha ma'no yuklab, ta'rif berdi: "Axloq amaliy masalalarni hal etadi, axloqning asosiy tushunchasi yaxshilik maqsadi bilan bog'liq va u doim yangilikka intiladi. Bu maqsad orqali boshqa g'arazli maqsadga erishishga intilish bo'lmasligi kerak"<sup>2</sup>.

Arastu fikriga ko'ra axloq, birinchidan, inson xulqini, tafakkurini tartibga solib, muayyan maqsad sari yetaklaydi. Qo'yilgan maqsadga teskari natija beruvchi faoliyatni amaliy faoliyat deb bo'lmaydi.

Ikkinchidan, axloq insonga o'zi yashayotgan olamni yaxshi bilish va o'zgalar olamidan boxabar bo'lismaydi. Faqat shu tarzda odam atrof bilan muloqot qila oladi va muhim munosabatlar o'rnatishga yordam beradi.

Arastu qarashlarining ilg'or tomoni uning quyidagi fikrlari bilan ham tavsiflanadi:

- axloqli inson, hatto, o'z hayotidan mahrum bo'lgan taqdirda ham do'stlari va vatan yo'lida ko'p ishlarni bajaradi;
- kimki fanda ilgarilab ketsa-yu axloqda oqsasa, u oldinga emas, orqaga ketadi;
- inson qo'lidan keladigan, o'ziga yarashadigan ishga qo'l urishi kerak;
- aqlli kishi ko'ngliga nima ma'qul kelsa, ketidan quvmaydi, uni ko'ngilsizlikdan nima qutqarsa o'shaning ketidan quvadi.

Arastu "Siyosat" asarida 3 omil, ya'ni tabiat, odat va

<sup>1</sup> Aflatun. Qonunlar. -T.: Yangi asr avlod. 2008.-S.B.143.

<sup>2</sup> Arastu.Soch. – T – 4.M: 1984.-S.54

aql uyg'unligi odamlarni yaxshi va ezgu xislatli qilishini ta'kidlaydi. Inson tirik mavjudod sifatida tabiatdan tashqarida yoshay olmaydi va shu sababli tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lishi kerak. Inson o'zi mansub bo'lgan xalqning odatlarini o'zlashtirmsandan jamiyat a'zosi bo'la olmaydi. Anstu talqiniga ko'ra aqlni inson belgilamaydi, balki aql insonni belgilaydi, faqat aql huzur-halovat va azob-uqubatni birlidan ajratadi, ehtiroslarni tiyadi, yomon odatlarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaydi.

Arastu axloqning jamiyat hayotidagi muhim ahamiyatini ochib: "Tabiat inson qo'liga quroq – aqliy va axloqiy kuch berган, ammo u shu quroqni teskari tomonga nisbatan ham ishlatishi mumkin; shu sababli axloqiy tayanchlari bo'limgan odam, eng insofsiz va yovvoyi, o'zining jinsiy va did maylla-hida eng tuban mavjudod bo'lib qoladi"<sup>1</sup> deb, ta'kidlaydi.

Arastu kabi boshqa yunon olimlari ham chunonchi, Demokrit, Aflatun, Epikur va Lukretsiy Karlar axloq masalalari alohida to'xtalganlar. Ularning qarashlaridagi umumiylilik – aql, adolat, do'stlik, ezgulik, farovonlik, oqillik kategoriyalari tahlili va mazkur kategoriyalarning inson hamda jamiyat hayotini boshqarishning asosiy sharti sifatida tavsiflash bilan karakterlanadi.

G'arb uyg'onish davrining yirik atoqli faylasuflari axloq masalasiga real, amaliy axloq, hayotiy va dunyoviy nuqtayi nazardan yondashishdi. Bu davr falsafasi insonni eng oliy qadriyat sifatida olib qaradi va ijtimoiy munosabatlarni baholashning insoniylik mezoniga asos soldi. O'ziga xos layo-qat, qobiliyat, iste'dod, burch, bunyodkorlik, yaratuvchanlik va barcha bilimlarni o'rganish kabi fazilatlar qadriyatiy baholandi va inson faoliyatiga baho berishda shu mezonlarga tayanildi. Bu manaviy hodisalar shaxs, baxt, farovon hayot, lazatlanish kabi tushunchalarining shakllanishiga va shaxs xatti-harakatlari, hulq-atvori axloqiy qoidalari, me'yorlarini ishlab chiqishga olib keldi.

<sup>1</sup> Арасту. Политика. – М: Мысл. 1997.-с. 8-9.

Bu o'rinda, albatta, Dante Alig'eri ("Yangi hayot", "Bazm"), Franchesko Petrarka ("Mening sirim"), Piko Della Mirandola ("Geptapl", "Insonning qadr-qimmati to'g'risida nutq"), Jordano Bruno ("Qahramonona entuziazm"). Makiavelli ("Davalatpanoh"), Tomas Mor ("Utopiya"), Tommazo Kampanella ("Quyosh shahri")larning asarları qudratli manba vazifasini bajardi.

Mazkur mutafakkirlar ma'naviy axloqiy qarashlariga antik yunon falsafiy ta'limoti va Sharq falsafasi katta ta'sir ko'rsatganini ta'kidlash joiz. Masalan, Dante Ibn Sino, Forobiy, Ibn Rushd an'analarini davom ettirib, insonning insoniyligini aniqlovchi mezonnarni yaratishga urindi. Uning fikriga ko'ra, saxiylik, olijanoblik, insoflilik va diyonatlilik, mehnatsevarlik insonning insoniyligini ifodalovchi eng muhim xususiyatlardir.

Dante Aligeri "Komediya", "Monarxiya", "Pul" asarlarida inson o'z hayotining yaxshiligi yoki yomonligi uchun o'zi masuldir, bunda insonning shaxsiy xususiyatlari belgilovchi ahamiyatga ega, uning merosiy ahvoli va boyligi xech qanday rol o'ynamaydi deb, ta'kidlaydi

Dante inson kamolotida axloqning roliga juda katta diqqat-e'tibor qaratdi, axloqni hamma fanlardan ustun qo'ydi va har bir kishining manaviy-axloqiy qiyofasi jamiyatning ma'naviy, madaniy va axloqiy darajasini belgilaydi degan fikrni ilgari surdi va inson o'zida shakllantirishi majburiy bo'lgan qoidalarni ko'rsatadi.

Franchesko Petrarka "Mening sirim", "Avlodlarga maktub", "Azob va quvonchlarga qarshi vositalar", "Respublika haqida", "O'z bilimsizligim va o'zgalar bilimsizligi haqida" asarlari-da gumanizm g'oyalarini ilgari surdi va bu insonning ichki olamini anglash, insonni hayotiy faollikka chaqirishida, insonni o'ziga ishonishni ta'kidlaganda o'z ifodasini topdi.

Tomas Mor o'z asarlarida Platon va Abu Nasr Forobiyning adolatli shoh haqidagi mulohazalarini davom ettirdi. Maksimal tenglik joriy etilgan orolda faqat har tomonlama ilmli, ma'rifatli, turli illatlardan holi zotgina hukmdorlik qilish

mumkin. Hukmdor shunday bir manbaki, undan butun xalqqa ham ezzgulik, ham yovuzlik yog'ilib turishi mumkin – deb yozuli mutafakkir.

Tomas Mor fikriga ko'ra hukmdor va barcha kishilar o'z axloqiy qiyofasiga ega bo'lishi shart, chunki faqat yuksak axloqiy qiyofali kishilar mavjud orolda hamma baxtli va adolatli hayot kechiradi.

Spinoza "Etika" asarida aqlni axloqning asosi deb e'tirof etlib, kishining xatti-harakatlari faqat uning o'ziga bog'liq, odumming o'zi yaxshi-yomonni ajratishga qodir ekanligini tu'kidlaydi.

Gobbs "Leviafan yoki materiya, cherkov va fuqaro davlati shakli va hokimiyat", "Erkinlik va zaruriyat", "Fuqaro haqidagi ta'limot elementlari" va boshqa ko'plab asarlarida davlat va jamiyat qanday bo'lishi kerakligi haqida so'z yuritadi. Gobbsning fikriga ko'ra davlatda - tenglik, qonun, jamiyatda - ahloq normalarning ustuvorligi ta'minlanishi shart. Individualizmni Gobss inson faolligi, ayniqsa tadbirkorlik faoliyatining universal o'lchovi sifatida e'tirof etadi. Uning fikricha, hatto yaxshilik qilish zamirida ham o'z manfaatlarini to'g'ri anglash yoki "oqilona xudbinlik" deb baholaydi.

Yangi davr va zamonaviy G'arb axloq falsafasi inson o'z-o'zini anglashi bilan fikrlashi axloqiy qonunlarga bo'ysunishi, ya'ni "ixtiyoriy ravishda ishlab chiqilgan qat'iy tamoyillar evaziga o'ziga o'zi xo'jayin bo'lish"i, uni manaviy-axloqiy jihatdan o'lchash va insonni o'z-o'zini o'zgartirish, o'z-o'zini tashkillashtirishga qodir shaxs sifatida yondashdi.

Gegel "Ruh fenomenologiyasi", "Tarix falsafasi", "Huquq falsafasi", "Din falsafasi" asarlarida jamiyatni falsafiy anglashning yaxlit tizimini ishlab chiqdi va bu tizimdag'i manaviy axloqiy tizimni alohida tahlil qildi. Gegelning ta'lim berishicha, ijtimoiy strukturaning tub asosini ma'naviy axloqiy madaniyat tashkil etadi. Ma'naviy madaniyat o'z mohiyatiga ko'ra obyektiv xarakterga ega bo'lib, uning mavjudligi yoki amal qilishi ayrim individlarning xohish- irodasiga bog'liq emasdir. Aksincha, har bir individ jamiyatga xos bo'lgan ma'naviy

madaniyat qadriyatlarini o'zlashtiradi, madaniyat talablariga bo'y sunadi. Agar ayrim kishilar ijtimoiy shartlangan madaniy qadriyatlarni tushunmasa va anglamasa, madaniy qadriyatlarsunga nisbatan tashqi majbur qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Gegel faqat ma'naviy madaniyatgina jamiyatning bir butun tizim sifatida rivojlanishi uchun imkon beradi, deb hisobladi. U ayniqsa o'ziga zamondosh bo'lgan G'arbiy Yevropa madaniyatiga alohida e'tibor berdi. U ana shu madaniyatning keng yoyilishi, barcha qit'a va mamlakatlarning jipslashuviga, jahon hamjamiyatining qaror topishiga olib keladi, deb ta'kidladi. Davlat, Gegelning fikricha, obyektiv axloqiy ruhning yuksak taraqqiyotidir.

Buyuk fransuz mutafakkiri Ogyust Kont pozitiv falsafa (axloq)ga asos soldi. Uning fikricha, jamiyatni pozitiv axloqiy ilmlar asosida qayta qurish mumkin. Pozitiv ilmni quyidagi-cha izohlaydi:

- yolg'onchilikka qarshi haqqoniylik;
- keraksizlikka qarshi foydalilik;
- shubhalilikka qarshi ishonchlilik;
- noaniqlikka qarshi aniqlik.

G'arb mutafakkiri, "Iroda falsafasi" oqimining yirik vakili A.Shopengauer o'z axloqiy ta'limotida barcha axloqiy harakatlarning zaminida o'zgalarga rahmdillik qilish, o'zgalarga qo'lidan kelgancha yordam berish, ularga g'amxo'rlik qilib turishi kerakligini ta'kidlaydi. A.Shopengauer talqiniga ko'ra rahmdillik – inson ma'naviyatining poydevori, faqat rahmdillik haqiqiy insonparvarlik va adolatni belgilab beradi. Adolat va insonparvarlik esa ma'naviy qadriyatlар ichida eng oliysidir. Shu nuqtayi nazardan Shopengauer ma'naviy hayotning asosini, ma'no-mohiyatini unga bo'lgan intilish, iroda belgilaydi, iroda yagona ichki manbadir, u har bir ongning bevosa ta o'zidan kelib chiqadi, iroda jarayon sifatida doimo rivojlanishda va u kuch – qudratdir, ana shu kuch rivojlanishni sodir qiladi deydi.

XIX asrning oxirlarida yashab ijod etgan "Hayot falsafasi" ta'limotining asoschilaridan biri Fridrix Nitsshening

"Zardo'sht tavallosi" nomli asarida ham antik davr faylasufi Sugrotning "o'zgarish" xususidagi fikri borasida o'zgacha yondashishi kuzatiladi.

Nitsshe, qalbga axloq o'zgarishlarining mezonini sifatida qoraydi. Qalbning o'zi,- deydi u, inson harakatini nazorat qilishi kerak, chunki inson qalbi, vijdoni eng oliv hakamadir. Kibru havoga aylangan axloq, ikkiyuzlamachilik, laganbardorlik, ming'rurlik, gerdayganlik va xudbinlik illatlarini o'zgarishlarga xuluqit beruvchi shilliq qurtdir va inson o'zini bunday axloq ruhidan tozalashi kerak, bunday axloqdan butunlay voz kechishi lozim. Bunda qalb axloq me'yori, o'lchami bo'ladi, - deb tu'kidlaydi.

Axloqning mohiyati "Hayot falsafasi"ning yirik yirik va killaridan biri Anri Bergsonning asarlarida ham, chunonchi, "Axloq va dinning ikki manbayi"da chuqur bayon qilingan. Axloq yashirin xususiyatga egadir,- deydi Bergson, chunki uning mohiyati haqiqatan ham yashirindir – uni o'rghanuvchi tadqiqotchi uchun ham. Uning yashiringanligining sababi uning shakllarining ko'pligidir. Shuningdek, axloq o'zgaruvchan lug'ma xususiyatga ega emas. Shuning uchun axloq insoniyatning mahsuli sifatida talqin qilinadi, u ijtimoiy kelishuv natijasidir.

"Axloqiy tadqiqotlar" asari bilan tanilgan F.Bredli o'z qarashlarida inson o'z maqsadi sari harakatida iztirob yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrasa birovni ayblamasligi, sababini o'zgadan qidirmasligi, aksincha aybdor birinchi o'zi bo'ladi, amalga oshmagan maqsadlar biz tomonidan tashlangan, boshidan yo'l qo'yilgan xatodir, ular to'g'ri rejorashtirilmagan, yagonalik talablariga moslashtirilmagan deb ta'kidlaydi.

Bredli har bir inson o'zi ustida g'amxo'rlik qilishi kerak, shaxsiy manfaatlarini amalga oshirishi zarur, bu axloqiylikdir deydi.

Axloqiy qarashlar rivojiga ekzistensializm falsafasi ulkan ta'sir ko'rsatdi. Ekzistensializm falsafasining yirik namoyondalari – M.Xaydegger ("Borliq va vaqt"), J.P.Satr ("Borliq va hech nima", "Ekzistensializm-bu gumanizm"), K.Yaspers

(“Aql va ekzistensiya”, “Umumiy psixopatalogiya”, “Haqiqat to‘g‘risida”), N.A.Berdyyayev (“Erkinlik falsafasi”, “Inson burchi haqida. Paradoksal etika tajribasi”)lar o‘z asarlari orqali inson mavjudligi, hayotning mazmuni, ruh, madaniyat, erkinlik, burch, ma’suliyat, sivilizatsiya masalalarini o‘ziga xos ravishda yoritib berdi.

Martin Xaydegger “Vijdon chaqirig‘i, gunoh tuyg‘usi deb atalmish subyektiv sohadagina inson o‘zining butun borlig‘i bilan namoyon bo‘ladi”, Jan Pol Sartr “Biz inson o‘z-o‘zini tanlaydi deganimizda, u o‘zini tanlash jarayonida boshqa barcha odamlarni ham tanlashini nazarda tutamiz”, Karl Yaspers “inson o‘zining haqiqiy mavjudligini o‘z-o‘zi bilan, boshqalar bilan mulqot qilishi va shu asosda mutlaqlik(xudo)ni his etishi jarayonida anglab yetadi”, “O‘z-o‘zingni bil va bu orqali olamni bilasan” tarzidagi qarashlari orqali inson axloqiy mavjudligi uchun asosiy imkoniyat o‘z-o‘zida ekanligini tushuntiradi.

Hozirgi davr falsafiy oqimlaridan biri bo‘lgan falsafiy germenevtika axloq hodisasi, uning mohiyatini anglashning shartsharoiti, uning ontologiyasini tushunishning metodologiyasi hisoblanishi bilan xarakterlanadi.

Mazkur falsafaga ko‘ra axloq borlig‘i avval boshdan “germenevtika”dir. Bu yerda “men” va “u” o‘rtasidagi munosabatlarda ong refleksiga nisbatan tahlil qilish birlamchidir, kim refleksiya yo‘li bilan ikki tomonlama munosabatlarning intirokchisi sifatida harakat qilsa, ularni o‘zgartiradi, axloqiy zaruratligini buzib tashlaydi<sup>1</sup>.

Germenevtika falsafasiga ko‘ra axloq inson borlig‘i va jamiyat hayotining tarkibiy qismi, uni tahlil qiladigan, tushunib etadigan tomoni.

Axloq inson va jamiyat borlig‘i bilan shartlashgan, axloqning ma’nosini o‘rganishda, e’tibor uning ontologiyasini bilishga qaratilishi lozim. Jamiyat ijtimoiy organizm sifatida kishilarning ijtimoiy dunyosi, axloqiy, ma’naviy olami orqali tartiblashadi, ezbilik,adolat, yaxshilik, burch, ma’suliyat

<sup>1</sup> Гадамер Г. Истина ва метод. – М., 1988.-С.328

kubilarni o'zida mujassam etish orqali inson oliy mavjudlikka erishadi va shu jihatlarni o'zida mujassamlashtirgan insonlar-dan tashkil topgan jamiyat fozil jamiyat bo'ladi.

Axloq hodisasini tahlil qilishda sinergetika g'oyalari alohida o'ren tutadi. O'z-o'zini bilish, o'z-o'zini tushunish, o'z-o'zini kuzatish, o'z-o'zini anglash natijasida axloqiy jihatlarini baholash, o'z-o'zini tanqid va o'z-o'zini tashkil etish kabi-hu ta'lim tarbiyaning kelajagini belgilab beruvchi sinergetika tunmoyillaridir. Sanab o'tilgan jihatlar inson, uning mohiyati va ma'naviy dunyosini qayta tarbiyalash masalalariga yangichu yondashuvni ifodalaydi.

Ma'lumki, sinergetika ilmi nochiziqli tafakkur tarzi sifatida olam, odam, bilish, umuman borliqni o'rganishning yungi metodologiyasiga asos soldi. Chunki, insonning hayotiy faoliyati jarayonida u manfaatdor bo'lgan resurslarning xarakteri o'zgarmoqda. Hozirgi davrda oddiy yo'l orqali ehtiyojlarni qondirish mumkin emasligi, resurslar tizimi murakkablashganligi sabab insonning barqaror turmush tarzi uchun talablar tobora oshib ketmoqda. Insonning o'ta faollashuvi va o'z-o'zini moslashtiruvini talab etayotgan bu davrda ko'p qitrali bilim va nochiziqli tafakkur tarzi nihoyatda muhim. Faollashish va talablarga javob berish uchun o'ziga qaratish, o'z-o'zicha ongli harakat shakllari va unsurlarining hosilasi-o'zini o'zi tashkillashtirish nihoyatda zarur bo'lmoqda<sup>1</sup>.

**Tasavvuf axloq konsepsiysi.** Axloq hamisha konkret-tarixiy mazmunga ega bo'ladi. Bu sohibi - subyektiga ko'ra farrqlanuvchi shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat axloqiy madaniyatiga ham birdek daxldordir. Shu ma'noda, har bir davrning o'z axloqi bor, deyish mumkin. Zero, o'zgarib bo'rayotgan ijtimoiy munosabatlar unga mos bo'lgan axloq normalarini talab qiladi. Shuning uchun ham, bir axloqiy qadriyatlar tizimida tabiiy hisoblangan hodisalar boshqa bir axloqiy munosabatlar doirasida noo'rin, g'ayritabiyy hisoblanishi,

<sup>1</sup> Князева Е.Н. Саморефлексивная синергетика // Вопросы философии. 2001 № 10, С.99-113

hattoki, yovvoyilik, deb baholanishi ham mumkin. Ammo bu barcha davrlarda ham axloqsizlik deb baholangan hodisalar, xatti-harakatlar mavjudligini inkor etmaydi. Shaxs sha'niga tajovuz qilish, haqoratomuz munosabatda bo'lish hamma davrlarda ham axloqsizlik sifatida baholangan va ijtimoiy fikr tomonidan qattiq qoralangani ham fikrimizning isboti bo'la oladi. Mohiyatan olganda esa, axloqning har qanday ko'rinishi umuminsoniy axloqning namoyon bo'lish shakllaridir. Umuminsoniy axloqiy qadriyatlarga mo'ljal olishgina kishilarни birlikka yetaklaydi, ularni umuminsoniy taraqqiyot yo'lidan ajralib qolishdan saqlaydi<sup>1</sup>.

Zotan, "insoniyat madaniyati qanchalik yuqorilab borar ekan, u shunchalik o'zidan avval o'tgan ajdodlarining qilgan ishlariga bog'liq ekanligini his qilib boradi, o'zidan oldin o'tgan ajdodlarining tajribalari asosida saqlanib qolgan chora-tadbirlarga ehtiyoj sezib boradi hamda ularni amaliyotga qo'llashga harakat qiladi"<sup>2</sup>.

Tasavvuf uzoq asrlar davomida xalqimiz axloqi, ma'naviyatini boyitishga xizmat qilib kelgan ta'limot hisoblanadi. Insonning ruhiy-axloqiy poklanishi bu ta'limotning asosiy g'oyasidir. Tasavvuf insonni ezgu ishlar, xayrli amallarga da'vat etuvchi, kishilar ruhiyatini poklash, halollik, mehr-muruvvat, oqibat, saxovatpeshalikni targ'ib etuvchi, insonparvarlik fazilatlarini ulug'lovchi, insonning botini bilan zohiridagi mutanosiblikni o'z tariqatlari asosida ta'minlashga undovchi diniy-axloqiy falsafa sifatida musulmon Sharqi mamlakatlarining ijtimoiy va ma'naviy hayotiga chuqur kirib borgan, fan, madaniyat va adabiyot rivojiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatgan ta'limotdir.

Tasavvuf keng ko'lamdag'i ta'limotga aylanishida arab olimlari Hasan Basriy, Robiya, Boyazid Bistoniy, Mansur Xal-loj, forsigo'y allomalar Attor, Rumiy, Sanoiy, Jomiy, turkiyabon mutafakkirlar Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Ahmad

<sup>1</sup> Ochildiev A. Madaniyat falsafasi. Toshkent, 2009.

<sup>2</sup> Сорокин П. Система социологии. Сыктывкар.– Т., 1991. – С.119.

Yousaviy, Sulaymon Boqirg'oni, Mashrab, So'fi Olloyor, Huyaydo kabilarning xizmatlari kattadir.

Tasavvufni odatda nazariy va amaliy qismlarga bo'ladilar. Tasavvuf diniy, axloqiy, falsafiy qarashlarning muayyan tizimi shartida Alloh, olam va inson haqida fikr yuritib, uni vahdat ul-vujud, ya'ni yaratganni yagona borliqdan iborat, deb tushuntiradi.

Amaliy tasavvuf ana shu haqiqatni anglash va uning yordamida ongli yashash fikrini targ'ib qiladi va shu maqsad yo'llida ma'rifatga erishish yo'lini ilgari suradi. Binobarin, biliuning boshi yuksak axloq-odobdan boshlanadi. Boshqacha oytgunda, axloqiy me'yorlar va qoidalarning muayyan tizimi tasavvufning qismini, mohiyatini ifodalaydi. Demak, tasavvufning nazariy va amaliy jihatlari yagona birlikda ifodalanadi.

Tasavvufda eng yaxshi axloqiy sifatlar va ularni amalda qo'llash "axloqi hamida" deb yuritiladi. Axloqi hamida muayyan tamoyillarga ega bo'lib, ular vositasida amaliy yo'l bilan inson komillashib boradi va haqiqatgo'yga aylanadi. Tasavvuf qoidalari, asosan, quyidagi axloq unsurlarida o'z ifodasini topgan: 1) "talab" – komillik sari qadam; 2) "ishq" – o'z maqsadiga mehr; 3) "ma'rifat" – inson sirlaridan voqif bo'lish; 4) "istig'no" – maqsadni taqdir deb tushunish; 5) "hayrat" – insoniy fe'l-atvordan zavqlanish; 6) "tavhid" – maqsadga Ishonch; 7) "faqr u fano" – komillikka ishtiyoq sezish, hosil qilingan sifatlarni amalda qo'llash<sup>1</sup>.

Insondagi salbiy xislatlarni ifoda etadigan qoidalari yig'indisi "axloqi zamima", deb yuritiladi. U insondagi boylikka hirs qo'yish, manmanlik, johillik, kibr-havo singari yomon fe'l-atvorlarni ifoda etadi. Tasavvuf ahli axloq-odob qoidalari e'lon qilish bilan chegaralanib qolmaydi, ayni vaqtida ularning mohiyatini har tomonlama bayon etib boradi, shu asosda faoliyat ko'rsatishni taqozo qiladi. Bu qoidalari, odatda, tariqatlar deb atalib, tasavvuf manzilini tutgan kishilarni komillikka da'vat etadi.

<sup>1</sup> Abdumalik Yo.Maktabda tasavvuf / Marifat-1995.-2avg.

Islom ta'limoti bo'yicha tasavvuf ahli axloqiy kamolotga erishishning 4 bosqichini o'tashi lozim.

Birinchi bosqich – shariat yo'l-yo'riqlari bo'lib, unga ko'ra, tasavvuf ahli avval payg'ambar shariati va sunnatiga amal qilishi zarur. Ikkinci bosqich – tariqat odobi bo'lib, bunda odob arkonini o'rganib, shu asosda harakat qilmog'i lozim. Bu bosqichdan o'tganlar yuqoriroq, uchunchi bosqichga – ma'rifatga ko'tariladilar. Bunda soliq, ya'ni so'fiy nafsi ommorani mag'lub qilib, ilmi ilohiyini o'zlashtiradi, oqibatda inson barcha narsalarning mohiyatini tushunib yetadi. To'rtinchi bosqich – haqiqat bo'lib, bunda ma'naviy kamolotga erishib, bu dunyo g'alvalaridan butunlay qutulish, o'zligidan kechib, Allah taolo jamoliga yetishish maqsad qilinadi. "Mana shunday hayot tufayli inson o'z ko'nglidan joy olgan nurdan xabar topadi, komillik va o'z-o'zini anglab yetishning oliy martabasiga erishadi".<sup>1</sup>

Tasavvuf tariqatlaridagi islomiq qonun-qoidalalar pirovard natijada insonni ezzulikka, axloqiy poklikka, Allahning yaratuvchanlik qudratiga ishonishga, u yaratgan borliqni tom ma'noda anglash va shukronalar keltirish hissi bilan yo'g'rildir.

Xoja Abduholiq G'ijduvoniy odamlarning hayotiy faoliyatlariga hamfikr va yaqindan yordam ko'rsatish, toat-ibodat, ularni himoya etish bilan Allah ko'rsatgan yo'lidan borish va uning rahmatiga sazovor bo'lishni asosiy tamoyillaridan biri deb hisoblaydi.

G'ijduvoniy jamiyatga xizmat qilish tamoyillarini asoslab bergen. Bular xalq manfaatiga zid ish tutmaslik, hech kimdan hech narsani talab qilmaslik, kishiga xizmat buyurmaslik, boylikka hirs qo'ymaslik, barchaga shafqatli bo'lish, o'zidan kichiklarga past nazar bilan qaramaslik, tashqi go'zallikka zeb bermaslik, ota-onaga, katta-kichikka minnatdorchilik, mansab egallah, rahnamo bo'lishga tirishmaslik, ilm o'rganmasdan

<sup>1</sup> Imomnazarov M. Milliy manaviyatimiz nazariyasiga chizgilar.-T.: 1998.-B.14

turtib, ishga qo'l urmaslik..., tariqat yo'lini mahkam tutish va boshqalar.

Uning tabarruk so'zlaridan birida quyidagi ibratomuz fikr ta'kidlanadi va u bugungi kun uchun ham g'oyat qadrlidir: «Silvat eshigini yopgilu, suhbat eshigini och, Shayxlik eshigi ni yopgilu, yorlik eshigini och».<sup>1</sup>

Naqshbandiy tariqatining tasavvuf olamidagi boshqa tariqatlardan asosiy afzal va bu kungacha ahamiyatini yo'qotmasdan saqlanayotgan tomoni uning «Dil ba yoru, dast ba kor», ya'ni «Qo'l mehnatda-yu, qalbda Olloh» shiori asosida insonning imonli, pok bo'lishi bilan birga o'z mehnati bilan birga halol luqma asosida kun kechirishga chaqirishdir. Muhabalarda ta'kidlanishicha, hazrat Bahovuddin Naqshbandiy Hurotda bo'lganida Amir Husayn so'raydi:

- Sizning tariqatingizning asosi nimadadir?

Bahovuddin Naqshbandiy javob beradilar:

- Anjumanda xilvatdir. Zohiran xalq bilan, botinan haq bilan bo'lishdir.

Bahovuddin bu javobi bilan iyomon faqat qalbida bo'lishi, tayyoli amaliyot odamlarga ko'rsatilishi uchun emas, balki Allahga xolisona xizmat uchun zarurligini anglatadi. Bugungi kunda diniy udumlarning tashqi tomoniga ko'proq ahamiyat berayotgan davrda uning bu so'zlaridan pok, halol mehnat qilish uchun ma'naviy, ma'rifiy, tashviqot ishlarida samarali foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Nafs muammosi tasavvufda muhim masalalardan biri sanaladi. Avvalo nafs o'zi nima Hujriyiyning "Kashfu'l mahjub" kitobida yozilishicha, nafs so'zi lug'aviy manoda biror narsa ning borlig'i, haqiqati, zoti va o'zligi demak. Xalqning tilida ushbu kalima bir-biriga zid bir qancha mazmunlarda ishlataligan. Bir jamoaga ko'ra, ruh, bir guruh tushunchasida muruvvat va odamiylik, bir toifa nuqtayi nazarida jasad va vujud, boshqa bir firqaga ko'ra, u qon ma'nosini ifodalaydi. So'fiy va

<sup>1</sup> Valixo'jaev B. Ho'ja Ahror: uydirma va haqiqat // Muloqot 1991 , 4-sod.-B.67.

mutasavviflar esa hamjihatlik ila nafshi gunohning sarchashmasi, yomonlik, razillik va yovuzlikning asosi, deb hisoblashgan... Ko'zga ko'rinnmay dunyoni tub-tubidan g'orat qiladigan mavjudlik, bu - nafs. U qancha ko'p hukmronlikka erishsa, dunyoning axloqiy-ma'naviy holati o'shancha buziladi; haqiqat va vijdon, diyonat va rostlik boshidagi qaro bulutlar shu qadar quyuqlashadi. Shuningdek, zohiriylar chora-tadbirlar, bahsu munozaralar nafsdan tug'ilajak kulfat, musibat va halokatlarning yo'liga to'siq qo'yolmaydi. Nafs erkin va erkli ekan, yolg'on, riyo, zulm, zo'rovonlik, munofiqlik, , xullas, hamma yomon va tuban sifatlar gullab-yashnayveradi<sup>1</sup>.

Tasavvuf ahli inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiyl nom bilan "nafs" yoki "nafsi ammora" deb ataganlar. Mol-dunyo toplash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirsu havas qat'iy qoralangan, insonni, noqislik va falokatlardan qutqarishning birdan bir to'g'ri yo'li – nafshi o'ldirib, qanoat bilan halol yashash, ruh – irodani chiniqtira borib, insonda insoniylikni qaror toptirish zarurligi uqtiriladi.

Tasavvufchilarning ba'zilari nafshi daydi it yoki ruh etagiya yopishgan ifloslik, ba'zilari esa to'ymas ajdaho yoxud firib-nayrang timsoli Dajjalga tashbeh beradilar va nafs odamni odamiylikdan chiqaradi, azim gunohlarni qilishga sababchi bo'lib, badbaxt etadi, deb qoralanadi.

Nafs xudbinlikni, o'zim bo'lay falsafasini tug'diradi. Nafs domiga tushgandan keyin, kishi hech narsadan tap tortmaydi, harom-xarishdan hazar etmay, boshqalar hisobiga bo'lsa ham yaxshi yashashni o'laydi. Oqibatda, u zolim, berahm, riyokor bo'lib qoladi. Shuning uchun tasavvuf talab etgan tiyilish, sabru qanoatda nafshi tarbiyalash masalasi mujassamlashgan.

Insonning o'z menligi, uning moddiy hayoti, jismiy tana manfaatlarini tashkil etuvchi va Alloh tarafidan zimmasiga vujudni boshqarish ma'suliyati yuklatilgan menlikdir. "Faqat tarbiya etilmasa, u eng asosiy dushman vaziyatidadir"<sup>2</sup>. Nafs

<sup>1</sup> Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. –T.: Fan, 2009. -B.377-378.

<sup>2</sup> Mahmud Asad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. –T.: Cho'pon, 2000.-B.8.

tarblyusi asosida yomon xislatlar sekin-asta bartaraf etilsa, yoxshi fazilatlar shakllana boradi. Nafsning yomonligini anglosh – odamning o'zini va ezzulikni anglashidir. Bahouddin Naqshband "o'z nafsining yomonligini tanish – o'zligingni tanishbdir", - degan hikmatning zamirida ham nafs tarbiyasi masalasi turadi.

Jaloliddin Rumi nafsoniy masala va uning tarbiyasi bora-sida muhim qarashni ilgari surgan. "Hazrat Ali bir jang asnosida raqibi bilan uzoq urishib, niroyat, uni yerga yiqitdilar va o'lDIRmoqchi bo'ldilar. Shunda dushman askari hazrat Alining yuziga tuflaydi. Hazrat Ali shundan keyin dushmani qo'yib yuboradi. O'rinalidan turib, unga: -Tur endi, keta qol, seni o'lDIRishdan voz kechdim,- deydilar. Dushman jangchisi bu holdan hayron qolib deydi: - Meni o'lDIRishingga bir bahya qolgan edi. Nega o'lDIRmading? Hazrat Ali bunday javob berdilar: - Men senga qarshi Alloh yo'lida va faqat Alloh roziligidiga erishish uchun jang qilayotgan edim. Sen yuzimga tupurga-ningda esa jahlim chiqdi. Agar shu asnoda seni o'lDIRsam, senga qarshi adovatim sababli o'lDIRgan bo'lardim. Bunda seni Alloh yo'lida emas, o'z nafsim uchun o'lDIRgan hisoblanardim. Shu sababli seni qo'yib yuboramani. Bu so'zlarni eshitgan raqib bunday adolat qarshisida imon keltirib, muslimonlar safiga qo'shiladi"<sup>1</sup>. Ushbu masnaviyda o'z nafsimi tarbiyalagan ("o'z nafsim istagi bilan emas") hazrat Ali misolida umummanfaatni shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish, gunohkorni saodat sari yo'llash, uni keyingi yomonliklardan qutqarishga harakat qilish g'oyasi ilgari surilgan. "Men hilm, sabr-toqat va adolatdan yuzaga kelgan bir tog'man. Nafs to'fonlari bunday ulkan tog'ni qanday qilib qimirlata olardi? Hilm, sabr-toqat va adolat nafsim uchun o'lDIRish kabi teskari bir holga yo'l ochdi". Mavlono Jaloliddin Rumiying hazrat Ali tillaridan aytgan bu haqiqati inson axloqining ajoyib o'lchovi va komillik alomatidir.

Mazkur hikoyat mag'zida nafsoniy kuchlar yaxshilikka yo'naltirilishi yoki o'zgartirilishi mumkinligi ham ifodalangan-

<sup>1</sup> Jaloliddin Rumi: Masnaviyi ma'naviy. 1-jild. 3721 –bayt.

gan. Nafsning o'ldirilishi uning yaxshilanishi, poklanishi, nazorat ostida tutilishi demakdir. Bu esa iroda ta'limi bilan amalga oshiriladi. Masalan, asabiy, mijoz qattiq, darrov jahli chiqadigan insonlarda jo'shqin bir quvvat bor. Bu quvvatni beixtiyor sarf qilish zararga sabab bo'lismumkin. Batamom yo'q qilinishi esa qo'rkoqlik, karaxtlik va haqqini himoya qila olmaslik holatlariga yo'l ochadi. Bu o'rinda muhimi u quvvat va qarshilikni o'z o'rnidida, o'z vaqtida va me'yorida ishlatishtini o'rganishdir.

Nafs kishining yomon xususiyatlariga berilgan nomdir. Masalan, gerdayish, o'zini yaxshi ko'rish, ochko'zlik, xasislik, jahl, g'azab, gina-adovat saqlash, chaqimchilik, ko'raolmaslik, qiyinchiliklarga sabrsizlik kabilar shu xususiyatlar jumlasidandir.

Nafsning eng yomon kasalliklaridan biri kibr, ya'ni, o'zini haddan ziyod yaxshi ko'rish, hammadan ustun ko'rishdir. Quyidagi hikoyat orqali nafsoniy kibrning halokatini anglash mumkin. "Olisdagi poyonsiz o'rmonda bitta vahshiy arslon yashardi. O'rmonda hamma hayvon undan qo'rqib kun ko'rardi. Ular bunday hayotdan qutulish chorasini qidirishdi. O'ylab-o'ylab oxiri ichlaridan bir hayat tanlab, arslon huzuriga yuborishdi.

— Ey o'rmonlar shohi arslon. Har kuni bittamizni tutib yeysan. Bunga etirozimiz yo'q, biroq ovora bo'lising shartmi? Sen taxtingda bemalol o'tiraver, o'zimiz senga oramizdan birini yo'llaymiz, bemalol yeyaverasan, - deyishdi.

Bu taklif arslonga yoqib tushdi va qabul qildi. Endi har kuni ertalab bir hayvon arslonga topshirilardi. Kunlardan bir kun navbat quyonga keldi. Biroq u borishni aslo xohlamasdi. Nihoyat, yolvora-yolvora quyonni yo'lga chiqarishdi. Kechikib kelgan quyonga arslon g'azab bilan o'shqirdi: - Qayerda qolding? Kechikishingning boisi nima?

Quyon soxta bir xavotir bilan bo'ynini buksi: - Hazrati oliylari, hurmatingiz bor. Men ertalab vaqtli yo'lga chiqdim, ammo yo'limni boshqa bir arslon to'sdi. Qo'lidan qutulgnimga qadar boshimga nimalar kelmadidi, deysiz.

Arslon yana g'azablandi:

- Kim ekan u gustoh?! Bu o'rmonda faqat mening hukmida o'tadi. Kim ekan u? Qani, tezroq ayt!
- Quyon bu ahvoldan mamnun, nuqul narigi "arslon"ni mojtori, bu bilan arslonning nafsoniyatini qitiqlar edi. Arslon chidday olmadidi:
  - 'Tush oldimga, ko'rsat o'sha olchoqni menga!...
  - Yo'lga chiqishdi. Quyon arslonni bir quduqqa boshlab kelib;
  - Mana, sultonim, o'sha yaramas shu quduq ichida. Qanday, qanday o'rnashib olibdi.
  - Arslon hirs, g'azab bilan quduq ichiga qaradi. Suvda o'z nafsi ko'rdi. Xirillashga boshlagan edi, quduqdagi aksi "bo'sh belmadi". Quyon fursatni qo'ldan boy bermay, luqma tashladi:
    - Ko'riyapsizmi, janobi oliylari, sizni qo'rqtimoqchi bo'lishini?!
    - Arslon butunlay qahrga to'ldi, ko'zlari o'tdek yondi.
    - Bir diyorda ikki sulton bo'lmaydi, parchalab tashlaymuni uni! – deya o'zini quduqqa otdi. Hammasi tugagan edi. Bu hikoyatda tilga olingan "nafsi arsloni" mazmunida xudbinlik, kibr iskanjasiga tushgan kimsa o'zidan boshqa hurmat va xizmatga loyiq insonni ko'rmasligi ifodalangan.

Har qanday olamda ikki reallik mavjud. Biri – tashqi, ikkinchisi, ichki, ya'ni zohir va botin. Asosiy murakkablik va ziddiyat botindadir. Aks holda aql, nafs, ruh, ko'ngil xususida burchalar keng, bu qadar ko'p bahs yuritilmasdi. Chunki, botiniy hayot vujudning "qalin parda"si bilan to'silgan. Nafsning ahvoli qanday? Ruhning holi qanaqa, qalb nimaga ilhaq – aksariyat kishi ana shuni bilmaydi. Chunki bularni bilish juda qiyin. Ayniqsa, nafsni tanish va tizginlash muammolarning muammosi erur. Nafsni qoralab, nafs izmidan ishga nafsoniy maqsad va shahvoniy orzu aralashsa, o'sha ishning xayr-xosiyati barham topadi. Shuningdek, qalb to'g'ri yo'ldan adashib, tubanlikka yo'naladi, ruhni riyo va xudparastlik domiga tortadi. Alisher Navoiy g'azallaridan birida nafs ila ruhni zinhorbazinbor qo'shib-qorishtirmaslik shartligini ta'kidlab:

Ruh rahmoni erur, nafs esa shaytoni,  
Ikkisin bir-biriga qo'shmoq, emastur mashrut  
deganida shularni nazarda tutgan edi<sup>1</sup>.

Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat"ida nafsni insoniylik dushmani, zolim, g'addor g'anim, iymon dushmani deb ta'riflaydi:

*Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur,  
Yo'ldan ozib, toyib, to'zib, gumroh bo'lur.  
Nafsing seni oxir damda gado qilgay,  
Din uyini g'arot qilib, ado qilg'ay.  
Bir kun kelib iymoningdan judo qilur  
Oqil ersang nafsi baddin bo'lg'il bezor.*

Inson nafsining ofatlaridan biri – haqiqatni tan olmaslik, nasihatga qulq solmaslik, faqat o'z fikrida qaysarlik bilan turib olishidir.

Abdulla Avloniy o'zining aksariyat she'rlarida nafs masalasini inson komilligi orqali ifodalaydi:

*"Bo'ynini egmas kishig'a haqni bilg'on nafs uchun,  
Molin isrof aylamas ollyjanobon nafs uchun,  
Maslagu maqsadni sotmas chin musulmon nafs uchun,  
Yirtmas iffat pardasin arbobi urfon nafs uchun"<sup>2</sup>*

Nafs balosiga giriftor odamda mazmuma, ya'ni yomon axloqiy belgilar rivojlansa, nafsdan qutilishga intilgan odamda mahmuda, ya'ni namunali axloqiy sifatlar ko'payadi. Tasavvufning nafs tarbiyasida 4 tushunchaga urg'u beriladi. Bular:

- qanoat;
- foydali mehnat;
- saxovat;
- futuvvat.

Qanoat ma'naviy-axloqiy fazilat sifatida mavjud narsalar-

<sup>1</sup> Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi. T.: Fan, 2009. B.376.

<sup>2</sup> Avloniy A. Tanlangan asarlar. J.2.-T., 1998. B.55

ju shukr qilish, nafsni jilovlash zamirida axloqiy ong, axloqiy xatti-harakat va axloqiy munosabat orqali o'zi va xalqiga munisuat keltiruvchi faoliyatdir. U insoniylikni saqllovchi mezon, axloqning tarkibiy qismi sifatida axloqiy nazorat, axloqiy boshqaruv va axloqiy tarbiya vazifasini bajaradi.

Yussaviy hikmatlarida qanoat tahlili teran mazmunga ega bo'lib, mohiyati umumbashariy xarakterga egadir:

*Nafsdan qochib, qanoatni pesh a qilg'on,  
Har kim topsa, rozi bo'lib, bo'yin sung'on.  
Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'on,  
Andoq oshiq mahshar kuni armoni yo'q.*

Qanoat ulug' kishilarning yoqimli xislatlaridan hisoblanadi. Chunki qanoat dilni yorituvchi va saodatga eltuvchi kuchdir.

So'radilar: Qanoat nima?. Aytdi: Birovlarning qo'lidagi narsani ko'rib mayus bo'lmaslik. Tama'girlikdan qochish, chunki tama'girlik albatta kambag'allik sari yetaklaydi:

*Har kimsa boriga qanoat qilsa,  
Ajablanma, tushmas birovga ishi.  
Yuragida kimni tama' bo'lmasa,  
Hech kimsadan bo'lmas qo'rquv, tashvishi.*

Qanoatning yana bir ko'rinishi yeyish-ichishda bilinadi. Ozgina ovqat yeyishga qanoat qilgan kishi kam kasal bo'ladi:

*Ko'p yema go'rdagi qurtlar misoli,  
Oz yerga bel bog'la go'yo chimoli,  
Bir tabib bir kuni bir ajab hikmat,  
El uchun aytgan mish qilib marhamat:  
"Yegin, ichgin doim ko'ngil tortguncha,  
Nafaqat bo'g'zingdan toshib ortguncha"<sup>1</sup>*

<sup>1</sup> Mashriq zamin – hikmat bo'stoni. –T.: Sharq, 2008.-B.250.

**Foydali mehnat.** Mehnat inson hayotining birinchi va asosiy shartidir. Mehnat jarayoni uch jihatni, ya'ni insonning maqsadga muvofiq faoliyatini yoki mehnatning o'zini, mehnat predmetini va inson mazkur predmetga ta'sir ko'rsatadigan ishlab chiqarish qurollarini o'z ichiga oladi.

Mehnat insonni tarbiyalovchi, irodasini toblovchi buyuk ne'matdir. Boshqacha aytganda, axloqiy qadriyatlarning boshqa barcha shakllari va ular takomili ham bevosita mehnat orqali ro'yobga chiqadi. Tasavvuf va tariqat ahlining buyuk namoyandasi Bahouddin Naqshband hazratlarining "Dil ba yoru dast ba kor" (diling Allohda, qo'ling ishda bo'l sin) degan hikmati insoniyat tafakkurining o'lmas tamoyillaridan biri bo'lib qolaveradi. "Yaratgan Rabbim rizqimizni ham beradi", - deb biron-bir foydali mehnat qilmay, faqat toat-ibodat bilan mag'rur yurishni emas, balki odam Alloh taoloni diliga jo qilib, baholi qudrat mehnati bilan rizqu-ro'z topib yashashi zarurligini uqtiradi. Ul zoti sharif ayni qoidaga avvalo o'zlar amal qilganlar. Ilmni, valiylikni emas, balki halol tirikchilik manbai sifatida kimxobga naqsh solish kasbini tanlab, shu orqali oila tebratganlar. Bu kasb ul zotga otadan "ota kasb" sifatida meros o'tgan edi. Hattoki, o'zlariga xizmatkor ham saqlamaganlar. Shuningdek, ul zot talabalarni madrasaga qabul qilish paytida yoshlardan: "Biron kasbing bormi?", - deb albatta so'rар ekanlar. Kasbi-kori, hunari yo'q bolalarni o'qishga qabul qilmaganlar. Buning sababini Naqshband hazratlari: "Agar kishi hunarli bo'lsa, u kishi bilimini haqiqatga bag'ishlaydi, o'z mehnati bilan kun kechiradi. Bor-di-yu, kasbi bo'lmasa, bilimini tirikchilikka sarf etadi, halol mehnatni unutadi", - deya izohlaydilar. Donishmandning bu o'giti Payg'ambarimizning "Sizlarning yaxshireg'ingiz dunyosini deb oxiratini, oxiratini deb dunyosini tark etmagan, odamlarga og'irligi tushmaydigan kishidir"<sup>1</sup>, - degan hadislariga to'la mos keladi.

<sup>1</sup> Muhammad payg'ambar qissasi. Hadislari. T.: Kamalak. 1991.B. 86.

Alloma Abu Rayhon Beruniy: “Har bir insonning haqiqiy bahosi uning o’zi qodir bo’lgan hunar, ishni vijdonan yuksak muhborat bilan bajarishidir. Mehnat - insonning buyuk burchi, chunki har qanday orzu qilingan maqsad, moddiy yoki ma’naviy ehtiyoj mehnat tufayli natijaga erishadi”<sup>1</sup>- deb, ta’kidlaydi.

Mehnatsevarlik kishi kamolotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U odamni muhtojlikdan, hayotdan zerikishdan, uxloqiy buzilishdan asraydi, umrini mazmun bilan boyitadi. Melnatsevar kishi obro’-e’tibor orttiradi, turmushi barakali bo’ladi, undan esa yaxshi nom, savob amal qoladi.

Halol kasb qilish haqidagi bir hadisi shariflarida Payg’ambarimiz (s.a.v.): “Kishining eng lazzatli va halol yeguligi kasb qilib topilgan rizqidir”, -degan edilar. Bu hadis mehnat qilmay boshqalarning hisobiga maishat qilish xunuk bir inanzara ekanini qayd etish bilan birga, insonlarni peshona teri to’kib, halol rizq topishga buyuradi”<sup>2</sup>.

Husayin Voiz Koshify “Yuksak axloqiy va sofdil kishi hech qachon mehnatdan qo’rqmasligi kerak” deb, mehnatning ijtimoiy-axloqiy mavqeini ulug’laydi. U insonning tom ma’nodagi yaxshi yashashi, uning mehnati orqali vujudga kelishini ta’kidlab, mehnat yuksak axloqlilik va sofdillik belgisi sifatida ko’rsatiladi.

Ma’lumki, mehnatning qay darajada yoyilishi, uning ijtimoiy qadriyatga aylanishi ko’p jihatdan mehnatning xususiyatlariga bog’liq. Foydalilik mehnatning zaruriy xususiyatlaridan biridir. Koshify kasbli – hunarmadlarni foydali mehnat namoyondalari sifatida hurmatlaydi. Hunarmandlilik davr, hayot, bilim va aqlning o’zaro aloqadorligi mahsuli deb qaraydi. Jamiyatdagi ishlab chiqarishga bo’lgan talab hunarmandchilikni shakllantiradi va nima zarurligini anglatadi va shu tufayli yaxshilikni vujudga keltiradi, deydi.

<sup>1</sup> Jahon falsafasi T.: “Faylasuflar milliy jamiyatni nashriyoti”. – T. 2004.B.122

<sup>2</sup> Abdullayev A. Ma’naviyat va iqtisodiy tafakkur. –T.: Ma’naviyat, 1999. - B. 20

*Hunar saxovat erur andin o'zgasi hama hech,  
Agarchi har ilikning yuz hurnar qilur izhor'.*

Sahovat insonga xos bo'lgan xususiyatlarning eng oliy-janobi bo'lib, sidqidildan qilingan yaxshilikni ifodalaydi. Yaxshilikni o'ziga maqsad qilib olgan odam baxtli odam bo'ladi. Bundaylar saxiy va sahovatlidirlar. Sahovat nafaqat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizidir, balki u to'lqinli den-gizning bebaho gavharidir. Sahovatsiz odam – yog'insiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushk-anbarga o'xshaydi.

Sahovat yolg'iz molda emas, ilm-ma'rifatda ham namoyon bo'ladi. Ilmli, sahovatli kishilar ilmsizlarga qo'llaridan kel-gancha yordam beradilar. Ammo ilmda ham o'rinsiz sahovat ko'rsatish shart emas. Xalqimizda "Suvni singigan joyga sepa-dilar" degan naql bor.

Shunday sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan kishilar bizning tariximizda ko'p bo'lgan. Ular jamoa bo'lib uyushib, o'z ezgu niyatlarini amalga oshirar edilar. Ularni javonmardlar, ahiylar yohud fat'iylar deb atardilar. («juvonmard» - mard, saxiy yigit demakdir, «Fat'iyl» so'zi ham shu ma'noni bildiradi, «Ahiy» - birodar, do'st demak) ularning tariqati maslagi esa juvonmardlik yoki futuvvat deb yuritiladi.<sup>2</sup>

Bu ta'limot Yaqin va O'rta Sharqning ko'pgina mamlakatlarida keng tarqalgan, uning vakillari ijtimoiy tenglik va adolat uchun kurashganlar, ho'rlangan va tahqir etilganlarni himoya qilganlar.

Bir odamdan «Qanday kishi juvonmard atalishga loyiqidir?», deb so'raganlarida u "Nuh payg'ambarning yaxshi xulqi, Ibrohimning ishonchi, Ismoilning to'g'riliqi, Musoning samimiyyati, Abu Bakrning hamdardligi, Usmonning uyatchangligi, Alining bilimdonligini o'zida mujassamlashtirgan kishi javonmarddir. Shular bilan bir qatorda u odam o'zini tergashi, ya'ni bor narsasidan mag'rurlanmasligi, hech payt shaxsi-

<sup>1</sup> Koshifiy Axloqiy Muhsini. 21-bob. –B.82.

<sup>2</sup> N.Kamolov. Tasavvuf. I kitob. T: YOzuvchi, 1996.-B.113.

yatparastlik qilmasligi, maqtovga uchmasligi hamisha va hamma joyda o‘z sifatlaridan faqat kamchiliklarini, birodarlarning xulqidan esa faqat yaxshiliklarini ko‘rsatishi shartdir»,<sup>1</sup> degan ekan.

Bu ta’limotning ibratli tomoni yana shundaki, u haqiqatni, sadoqatni, yashashning bosh mohiyati deb biladi. Bu oqim kishilarining e’tiqodi bo‘yicha hamma vaqt haqiqatni so‘zlashi zarur. Negaki, dunyoning hamma ishlari haqiqatdan haqiqat tomonga yurishdir. Haqiqatginaadolat hamda diyonatga chin posbondir. “Qobusnoma”da juvonmardlikni asosi 3 narsada deb belgilangan: birinchisi – aytgan so‘zni bajarish, ikkinchisi – to‘g‘rilikka aslo xilof ish qilmaslik, uchinchisi – hayr ehsonni ko‘zlash javonmard va’dasiga vafo etuvchi sofdil va rostgo‘ydir.

Juvonmardlik odobilari:

Nifoq jihatidan hech bir odamning pardasini yirtmaslik;

Xaloyiq bir ishda xato qilib, omonlik tilab kelsa, qasd qilmaslik;

Xalq (jamoa)ning ichida kishiga nasihat qilmaslik;

Kishining qonini to‘kilishiga sa'y etmaslik;

Manmanlikni tark etish;

Ko‘zni yomon nazardan, qo‘lni yomon ishdan, tilni yomon so‘zdan saqlash.

Tasavvuf allomalaridan biri Bahovuddin Naqshband ta’limotining asosini ham futuvvat (juvonmardlik) tashkil etgan. Barcha insonlarga yaxshilik qilish, ortiqcha mol-dun-yoga ruju qo‘ymaslik, o‘z qo‘l kuchi, ko‘z nuri evaziga kun kechirish, birovlarining dardiga malham bo‘lish, iloji boricha qo‘lga kiritilgan nonning yarmini bir muhtojga berish, dilozor bo‘lmaslik, farz va sunnatlarni birovga ko‘rsatish uchun yoki boshqalar ijro etayotgani uchun emas, balki qalbdan xufya bajarish, yurt ko‘rish, odamlar orasida bo‘lish, hamisha hushyor bo‘lib, parishonxotirlikka yo‘l qo‘ymaslik shartlari Naqshband futuvvatining dasturi bo‘lgan.

<sup>1</sup> Haqqul I. Adl oyog‘ini tutki, bo‘lib shod ichay...// Jamiyat va boshqaruv. 2001. 1-son.-B. 15-16.

Tasavvufiy ahkomlarining donishmandi So'fi Olloyo naqshbandiya tariqati yo'lida turib zulm-zo'rlik, takabbur, sudxo'rlik, vafosizlik, loqaydlik, tamagirlilik, behunarlilikni tanbeh ostiga oladi va juvonmardlik pand-nasihatini qiladi:

*Do'stilar, bu bevafo dunyoda mol mulk uchun,  
Bir-biringni og'ritib noshod qilmoq arzimas.  
Mansabu dunyo uchun ahli hukumat oldida,  
Qo'l qovushtirib turibon dod qilmoq arzimas.*

**Komil inson va uning sifatlar.** Komil inson tushunchasi serqirra, qamrovi keng va shu bilan birga nihoyatda murakkabdir. Mavjud falsafiy adabiyotlarda ushbu tushuncha xususida turli tuman, ba'zida bir-biriga zid fikrlar uchraydi. Ayrim adabiyotlarda komil inson tushunchasi o'rta asrlarda ishlab chiqilgan, musulmon sharqida esa asosan islomiy nuqtayi nazardan ta'riflab kelingan degan fikrlar ilgari suriladi. Tasavvuf adabiyotida mazkur tushuncha ko'p marta qo'lga olinib munozaralarga sabab bo'lgan bir qancha qarashlar ilgari surilgan. Shulardan biri Ibn al Arabiyning fikriga ko'ra tangri taolo ilohiy nurdan aqlni avvalni yaratgan va uning suvratu shaklini "komil inson" qiyofasida zuhu etgan. Allomaning nadida komil insonning yerdagi timsoli hazrati payg'ambarimiz Muhammad Alayhissalomdir va ul zot vujudida aqliy, ruhiy kamolot, dunyoviy ilohiy bilimlar jamuljamadir. Ushbu fikrni e'tirof etuvchilar payg'ambarlardan boshqa zotlarga komil inson istilohi shartli ravishda, hurmat-ehtirom belgisi sifatida qo'llaniladi, degan qarashni asoslashga harakat qilishadi.

Shu fikrga zid o'laroq, "komil inson insonlar jamiyatidan yetishib chiqadigan mo'tabar zotdir, u azaldan martabasi aniq bo'lgan ruh emas, balki axloqiy ma'naviy poklanish jarayonida kamolotga erishadi" qabilidagi talqinlarni ilgari surgan. Ushbu qarashlar, garchi bir-biriga zid bo'lib ko'rinsada, aslida o'zaro yaqindir, ya'ni, inson kamoloti e'tirof etilishini ko'ramiz.

Inson tabiatning, barcha tirik mavjudotning gultoji deyilganda uning ko'plab hislatlari, avvalo aql sohibi ekanligi, yuk-

nak ma'navit egasi bo'la olish imkoni nazarda tutiladi. Qur'oni Kariinda: "Laqod xallakna-e-insona fi taqvim". (Darhaqiqat, insonni eng go'zal shak-lu shamoyilda yaratdik ) deb aytildi. Allah taolo insonni yaratar ekan, unga nihoyatda ulug' risolot taqdir etdi, ammo jannatdan yerga tushgan inson kamolot yo'llini eng tuban holatdan asta-sekin yuksaklikka intilish bilin boshladi.

Ilk insoniyat davridan bugungi kamolot qiyofasi shakl-inishuvigacha bo'lgan takomil jarayonida inson o'zligini anglash va vakillikni tushunishda asotir tafakkur bosqichidan ilmiy tafakkur bosqichiga ko'tarildi, bunda undagi aql, e'tiqod va ilm, iroda qudrati va mehr, fidoyilik va donishmandlik yugona mohiyat kasb etdi, shuningdek, insondagi tabiiy ehtiyojlar va ma'naviy dunyo zamon va makonda o'zgarib, goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turdi. Binobarin, komil inson tasnifining har bir davrda o'ziga xos bo'lgan shakl-u shamoyili, belgisi va xususiyati bo'lishi tabiiy holdir. Komil inson sifatlari tasavvufda, dinda, ilm ahillarining har birida o'ziga xos talqin etiladi. Din shariat ahli nazarida komil inson – farz-sunnatning amallarini ado etuvchi mo'min – musulmon hisoblansa, dunyoviy ilm namoyondalari unga uqli zot, deb ta'rif beradi, tasavvufda esa komil inson bo'lismi uchun bularning o'zi yetarli emas. U, fozillik, aqlilik, odillik, mo'min-musulmonlikni bekam-u ko'st bajarishdan tashqari, yana avliyo ham bo'lmog'i kerak. Ya'ni u o'zgalarga g'oyibdan xabar berib turuvchi karomatli kishi maqomiga ko'tarilgan bo'lmog'i kerak. Albatta, bu fazilatlar barchaga birday nasib etmaydi. Ammo, ilm-ma'rifat, mehnat-u mashaqqat orqali inson irodasi toblanib, unda komillik sifatlari shakllanib borishi, shubhasiz.

Komil inson tushunchasi ilk marotaba Shayxi Kabir nomi bilan mashhur bo'lgan Muhyiddin Ibna'l Arabiy tomonidan muomalaga kiritilgan. Ibna'l Arabiy fikriga ko'ra komil inson aqliy, ruhiy, dunyoviy va ilohiy bilimlar kamoloti egalaridir.

Aziziddin Nasafiy esa o'z davrida "Komil inson" nomli asarida komil insonga quyidagi chizgilarni beradi: "Komil

insonda to'rt narsa kamolotga yetgan bo'ladi, ya'ni yaxshi so'z, yaxshi ish, yaxshi axloq va maorif". Alloma kamolotning belgisi sifatida ikki narsani asos qilib ko'rsatadi. Buning biri hamida (maqtalgan) axloq bo'lsa, ikkinchisi o'z-o'zini tanishdir. Shu ikki asosning bor yoki yo'qligiga qarab Nasafiy odamlarni uch qismga ajratgan. Birinchisi – hamida axloqiy xislatlar bilan bezangan va o'zini tanimagan odamlar. Ikkinchisi – hamida axloqiy xislatlar bilan bezangan, ammo o'z-o'zini tanimagan odamlar. Uchinchisi hamida axloqiy sifatlar bilan bezangan va o'z-o'zini tanigan odamlar. Nasafiyning ta'kidiga ko'ra, keyingi uchinchi toifa odamlar komili insonlardir.

"Nasafiy sanagan sifatlarning dastlabki uchtasi, ya'ni yaxshi so'z, yaxshi fe'l, yaxshi xulq Zardusht kitobi "Avesto"dan olingandir ("Guftori nek, kirdikori nek, raftori nek"). Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg'on, riyva badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan ezgu ishlarga tayyor turadi. Aziziddin Nasafiy yaxshi axloq haqidagi Zardusht oyati yoniga "maorif", ya'ni tasavvufiy poklanish talabini qo'shib qo'ygan. Uning fikricha, tariqat yo'liga kirgan solihlarning vazifasi-maqsadi ushbu to'rt fazilatni egallashdir. Kimki o'zida shu sifatlarni kamol toptirsa, u kamolga erishadi"<sup>1</sup>.

Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat" larida komil uchun majburiy bo'lgan barcha farz va sunnatlarni ixcham tarzda ifodalaydi:

*Xayru sano qilg'onlar, yetim ko'nglini olg'onlar,  
Chahor yorlar hamrohi kavsar labinda ko'rdim.  
Omil bo'lg'on olimlar, yo'lga kirgan osiylar,  
Andog' olim joyini dorussalomda ko'rdum.  
Mufti bo'lg'on olimlar, nohaq fatvo bergenlar,  
Andog' mufti joyini sirot ko'frugda ko'rdum.  
Zolim bo'lub zulm etgan, yetim ko'nglin og'ritgan,  
Qora yuzlug' mahsharda qo'lin arqoda ko'rdum.  
Tunu kun uqlamay hu zikrini aytqonlar,  
Maloyiklar hamrohi arshi ustida ko'rdim.*

<sup>1</sup> Komilov N. Tasavvuf.T. Mavarounnah-R'O'zbekiston, 2009.- B. 134

‘Tasavvuf ta’limotidan oziqlangan va bu ta’limotga katta burmatda bo’lgan Alisher Navoiy o’zining “Nasoyimul mu-babbat” asarining so’zboshisida komillik sifatlarini o’ziga xos tarzda ifoda etadi. Xususan, birinchisi – tavba, ikkinchisi – bulol luqma, uchinchisi – o’z kasbidan topib kun o’tkazish, to’rtinchisi – shariatga rioya qilish, beshinchisi – tariqat odo-bini saqlash, oltinchisi – kamtarin bo’lish, yettinchisi – chuchuk tilli bo’lish, sakkizinchisi – rahmdil bo’lish, to’qqizinchisi – nuxiy bo’lish, o’ninchisi – mard bo’lish, o’n birinchisi – xush-kulq bo’lish, o’n ikkinchisi rizo-rizolik bilan kun o’tkazish, o’n uchinchisi – sabrli bo’lish, o’n to’rtinchisi – vafoli bo’lish, o’n beshinchisi – riyoza chekishdan qo’rqmaslik.

Hazrat Navoiy “kamol et kasbkim” deya da’vat qilganlarda komillik uchun zarur juda ko’p xususiyatlarni nazardu tutganlar. Kishi o’zini hirs-ta’ma, nafs, g’aflat. nodonlik shingari mayllaridan poklamasa, u hech payt komil bo’la olmaydi. “Olam uyi”da yashash - uning fuqarosiga aylanishdir. Mir Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqeiga ko’tarilishini xohlaganlar. Xuddi shu mavqeni esa kamolotning oliy cho’qqisi deb bilganlar”<sup>1</sup>.

Navoiy o’z davrida komil insonlarni ahli ma’ni kishilar deb bilgan. Ahli ma’ni bu fikrli odamlardir. Fikrsiz xaloyiqning ongida ma’ni chuqurligi bo’lmaydi. Fikrlash - haqiqatni anglashdir. Hamma narsa to’g’risida mustaqil mushohada yuritish demakdir. Ahli ma’nilik tufayli axloqiy ong rivojlanadi. Odam va olam taqdiriga vijdona bilan qarash qobiliyati shakllanadi. Ahli ma’ni kishilar guruhi oqil va dono, kamtar va oliyanob, haqiqatparvar va fidoiyarlarni ko’rsatish mumkin. Bunday fazilat-larga ega bo’lgan kishilarning tafakkur qilishi kengdir. Chunki ularda aql oddiy so’z va tushunchalardan emas, diyonat, adolat, inson, imon, ishq, dard tuhfalari kamol topgan bo’ladi. Navoiy deydilarki: “ahli surat” larga shoh bo’lguncha ma’ni ahli yig’inida gado bo’lmoq ming karra afzaldir”. Alisher

<sup>1</sup> Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va sh’riyat. T.: G’ofur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. 1991. -B.136.

Navoiyning fikricha, ahli ma'ni kishilar ma'naviyati yetuk shaxslardir. Alisher Navoiyning "Hayratul abror" dostonida etuk shaxsning ma'naviyatidagi yaxshilik, sahovat, soqlik, hayo, muruvvat, andisha, adab, kamtarlik, sadoqat, qanoat, rostgo'ylik, insof,adolat, bag'ri kenglik singari fazilatlarini ta'riflanib, ruhni kamolot yo'llari tahlil etilgan. Navoiyning bu insonparvarligi, orzulari Sharqda inson qadrini g'oyat dadil va o'ziga xos dunyoqarashi edi.

Odamdag'i eng ulug' fazilatlar birinchisi – yaxshilik qilmoq va go'zal xulq, ikkinchisi – rostgo'ylik, uchinchisi – hayodir. Mana shu uch fazilat birlashsa u komil inson bo'lib yetishadi. Qut-iqboli uning huzuriga bosh egib kelaveradi. Shunday ekan, komil insonning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirish, yuksak darajaga ko'tarish, shaxsning ma'naviy va axloqiy qiyofasiga faol ta'sir qilish - oila, mакtab va keng jamoatchilikning muhim vazifasidir.

Umuman olganda, so'fiyona adabiyotlarda tariqat yo'li bilan poklanayotgan va tinmay komillik sari taraqqiy etayotgan inson tuyg'ulari tasvirga olinadi, uni tarbiyalash, unga Haqni va o'zligini tushuntirish uchun turli rivoyat va hikoyatlar keltiriladi, o'git-nasihatlar qilish bilan uning ongi va qalbiga yo'l topish bosh masala qilib olinadi.

**Shaxs axloqiy madaniyati.** Yuqorida bildirilgan fikrlardan umumiy xulosa: inson tayyor sifatlar, ko'nikmalar, fazilatlar va illatlar bilan dunyoga kelmaydi.. Ular aslida hayotda shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajdodlar an'analari, ta'lim-tarbiya natijasida shakllanadi va muayyan ijtimoiy mavqega erishadi. Ta'lim-tarbiya bilan kishilar ta'siri ostida ijobiy axloqiy fazilatlarni o'zida shakllantiradi yoki yomon sifatlar, xususiyatlar sohibiga aylanadi<sup>1</sup>.

Sinergetika ta'limotiga ko'ra inson fiziologik, jismoniy, ijtimoiy va ma'naviy tuzulmalarning majmuasidir. Adabiyotlarda sog'lomlik insonning ichki dunyosini chulg'ab oladigan yaxlit

<sup>1</sup> Ibn Sino. Tayr qissasi. O'zbek muntoz adabiyoti namunalari 1-jild. T.: Fan, 2003. - B.115-119

simuslyat sifatida ham, tashqi olam bilan munosabatlarning butun borlig'ini gavdalantiradigan, o'z ichiga jismoniy, psichologik, ijtimoiy va ma'naviy jihatlarni qamrab oladigan xodim tarzida tavsiflenadi. Demak, ma'naviy sog'lomlik insonning xayot mazmunini belgilaydi, tabiiyki, unga yuksak axloq, yoshashning ma'nosи va to'laqonligi haqidagi g'oyalari, o'z-o'zi va utrof-muhitga ijodiy yondashish tamoyillari, muhabbat va etib qod ta'sir etib turadi.

Masalaning mohiyatiga e'tibor qaratsak: shaxs barkamolligi binosining poydevori uning viqoriga mos bo'lishligi g'oyusi kelib chiqadi, ya'ni barkamollikning asosini tashkil etuvchi jismoniy sog'lomlik umurtqa suyagi bo'lgan axloq, madaniyat bilan mutanosibligi nazarda tutiladi. Zero, sog'lomlik inson tanasi organlari funksiyalarining tashqi muhit bilan muvofiqlashish holatini anglatadi.

Falsafiy fikr tarixida barkamollikni inson salomatligi bilan bog'lab tushuntiradigan ko'plab g'oyalari yuzaga kelgalligi ma'lum. Qadimgi yunon hakimi va faylasufi Alkmeon "Tabiat to'g'risida" asarida "sog'liq" tushunchasiga birinchi bo'lib ta'rif bergan. Uningcha, inson tanasi mikrokosmos, uning sog'lomligi esa qarama-qarshi tomonga yo'naltirilgan kuchlar garmoniyasidan iborat, sog'liq issiqlik-sovuqlik, numlik-quruqlik, achchiq-shirinlik kabi ziddiyatli kuchlarning oddiy "teng demokratik huquqi"dir. Bulardan birortanig "mutloq hukumronligi" boshqasining halok bo'lishiga olib keladi va kasalliklarni keltirib chiqaradi<sup>1</sup>.

Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti Nizomiga ko'ra, sog'lomlik nafaqat kasallik va jismoniy yetishmovchiliklarning yo'qligi, shu bilan birga to'la ma'noda ijtimoiy va ma'naviy uxloqiy qulaylik hamdir. "O'zbek tilinig izohli lug'ati" da salomatlik "tani-joni sog'", salomat bo'lishlik; tani sog'lik", sog'lik esa "salomatlik, kasal emaslik" deb ta'riflanadi.

<sup>1</sup> Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar. M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1983,-S. 20

Yana shunday fikr-mulohazalar mavjudki, ularda sog'lomlik inson tanasi a'zolari funksiyalarining tashqi muhit bilan muvofiqlashish holatini anglatadi. Bunday tushunishda sog'lomlikning uch, ya'ni somatik (jismoniy kasallik), ijtimoiy va shaxsiy belgilari asos qilib olinadi. Somatik belgi organizmning o'z-o'zini boshqarishi, fiziologik jarayonlar mutanosibligi, mumkin qadar tashqi muhitga moslashish. Ijtimoiy belgi mehnatga qobiliyat, ijtimoiy aktivlik, insonning olamga amaliy munosabati me'yori. Shaxsiy belgi inson hayoti strategiyasi, hayot hodisalari ustidan hukumronligi ifodasidir<sup>1</sup>.

Sog'lomlikni falsafiy ma'noda tushunish uning hodisa mohiyatidan kelib chiqishga asoslanadi, kasallik esa tasodif sifatida baholanadi. Hozirgi zamон tibbiyoti esa uni qonuniy va zaruriy mohiyat emas, balki tasodif-kasallikkа ustun yondoshish asosida izohlaydi.

Insonning sog'lomligi nafaqat tibbiy-biologik, balki, avvalo, axloqiy kategoriyadir, oxir-oqibatda u mavjud ijtimoiy axloqiy munosabatlarning tibbiy xarakteri, ijtimoiy omillar va shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Sog'lomlik tushunchasini ta'riflaganda, ko'pincha uning me'yorlari haqidagi masala kelib chiqadi. Tabiiyki, bu yerda me'yor tushunchasining o'zi munozaralidir. Me'yor (norma) bu inson organizmi, uning alohida a'zolari muvozanati, tashqi muhit funksiyalarini shartli ifodalash uchun ishlataladi. I.I. Brexmanning yozishicha, organizm hech qachon muhit bilan muvozanatga kira olmaydi, aks holda uning taraqqiyoti to'xtab qoladi, demak, uning keyingi taraqqiyoti yuz bermaydi<sup>2</sup>.

Shunday qilib sog'lomlik adabiyotlarda insonning ichki dunyosini chulg'ab oladigan yaxlit xususiyat sifatida ham, tashqi olam bilan munosabatlarining butun borlig'ini gavdalantiradigan, o'z ichiga jismoniy, psixologik, ijtimoiy va

<sup>1</sup> Лисицын Ю.П. Образ жизни и здоровье населения. М.: Медицина, 1982, С - 40

<sup>2</sup> Брехман И.И. Валеология – наука о здоровье. – М.: Физкультура и спорт, 1990, -С. 61

ma'nnaviy aspektlarini qamrab oladigan hodisa tarzida ham tuvsiiflanadi.

Shaxsning ijtimoiy salomatligi uning shaxs sifatida va professional jihatdan o'z-o'zini anglashi, oilaviy va ijtimoiy muqomidan qoniqishi, hayotiy mo'ljallari realligi, ularning sotsiomadaniy vaziyatlar (iqtisodiy, sotsial va psixologik shart sharoitlar) ga muvofiqligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Va, nihoyat, ma'nnaviy axloqiy sog'lomlik insonning hayot mazmunini belgilaydi, tabiiyki, unga yuksak axloq, yashashning ma'nosi va to'laqonligi haqidagi g'oyalari, o'z-o'zi va atrof-muhitga ijodiy yondoshish tamoyillari, muhabbat va e'tiqod tu'sir etib turadi. Bularning barchasi insonning turmush tarzi, uning oqilona mo'ljallariga alohida holda ham, yaxlit holda huin ta'sir ko'rsatadi, uning kamoloti uchun obyektiv ijtimoiy ma'daniy muhitni vujudga keltiradi<sup>1</sup>.

Shaxs ijtimoiy holatini vujudga keltiruvchi o'ziga xos mexanizm vazifasini axloq, ya'ni axloqiy qiyofa bajaradi. Axloqiy kiyofani shakllanishida insonning tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi ishtirok etadi. Bisotida mavjud bo'lgan hujut bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Buyuk muftakkir Yusuf Xos Xojib ta'kidlaganidek, "insonning buyukligi va bebaholigi, uning aql idrok va tafakkur sohibi ekanligida, unyan shu shurriy qudrat barcha voqeа-hodisalar zamiridagi tub mohiyatlarni anglash kalitidir"<sup>2</sup>.

Shaxsning yashash va faoliyat usuli, uning tafakkuri, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, moddiy va madaniy ehtiyojlari ma'nnaviyatida aks etadi. Shaxs ma'nnaviyatining zohiriy (tashqi) sifatlari bilan botiniy (ichki) mohiyati o'zaro mushtarak holda takomillashsagina, tom ma'nodagi ma'nnaviyatli shaxsning shakllanish imkoniyati yuzaga keladi. Insonning amaliy

<sup>1</sup> Sobirova Z., Tolipov B. Sog'lom turmush tarzi va uning ijtimoiy zaruriyati masalalari. Yoshlarning akmeologik qarashlarini shakllantirishda sog'lom turmush tarzining o'rni. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Falsafa va huquq instituti nashriyoti, Toshkent, 2008, 64 – 65 betlar

<sup>2</sup> Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilik. T. 1990,- B.45

faoliyatidagi adashishlar, noto'g'ri, asossiz g'oyalarga e'tiqod qo'yish kabi salbiy holatlar ma'naviy qashshoqlik yoxud hal-qimiz iborasi bilan aytganda, "imoni zaif"lik, o'zi intilayotgan maqsadning mohiyatini to'la anglab yetmaslik, irodaning sustligi, ergashuvchanlikka moyillik tufayli yuzaga keladi.

Qat'iy hayotiy yo'nalish va o'z hayotiy strategiyalarini ishlab chiqish - bu murakkab zamonaviy dunyoda yoshlari moslashuvining zarur shartlaridir. Bu borada quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- ilm bilan xulq-atvor, sayi-harakatlarning o'zaro birligi insonni donishmandlik, komil inson darajasiga eltadi;

- shaxs kamolotida ijobiy fazilatlar va odatlarni qaror toptirish qanchalik qiyin va mushkul bo'lsa, ma'naviy-axloqiy qiyofaga chirmashib olgan salbiy jihat va odatlardan xalos bo'lish bundan ham murakkabdir;

- jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ma'naviy hayotida-gi muammolar, kishilarning turmush tarzi, tafakkuridagi, ruhiyatidagi o'zgarishlarni insoniy fazilatlar ustuvorligiga yo'naltirish uchun uning ilmiy-nazariy yechimiga jiddiy yon-dashish kerak;

- shaxsning avvalo o'ziga nisbatan tanqidiy tahlilning shakllanishi, o'z manfaatini jamiyat manfaati bilan uyg'unlashtirishining asosida insonning o'zini-o'zi nazorat qilishi, o'zini-o'zi boshqarishi va anglashi singari ma'naviy va sinergetik jihatlar birligi yotadi;

- mehnatsevarlik kishi kamolotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U odamni muhtojlikdan, hayotdan zeriki-shdan, axloqiy buzilishdan asraydi, u (umri)ning mazmunli bo'lishiga ko'maklashadi, to'latadi;

- tafakkur, erkinlik, ijodkorlik shaxs ma'naviy borlig'inинг ajralmas xossalari va ular shaxs hayoti va faoliyatiga turlichata'sir ko'rsatadi.

Shu o'rinda shaxs xulk-atvori va ijobiy xislatlarini tas-niflash maqsadga muvofiq.

1. Samarabaxsh xulq-atvor, ehtiros (qayg'u, quvonch, g'azab, o'ch olishga tashnalik, boshqa kishiga, muayyan tur-

imush tarziga bog'liqlik, oliy maqsadlarga sadoqat) ta'sirida yuzaga keladigan xatti-harakat;

2. An'anaviy, umum tomonidan qabul qilingan me'yorlar, urf-odatlar boshqarib turadigan xatti-harakat;

3. Mohiyati maqsadni anglab yetilgan holda o'rtaga qo'yish va unga erishish uchun tegishli vositalarni tanlashdan iborat bo'lgan ratsional-maqsadli xulq-atvor.

Shaxs ijobiy xislatlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

– axloqiy xislatlari: insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, Jonkuyarlik, samimiylilik, odamiyilik, xushmuomalalik, iltifotlik, mehmondo'stlik;

– zukkolik, idroklik xislatlari: zehnlilik, sog'lom fikrlilik, donishmandlik, farosatlilik, sezgirlik, savodxonlik va boshqalar;

– sobitlilik xislatlari: faollik, qat'iyatlilik, tezkorlik, Jo'shqinlik, barqarorlik, dovyuraklik, intizomlilik va boshqalar;

– ishbilarmonlilik xislatlari: ishchanlik, tirishqoqlik, serhafsalalik, epchillik, uddaburonlik, tartiblilik, tadbirkorlik va boshqalar;

– daxldorlik xislatlari: vatanparvarlik, xalqparvarlik, oilaparvarlik, millatni sevish va ulug'lash, milliy madaniy qadriyatlarni e'zozlash va asrash, milliy g'oya va o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga ega bo'lish, burch va mas'uliyatlilik.

Yuqorida ko'rsatilgan ijobiy hislatlarni shaxs xarakterida qaror toptirish bugungi kunda yangi jamiyat barpo etayotgan mamlakatimiz taraqqiyotini belgilashdagi muhim omillardan biri hisoblanadi.

**Hozirgi zamон axloq muammolari.** Kishilik jamiyatida axloqning o'rni bahstalab, ayni paytda, muhim ilmiy va amaliy mavzulardan biri bo'lib hisoblanib kelgan. Zero, axloq to'g'risida ko'plab ilmiy qarashlar shakllangan bo'lsada, bugungi kunda ham axloqning tugal konsepsiysi vujudga kelgan emas. E'tiborli jihat shundaki, axloq eng qadimgi ta'llimotlardan sanalsada, u jamiyatda o'z ta'sir ahamiyatini yo'qotgan emas. Ayni paytda, axloqning maqsadi va vosita-

lari ancha takomillashgan, murakkablashgan jihatlarini kuzatamiz. Bunday jihat va ularning muammo si axloq konsepsiyasining shakllanishidagi nazariy asoslardan biri sifatida o'rganilib kelinmoqda.

Ushbu shakllangan axloq konsepsiyasida ikki jihat –realizm va axloq dilemmasi o'zini namoyon qiladi.

Jamiyat xohish-istiklari asosida qaror topgan ijtimoiy talablarning ijtimoiy ongda aks etishi hozirgi zamon axloq falsafasidagi realizm konsepsiyasidir.

Hozirgi zamon axloq falsafasidagi realizm konsepsiyasini rivojiga fenomenologiya yo'nalishi vakillarining ta'limotlari sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Fenomenologiya XX asr falsafasidagi yirik yo'nalishlardan biri bo'lib, fenomenlar yoki hodisalar nazariyasi sifatida talqin qilinadi. Fenomenologiya obyektga subyektning ehtiyojlari, talablari nuqtayi nazaridan yondashadi va "subyektsiz obyekt yo'q" degan subyektiv idealistik tamoyilga asoslanadi. Uning tanqidiy tig'i faqat tabiiy fanlar tomonidan ta'riflanilgan hodisalarni haqiqiydir, deb qarashga qarshi yo'naltirilgan. Bu oqim ilmiy ontologiyaga asoslangan bir o'lchamli standartlashtirishga, ya'ni tabiiy fanlargina narsalarni aslida qanday bo'lsa, shunday sharhlaydi, deb hisoblaydigan nazariyaga qarshidir.

Bu qarashlarni G'arbda shakllangan axloqqa oid qarashlar bilan qiyoslaganimizda hozirgi zamon realistik axloq konsepsiyasining mohiyatini anglab yetishga imkon tug'iladi.

Hozirgi rivojlangan G'arb sivilizatsiyasining asosi inson manfaatlari masalasi bilan bog'liq erkinliklarni himoya qilish zaminida qaror topdi. Shaxs erkini qonunlashtirish g'arbning madaniy jihatdan gullab-yashnashiga sabab bo'ldi. Savdosoti q rivojlandi, insonning yaratuvchilik qobiliyati keng namoyon bo'lib, ilm-fan taraqqiy topdi. Bu sivilizatsiya va uning rivojlanish tezligi sifat va salohiyatda ilg'orlikka intilayotgan barcha mamlakatlarga ta'sir qilmay qolmas edi. Bundan tashqari, XX asr boshlarida paydo bo'lib, keyinchalik birinchi jahon urushiga sabab bo'lgan dunyoni qayta taqsimlash, yer

osti boyliklariga egalik qilish istagi dunyoni g'arblashtirish g'oyasini yangi asoslarda rivojlantirishni kun tartibiga qo'ydi. Bu yerda diqqat bilan qaraganda, shu narsa ko'rindiki, g'arbiy evropa xalqlari garchi inson erkinliklari uchun kurashlar olib borgan, bu yo'lda ko'plab mamlakatlar hal etolmagan yutuqlarg'i erishgan bo'lalar-da, bu yutuqlar aslida boylik va kuch-qudratga asoslanadi. Erkinlikning boylik va kuch-qudratga asoslanishi bizga ma'lumki, boshqa xalqlarning erkinliklarini oyoq osti qilish, ularni iqtisodiy qaram qilish hisobiga bo'ldi. Insonga erk berish, uni "ochish", "kashf etish" g'oyalari zamida ayollar emansipatsiyasi uchun kurashga ulanib ketdi va bu XIX asr oxirlariga kelib yuqori darajaga ko'tarildi.

Ammo hayot shuni ko'rsatadiki, erkinlik, bir tomonidan inson rivoji uchun sharoit yaratib, iste'dodlar ro'yobga chiqib, ilm-fan, texnik taraqqiyot gullagan, iqtisodiy o'sishga sabab bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, ma'naviy qadriyatlarga hepisand qarash, an'analardan voz kechish axloqiy inqirozlar yuz berishiga olib keldi. Zero, inson hayotda yakka o'zi umriguzaronlik qila olmaydi, u jamiyat ichida faoliyat ko'rsatadi. Jamiyat esa muayyan axloq-odob, qoida-udumlar, insoniy tartibotlarga bo'ysunish, burch va ma'suliyatni his etish, oila sha'ni, Vatan, millat sharafi uchun kurashishni talab qiladi. Inson butkul moddiy talablar quliga aylansa, uning hayvondan farqi yo'q. Hamma narsani moddiy ta'minot, boylik bilan o'lchash falsafasi ayrim g'arb xalqlari madaniyati va ma'naviyatida bugungi kunda ko'plab buzilishlarga olib keldi. Ushbu salbiy jarayon uch yuz yil davomida ijtimoiy va ilmiy texnik taraqqiyotni nazarda tutib qonunlashtirilgan erkinliklar, kuch-qudrat va har qanday (hatto tana go'zalligini ham) moddiy boylikning odob-axloq va ma'naviy go'zallik xislatlaridan ustunligini namoyish qilish oqibatida kelib chiqdi.

Jismoniy va aqliy kuch, sifat insonlarda barcha muammo-larni hal etish vositasiga aylanib bordi. Lekin odob-axloq, ma'naviyat inson ruhiyatiga tegishli xususiyatlar bo'lib, erkinliklarni qonunlashtirishda ular borgan sari o'z o'rinalarini yo'qota bordilar. Oqibatda XX asrning ikkinchi yarmida

ma'naviy qadriyatlarga begona avlod vujudga keldi. O'zlarining asosiy maqsadlarini sivilizatsion yetakchilikka, ya'ni asosan siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy yo'lboschchilikka qaratgan evropa sivilizatsiyasi erkinliklarning ma'naviy sifatiga yetarlicha e'tibor qarata olmadi (bu holat hozir ham davom yetmoqda). Ma'naviyatdagi bu oqsoqlik uzoq yillar davom etgan texnokratik dunyoqarash soyasida yashirinib keldi.

Ko'p asrlar davomida diniy an'analar va u belgilagan qoidalari bag'rida yashagan yevropa sivilizatsiyasi taraqqiyot yo'lini boylik va kuch-qudratga bo'lgan intilishni qanoatlantirishda deb bildi va insonga barcha sharoitlar, imkoniyatlarni ana shu asosda yaratib berishga urunishni uni «ma'naviy va'zlar»dan xalos qiluvchi vositaga aylantirib bordi.

Ma'naviy-axloqiy qadriyatlardan begonalasha borish, XX asrning 60–70-yillariga qadar ayollar erkinliklari, ularning huquqlarini erkaklar bilan tenglashtirishga urunish g'arbda yuksak darajaga ko'tarildi.

Ayollar huquqlarining kengaytirilishiga faqat ular tomonidan olib borilgan kurashlarga sabab bo'ldi, deyish xato bo'lar edi. Bunga ularda ham erkaklar kabi barcha sohalarda yaratuvchanlik qobiliyati, turli yo'nalishlardagi mehnat majburiyatlarini eplay olish salohiyati mavjudligini isbotlovchi uzoq davom etgan kuzatishlar, ijtimoiy tadqiqotlar natijalari ham sabab bo'lgan edi.

Shu ma'noda ayollarga moddiy ishlab chiqarishda erkaklar barobarida turish va shu orqali jamiyatda o'z o'rnini belgilashga ruxsat etildi.

G'arb buni hozirga qadar ayollar huquqlarini muhofaza qilish sifatida talqin etib kelmoqda va bu talqinni boshqa hududlarga eksport qilishga urinmoqda.

G'arb jamiyati maqsadlarining tubida yotgan ma'naviyatga befarqlik, loqaydlik xuddi ana shu - ayollar erkinliklarni yaratish bilan yuzaga chiqib qoldi. Ayollar emansipatsiyasi, birinchi navbatda, oila va nikoh tushunchalari ildizlariga bolta urdi. Oila va nikoh qadriyatlari Yevropada ayollar ozodligini bo'g'uvchi, cheklab turuvchi vosita sifatida tanazzulga

uchradi, ayni vaqtda, bo'lg'usi avlodlarni ma'naviy-axloqiy turbiya qiluvchi o'choq sifatidagi mazmunini yo'qotdi. Vaholmki, ayol va oila yangi avlod tarbiyasining asosi bo'lib, bu oddiy ish emas, balki butun jamiyat ma'naviyatini namoyish etuvchi boshlang'ich manba rolini bajarib kelayotgan edi.

Erkinliklarni qonunlashtirish jarayonida erkinliklar oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan axloqiy buzilishlari, ma'naviy tubanliklar, madaniy hayosizliklarga umuman etibor qaratilmadi. Bu loqaydlik nikoh haqidagi tushunchalarni moddiy asos bilan bog'lanishiga olib keldi. Bu esa bevosita evdemonizm va gedonizm masalalarida turli qarashlarni yuzaga keltirdi.

Endi er va xotin o'rtasida "muqaddas nikoh", degan ma'naviy tushuncha emas, moddiy mablag', kuch-qudrat va bular ortida turgan erkin fuqarolik tushunchasi asosiy rol o'ynay boshladi. Shuningdek, nikox muqaddasligining barham topishi oilada ayol va erkak xatti-harakatlarining o'zaro mazoratiga ham nuqta qo'ydi.

Ko'rinib turibdiki, inson manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, yaratilayotgan erkinliklarning mohiyati G'arbiy Yevropada axloq me'yorlarining saqlanishi va meros tarzida davom etishiga o'zi bilmagan holda katta to'siq yaratib qo'ydi. Chegaralanib qolgan ma'naviy, axloqiy madaniyat so'nggi davr avlodlari xarakteriga yetakchi xususiyatlar sifatida to'la yetib bormadi. Cheksiz erkinliklardan kelib chiqqan tarbiya g'arb sivilizatsiyasida ibridoiy erkin yashashga berilish istagini vujudga keltirdi. Moddiy jihatdan yuksak taraqqiy etgan davlatlarni ma'naviy jihatdan boshi berk – tanazzul ko'chasiga kiritib qo'ydi.

Yevropa olimlarining guvohlik berishicha, ma'naviyatsizlik axloq prinsipiiga aylanib bormoqda. Masalan, gedonizm g'oyasiga asoslangan turmush tarzi. Ma'lumki, qadimgi yunon olimlari Aristin va Elinur tomonidan asos solingan gedonizm (yunoncha nedone-lazzatlanish) lazzatlanib umr kechirish inson hayotining asl mazmunini tashkil etishi lozim, degan qarashga asos bo'lgan g'oya va turmush tarziga intilishni ifo-

dalaydi. Gedonizmni mutlaqlashtirish inson hayotida moddiy boyliklar rolini oshirib, ma'naviy qadriyatlarga e'tiborni su-saytirishga, oilani qadrsizlanishiga olib keldi.

An'anaviy ma'naviy qadriyatlarni qoloqlik, qabilaturug'chilik belgisi, ozod odam uchun ortiqcha dahmaza, kishan deguvchilar nazarida hamma narsa nisbiy, jumladan, axloq me'yorlari ham. Har bir davrning o'z "axloqi" bor, doimiy qadariyat yo'q, deydilar. Ular nazarida axloq siyosiy maqsad-larga xizmat qilish kerak. Maqsadga erishish uchun hamma vositalarni qo'llash joiz, bu yo'lda kerak bo'lsa, shayton bilan ham hamkorlik qilish mumkin.

Agar biz yuqoridagidek G'arbiy Yevropa axloqiy hayotiga fenomenologik yondashsak hozirgi zamon axloq falsafasidagi realizm konsepsiyasining qiyofasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bu jarayonda hozirgi zamon G'arb kishisi axloqiy hayotida dilemma, ya'ni ikkilanish nuqtasi hosil bo'ladi.

Shu o'rinda biz uchun notanish "dilemma" tushunchasining mazmunini aniqlab olish kerak. Dilemma (di... vayun. lemma – asos, hukm) - 1) mantiqda – shartli ikki hukmdan va ikki hadli bir hukmdan chiqarilgan xulosa, bunda ikkala hal ham yo shartli hukmlarning sabablari, yoki ulardan chiqarilgan xulosalarning inkori demakdir; 2) Ko'chma ma'noda noxush imkoniyatdan birini tanlab olishga majbur bo'lish<sup>1</sup> sifatida ta'riflanadi.

Hozirgi zamon axloq konsepsiysi dilemmasidagi asosiy muammo shundaki, jamiyat a'zolarining ko'pchiligi istaklari- ga qarshi borib an'anaviy axloqiy qadriyatlarni saqlab qolish va unitilganlarini tiklash hamda shu asosda yashashiga chiqishi kerakmi? Yoki jamiyat xohish- istaklaridan kelib chiqib madaniy lebiralizm g'oyalarini qo'llab-quvvatlashi lozimmi? Ushbu ikkilanish nuqtasidagi maqbul yechimni topish G'arb jamiyati kelajagini qanday bo'lishini ko'rsatuvchi ikki yo'ldir.

<sup>1</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T-3.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediya-yasi Davlat milliy nashriyoti, 2002. – B. 591

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bu boradagi ta'kidi masalaga oydinlik kiritadi: "biron bir jamiyat ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar ongida ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi"<sup>1</sup>.

Hozirgi zamon etikasidagi g'oyaviy sayqallanish, prinsipal takomillashish va ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan yangilanish hodisalar, chunonchi, "Global etika to'g'risida Deklaratsiya", "Bioetikaning umumiy normalari to'g'risida Deklaratsiya"larining qabul qilinishi, shuningdek, "Atrof-muhit etikasi", "Kosmosni o'rghanish etikasi" kabi loyihamar etika taraqqiyotida yangilik hisoblanmoqda. Bu hodisalar globallashuv sharoitida turli madaniy an'analarga ega xalqlarning o'zaro yaqinlashuvi har bir xalqning milliy axloqiy o'ziga xosligini muhofaza qilish va saqlab qolish yo'nalishini izchil davom ettirishni, ikkinchidan, dunyoviy madaniyat va umuminsoniy axloqiy qadriyatlarning ilg'or jihatlarini o'zlashtirib borishni kun tartibiga qo'yemoqda.

BMT tomonidan 2012-yilning iyun oyida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida "Rio+20" konferensiyasi o'tkazildi. Ushbu voqeя, shuningdek, juda ko'plab hukumatga qarashli bo'limgan va davlat muassasalari, BMT agentliklarining ham diqqatini tortdi. Konferensiyada "Barqaror taraqqiyot" konsepsiysi bir ovozdan ma'qullandi. Bu konsepsiya kelgusi avlodlar hayot tarziga tahdid solmagan holda hozirgi avlodning hayot tarzini yaxshilash va ehtiyojlarini qanoatlantirishga yordam beradigan taraqqiyotni ifodalaydi. Boshqacha aytganda, bu - bugungi avlodning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ekologik talablariga javob beradigan va kelajak avlodlar uchun ham ma'qul bo'lgan taraqqiyot yo'lidir. Konfrensiyada asosiy e'tibor ikkita masalaga qaratildi. Ulardan biri butun dunyoda "yashil iqtisodiyot"ni tashkil etish. Bunda foyda olish yo'lida

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston. 1997. -B.45

atrof-muhit musaffoligi xavf ostiga qo‘yilmasligi kerak. Shunday iqtisodiyotning rivojlanishi barqaror taraqqiyotning yorqin namunasi bo‘ladi va u qashshoqlikni bartaraf etishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ikkinci masala – shunday institutsional asosni yaratish kerakki, u dunyo mamlakatlari ichki siyosatni olib borishda ham undan foydalana olsin.

Yana bir konsepsiya bu – “Inson traqqiyoti” konsepsiyasidir. BMTning Taraqqiyot dasturi (BMTTD) tomonidan tayyorlangan 2010-yil “Inson taraqqiyoti haqidagi ma’ruza”da unga quyidagicha ta’rif beriladi: “Inson taraqqiyoti o‘z mohiyatiga ko‘ra inson erkinliklari qatoriga odamlarning uzoq, sog‘lom va ijodkor hayotga bo‘lgan huquqlarini hamda boshqa, ularning fikri bo‘yicha qadrlashga arzigulik maqsadlarga erishish; bizning mushtarak sayyoramizda adolat va rivojlanishning barqarorligini ta’minalashda faol ishtirok yetishni kiritishdan iborat. Odamlar – alohidami yoki guruhlarmi – bir vaqtda inson rivojlanishining ham sayi-maqsadi, ham harakatlantiruvchi kuchidirlar”. Bu ta’rifni tushunib yetish quyidagi xulosani chiqarishga imkon beradi: inson taraqqiyoti – kompleks xarakterga ega bo‘lib, o‘z ichiga insonning ham moddiy, ham ma’naviy ehtiyojlarini qondirishni, uning sog‘liqqa, ta’lim olishga, o‘zini ifoda qilish erkinligiga, bugungi va kelgusi avlodlar xavfsizligiga bo‘lgan huquqlarini ta’minalashni qamrab oladi.


Ma’naviy sohada sivilizatsiyaviy hayotning qaror topishi eng radikal tarzda bo‘lib, inson ruhiyatida mantiqiy tafakkurni, unda esa, sifat jihatdan yangi dunyoqarashni keltirib chiqaradi. Bu jarayon dunyo mamlakatlari taraqqiyoti evolyutsiyasi, unga ta’sir qiladigan texnologik jarayonlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, axloqiy, mafkuraviy jarayonlarini globallashuvi bilan uzviy aloqadorlikda kechadi. “Global muammolarning dahshatli ko‘lami shu darajada realki, – deb yozadi tadqiqotchi A.Pechchei, – insoniyat bunday tahlikali holatdan faqatgina o‘z tafakkuri va xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni shakllantiribgina qutulishi mumkin”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Печчин А. Человеческие качества. – М.: Прогресс, 1980. – С. 5.

Shu nuqtayi nazardan global axloq, dunyo miqyosidagi qushshoqlik va xalqaro yordam, atrof-muhit muammolar, tinchlik va salomatlik kabi turli xil muammolarga duch keligidan umumjahon qadriyatlar va me'yorlarning mazmuni va oqlanishi uchun tanqidiy axloqiy tekshiruv maydoni hisoblanadi.

Global axloqiy qadriyatlar qat'iy ma'noda bilimni tashkil etadi, ya'ni obyektiv ravishda joriy bilim, subyektiv imtiyozlar yoki jamoaviy bitim. Bunda – buzilmaslik, hamkorlik (muvo'llqlashtirish) va ijobiy aralashuv tamoyillari axloqiyat mezoni bo'ladi.

Insoniyat tamaddunidagi har qanday o'zgarish, yangilanishlar insoniy munosabatlar tizimida kechadi. Bu o'zgarishlar kishilar, millatlar va xalqlararo muloqot tizimida shakllanadi.



# QO'SHIMCHA VA TUSHUNTIRUVCHI MATNLAR

Axloq
-------

Kishilarning tarixan tarkib topgan hulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi o'zaro, shuningdek, jamiyatda bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi

Axloqiy qadriyat
------------------

Insoniy fazilat va xislatlar uyg'unligini o'zida mujassamlashtirgan, jamiyatdagi ijtimoiy tartiblar, huquq, odob normalarini anglash, unga rioya qilish hamda qadrlash asosida takomillashib boradigan umuminsoniy fazilatning ham fikriy, ham amaliy me'yorlari majmui



## Axloq hodisasi

Ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj, jamiyatning manfaatlari aks etadi

Odat kuchiga ko'ra xulq-atvorni vijdon asosida baholaydi

Ijtimoiy fikrni ifodalaydi

Baholashning axloqiy mezonlari asosida huquqiy tartibga solinmagan munosabatlarni tartibga soladi



## Axloq funksiyalari

Kishilar orasidagi turli munosabatlarni  
muvofiglashtirish

Kishilar faoliyatining insonparvar qadriyatlari va  
mo'ljallarini belgilab berish

Shaxsn ni ijtimoiylashtirish

### Axloqiy baholash

Ijtimoiy voqelikning turli  
hodisalarini va kishilarning  
xatti-harakatlarini ular qanday  
axloqiy ahamiyatga ega  
bo'lishiga qarab, ma'qullash  
yoki qoralash.

Axloqiy baholash qilingan  
harakatlarning axloq-odob  
talablariga muvofiq kelishi  
yoki muvofiq kelmasligini  
aniqlaydi.

Umuniy axloqiy baholash  
yaxshilik va yomonlik  
kategoriyalarida amalga  
oshiriladi

### Axloqiy qoida

Bir xildagi ish amallarga joriy  
qilinadigan umumiy talab va  
ta'qiqlar vositasi bilan kishilar  
xatti-harakatini tartibga  
soluvchi axloq-odob  
talablarining qoidasi.

Axloqiy qoidalarni rasm-  
rusum, odat va jamoatchilik  
fikrining kuchi barqaror qiladi.  
O'z ijtimoiy mazmuni jihatidan  
axloqiy qoidalalar umuminsoniy,  
ham milliy bo'lishi mumkin.

## Konfusiyning “Olijanob inson axloqi” konsepsiysi

Olijanob inson haqidagi tasavvur uch xil ko‘rinishga ega. Uzoqdan qaraganda u juda jiddiy ko‘rinadi. Yaqinlashgach, u muloyim tuyiladi. Uning gaplarini eshitganda cho‘rtkesar bo‘lib ko‘rinadi.


Olijanob insonning qo‘li ostila ishlash oson, lekin unga yoqish juda mushkul. Uning e’tiborini to‘g‘ri yo‘l bilan qozonilmasa, aks holda u buni yoqtirmaydi. U insonlardan foydalanishda har bir shaxsning qobiliyatiga qarab odilona ish ko‘radi. U mudom qonun va intizomni o‘ylaydi.

Olijanob inson dunyoviy ishlarni bir-biridan ajratib bajarmaydi, balki burchga ko‘ra ish qiladi, u kiyim va emakka emas, baški haq yo‘lga intiladi. Axloqlilik va haqqoniylilik, kamtarlik va yomonlikka yaxshilik bilan javob berishi orqali ham uni ilg‘ash mumkin.

“Olijjanob inson 9 ta narsani o‘ylashi kerak. Bular:

1. Ko‘rganini angladimi yo yo‘q;
2. Eshitganini aniq eshitdimi yo yo‘q;
3. Yuzidagi ifodasi yoqimlimi yo yo‘q;
4. Tashqi qiyofasida ehtirom zohirmi yo yo‘q;
5. Suhbatdagi so‘zлari samimiymi yo yo‘q;
6. Ishiga nisbatan tirshqoqmi yo yo‘q;
7. Savol tug‘ilganda so‘tashi kerakmi yo yo‘q;
8. G‘azabini sochish yomon oqibatlarga olib keladimi yo yo‘q;
9. Erishish mumkin bo‘lgan narsa adolatga muvofiq keladimi yo yo‘q;

## “AVESTO” da axloq tizimi



“Avesto”da ijtimoiy axloqiy qadriyatlar

## Abdulla Avloniy axloq ma'rifati

### Yaxshi xulq

Sohibi aql, diyonat, islomiyat, nazofat, g'ayrat, riyozat, qanoat, shijoat, sabr, hilm, intizom, miqyosi nafs, vijdon, vatanni suymak, iffat, haqshunoslik, sadoqat, xayrixohlik, iqtisod

### Yomen xulq

G'azab, shavhat, jaholat, safohat, hamoqat, atolat, hasosat, rahovat, anoniyat, adovat, namimat, g'iybat, haqorat, jibonat, hasad, nisoq, tama', zulm, sharah (hirs), xumud (xomushlik), isrof, riyo, xataka

### Fitratning axloqiy komillik konsepsiysi

#### “Vazifai nafsiya”

Nafs kamoli bu odamning ham o'ziga va ham o'z hamjinslariga foyda va naf' keltirishidir.

Nafs asosiga ko'ra to'rtta – shijoat, hikmat, iffat va adolatdan iborat bo'lgan solih amallarga xizmat qilib o'zini tiysa, nafratlansagina, uning darajasi yuqori bo'ladi

#### “Vazifai insoniya”

Odamzod madaniy jamoa bo'lganlaridan, o'zlarining hamjinslari bilan bir joyda yashashga majbur, ular bir-birlari bilan nochor muomala va aloqada bo'ladiilar, har kim o'z shaxsiy manfatlarini yuqori qo'yadi va bu xiroslik gina, adovat, hasad va dushmanlikka sabab bo'ladi. Bu xil munosabatlarni man' qilmoq uchun axloq ilmi lozim.

#### “Vazifai oila”

Oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibili bo'ladi.

Bir mamlakatning axolisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarni zariflashtirib yuborsa va intizomsizlikka yo'll qo'ysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi

## G'arb axloqiy o'gitlari

- Qonun taqiqlamagan narsani uyat taqiqlaydi (*Seneka*).
- Yaxshilik adolatsizlikni qilmastikda emas, hatto buni hohlamaslikda hamdir (*Demokrit*).
- Farzandlarga oltin emas, balki, benihoya vijdonlikni vasiyat qilish kerak (*Platon*).
- Dushmanidan o'ch olishning haqiqiy usuli – unga o'xshamaslik (*Mark Avriliy*).
- Farzandlarga vatanga muhabbatni singdirishning eng yaxshi vositasi shundaki, ushbu muhabbat ~~o'g'alar~~arning o'zida bo'lmoq'i lozim (*Monteske*).
- Insoniy bo'lmasdan, ~~adolatli~~ bo'lish mumkin emas (*Vovenarg*).
- Bolalarga doimo mukofot berish yaramaydi. Buning oqibatida, ular xudbin bo'la boradilar va bundan sotqincha fikrlash tarzi rivojlanadi (*I.Kant*).
- Kim dunyoga aql bilar qarasa, dunyo ham unga aql bilan qaraydi (*Gegel*)

## G'arb axloqiy hikmatlari

- Faqat bitta haqiqiy pul bor, u – aql. Hamma narsani faqat unga ayrboshlash lozim: shu holatdagina, ~~marollik~~ ham, fahm-farosatlilik ham, adolat ham, saxovatpeshalik ham qalbaki bo'lmaydi (*Platon*).
- Adolatsizlikning uch manbasi mavjud: zulmning o'zi, qonun nomi bilan niqoblangan, yomon niyatdagi hisyla va baholanmagan mehnat (*F.Bekon*).
- Yaxshilikni taqdirlab, biz bu bilan yomonlами jazolaymiz (*Didro*).
- Qat'iy tartib-qoidalarsiz odam deyarli hamisha fe'l-atvordan ham mahnum: unda fe'l-atvor bo'lganida edi, ~~moga~~ tartib-qoidalari qanchalik zarurligini u his etgan bo'lardi (*Shamfor*).
- Boylikni yo'qotsang – ko'p ~~narsa~~ yo'qotmaysan, nomusni yo'qotsang- ko'p narsa yo'qotasan, jasoratni yo'qotsang – hamma narsani yo'qotasan (*Gyore*).
- Dunyodagi o'z yo'lingni bosish o'tish uchun o'zing bilan ehtiyyotkorlik va bag'rikenglikning katta zaxirasini boshish foydali (*Shopengauer*).
- Or-nomus hayotdan qimmatning (*Shiller*).
- Kechirish qo'llidan kelmaydi ~~andamni~~ kechirish mumkin emas (*Nitsshe*).

## Abu Nasr Farobi hukmdor (rahbar)ning 13 xususiyati to‘g‘risida

1. To‘rt muchali sog‘-salomat, biror jismoniy nuqsoni bo‘lmasin;
2. Kuchli xotira egasi bo‘lsin;
3. Tabiatdan nozik fahm bo‘lsin;
4. Zehni o‘tkir, aqli tez bo‘lsin;
5. Voizlik qobiliyatini egallagan bo‘lsin;
6. Qadr-qimmatni biladigan, nomus-oriyatli bo‘lsin;
7. Boylik va hashamlarga nafratli bo‘lsin;
8. Noloyiq, fahs ishlat, nafsga berilishdan uzoq bo‘lsin;
9. Haqiqatga va haqgo‘y odamlarga muhabbatli, yolg‘on va yolg‘onchilarga adovatli bo‘lsin;
10. Ilmlarga qiziqadigan va ilm-fanni rivojlantirishga intiladigan bo‘lsin;
11. Hayotda kechayotgan voqealarni to‘g‘ri anglaydigan, farosatli, boshqalar fikrini tez anglaydigan, tabiatdan nozikfahm bo‘lsin;
12. Odil bo‘lsin va adolatni sevsin, zolimlar va zulmga qarshi kurashadigan bo‘lsin;
13. Me‘yorni bilib ish yurgizsin.

Fozil jamoa 12 fazilatga ega kishilarni kamol toptiradi:

1. Marifatli;
2. Qonunlarga rioya etuvchi;
3. O‘tkir mulohazali;
4. E’tiqodli;
5. Foydali ishlarga berilgan;
6. Kasb-hunarli – ijodkor;
7. Mexnatsevar;
8. Insonparvar;
9. Vatanparvar;
10. Va‘daga vafodor;
11. Sahovatli;
12. Qanoatli.

## Tasavvuf axloq unsurlari

“Talab” – komillik sari qadam

“Ma’rifat” – inson sirlaridan voqif bo’lish

“Xayrat” – insoniy fe'l-atvordan zavqlanish

“Faqrı fano” – komillikka ishtiyoq sezish, hosil qilingan sifatlarni amalda qo’llash

“Ishq” – o’z maqsadiga mehr

“Istig‘no” – maqsadni taqdir deb tushunish

“Tavhid” – maqsadga ishonch

## Alisher Navoiy komil inson axloqi sifatlari xususida

### Tavba

shariatga riya qilish

mehnatsevar bo’lish

halol luqma

hushxulq bo’lish

mard bo’lish

sabrli bo’lish

vafoli bo’lish

tariqat odobini saqlash

riyoza t chekishdan qo’tqmaslik

rizolik bilan kun o’tkazish

kamtarin bo’lish

sahiy bo’lish

rahmdil bo’lish

chuchuk tilli bo’lish

## Abdurauf Fitratning axloqiy tarbiya tizimi

Tarbiyachining o‘zi ibrat  
bo‘lishi

Bolaga hikoyatlar  
vositasida axloq  
qidalarini shakllantirish

Yomonlarning yomonligini  
ko‘rsatib, yaxshilarning  
yaxshiligini uqtirib borishda  
ijtimoiy tuzum va muhitni  
hisobga olish

## Shaxs ijobjiy hislatlari

*ahloqiy xislatlari:*  
insonparvarlik, do‘stlik,  
g‘amxo‘rlik, jonkuyarlik,

*zukkolik, idroklilik xislatlari:*  
zehnlilik, sog‘lom fikrlilik,  
donishmandlik, farosatlilik,

*sobitlilik xislatlari:*  
faollik, qat’iyatlilik,  
tezkorlik

*ishbilarmonlilik  
xislatlari:* ishchanlik,  
tirishqoqlik

*daxldorlik xislatlari:* vatanparvarlik, xalqparvarlik, oilaparvarlik,  
millatni sevish va ulug‘lash, milliy madaniy qadriyatlarni eozolash va  
asrash, milliy g‘oya va o‘zlikni anglash, tarixiy xotiraga ega bo‘lish, burch  
va masuliyatlilik.

## I.A. Karimovning komil insonga ta'rifi

*"Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oладиган, hulq- atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ладиган билимли, marifatli kishilarni tushunamiz".*

(Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 1999, - B.134)

*Ta'rifning uch jihat:*

*Erkin tafakkurlay olish, o'z mustaqil fikriga ega bo'lish.  
Ushbu jihat kishilarni har qanday qaramlikdan saqlaydi.*

*O'z hulq- atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la olish.  
Oilaga, jamoatchilikka, ishga bo'lgan munosabatda o'zgalarga ibrat bo'lish.*

*Bilimli va marifatli bo'lish.  
Bilim va axloqning uyg'unlashuvi ma'rifatni vujudga keltiradi.*

### O'z-o'zini anglash

*Maqsadga yo'naltirish funksiyasi – inson o'z-o'zini anglash natijasida o'z imkoniyatlarini anglab boradi va o'z - o'zini takomillashtirishga o'z faoliyatini yo'naltiradi*

*Baholash funksiyasi – o'z-o'zini anglash jarayonida inson o'z-o'zini baholaydi.*

*Bilish funksiyasi – insonning o'z-o'zini bilishi, o'z-o'zini tushunishi, o'z-o'zini kuzatishi*

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Muayyan kishining xulqi nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Xalq og'zaki ijodida axloq mazmuni nimalardan iborat?
3. "Axloq" tushunchasi Avestoda nimani bildirgan?
4. Zardushtning "Besh narsaga bog'langanman, besh narsadan chekinganman", - degan fikridagi "bog'langan" va "chekingan" narsalarni ayting.
5. Abu Nasr Forobiy boshliq, rahbarning o'n uchta tabiiy va ma'naviy sifatlari xususida to'xtaladi. Ularni ayting.
6. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asaridagi Ugdumish obrazida qanday axloqiy fazilatlar uyg'unlashgan?
7. Buyuk alloma Ibn Sino insondagi ortiqcha ziyon keltiruvchi xulq-atvor va sifatlarni qaysi jonivorga o'xshatadi? Nega?
8. Tassavvufiy axloqiy qadriyatlar tizimida qanday g'oyalalar asosiy o'rinni olgan?
9. Bahouddin Naqshband axloqiy qarashlarining hozirgi kunda qanday ahamiyati bor?
10. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi obrazlar o'rtasidagi axloqlilik munosabatlari yoriting.
11. "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobining muallifi kim? Bu kitobda qanday axloqiy kategoriyalarga ta'rif berilgan?
12. Axloq nima? U allomalar tomonidan qanday ta'riflangan?
13. Axloqiy tuyg'u nima?
14. Axloqiy munosabat deganda nimani tushunasiz?
15. Kishining axloqiy qiyofasi bilan bog'liq qadriyatlarni ayting?
16. Axloqiy ong va dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatini ayting.
17. Qanoat tushunchasining mazmun-mohiyatini ayting.
18. Futuvvat nima?
19. Nima uchun or-nomus, hayo, andisha kabilalar o'zbek xalqida e'zozlanadi?

## L.A. Karimovning komil insonga ta'rifি

*"Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, hulq- atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, marifatli kishilarni tushunamiz".*

(Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 1999, - B.134)

*Ta'rifning uch jihatি:*

*Erkin tafakkurlay olish, o'z mustaqil fikriga ega bo'lish.  
Ushbu jihat kishilarni har qanday qaramlikdan saqlaydi.*

*O'z hulq- atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'la olish.  
Oilaga, jamoatchilikka, ishga bo'lgan munosabatda o'zgalarga ibrat bo'lish.*

*Bilimli va marifatli bo'lish.  
Bilim va axloqning uyg'unlashuvi ma'rifatni vujudga keltiradi.*

### O'z-o'zini anglash

*Maqsadga yo'naltirish funksiyasi – inson o'z-o'zini anglash natijasida o'z imkoniyatlarini anglab boradi va o'z - o'zini takomillashtirishga o'z faoliyatini yo'naltiradi*

*Baholash funksiyasi – o'z-o'zini anglash jarayonida inson o'z-o'zini baholaydi.*

*Bilish funksiyasi – insonning o'z-o'zini bilishi, o'z-o'zini tushunishi, o'z-o'zini kuzatishi*

## MUSTAQIL ISHLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Muayyan kishining xulqi nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Xalq og'zaki ijodida axloq mazmuni nimalardan iborat?
3. "Axloq" tushunchasi Avestoda nimani bildirgan?
4. Zardushtning "Besh narsaga bog'langanman, besh narsadan chekinganman", - degan fikridagi "bog'langan" va "chekingan" narsalarni ayting.
5. Abu Nasr Forobiy boshliq, rahbarning o'n uchta tabiiy va ma'naviy sifatlari xususida to'xtaladi. Ularni ayting.
6. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilik" asaridagi Ugdumish obrazida qanday axloqiy fazilatlar uyg'unlashgan?
7. Buyuk alloma Ibn Sino insondagi ortiqcha ziyon keltiruvchi xulq-atvor va sifatlarni qaysi jonivorga o'xshatadi? Nega?
8. Tassavvufiy axloqiy qadriyatlar tizimida qanday g'oyalar asosiy o'rinni olgan?
9. Bahouddin Naqshband axloqiy qarashlarining hozirgi kunda qanday ahamiyati bor?
10. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asaridagi obrazlar o'rtasidagi axloqlilik munosabatlari yoriting.
11. "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobining muallifi kim? Bu kitobda qanday axloqiy kategoriyalarga ta'rif berilgan?
12. Axloq nima? U allomalar tomonidan qanday ta'riflangan?
13. Axloqiy tuyg'u nima?
14. Axloqiy munosabat deganda nimani tushunasiz?
15. Kishining axloqiy qiyofasi bilan bog'liq qadriyatlarni ayting?
16. Axloqiy ong va dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatini ayting.
17. Qanoat tushunchasining mazmun-mohiyatini ayting.
18. Futuvvat nima?
19. Nima uchun or-nomus, hayo, andisha kabilar o'zbek xalqida e'zozlanadi?

20. Qanday umuminsoniy axloqiy qoidalarni bilasiz?
21. Libosdagi axloq talablarini ayting.
22. To'laqonli shaxsning xususiyatlarini ayting.

## REFERAT MAVZULARI

1. Konfutsiy axloqiy ta'limoti va uni o'rganishning ahamiyati.
2. Arastu va Platon axloq konsepsiyasidagi umumiylilik va farq.
3. Spinoza axloqiy g'oyalarining mohiyati.
4. Pragmatizm talmotining axloqiy mazmuni.
5. Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida axloqning mohiyati.
6. Abu Rayhon Beruniyning axloqiy qarashlari.
7. Ibn Sinoning axloqiy qarashlari.
8. Yusuf Xos Hojib asarlarida axloqqa oid ta'limoti.
9. Ahmad Yugnakiy asarlarida axloqqa oid ta'limoti.
10. Jalolidin Rumiy asarlarida axloqqa oid ta'limoti.
11. Farididin Attor asarlarida axloqqa oid ta'limoti.
12. Umar Xayyom asarlarida axloqqa oid ta'limoti.
13. Sa'diy Sheroziy asarlarida axloqqa oid ta'limoti.
14. Abdurahmon Jomiy asarlarida axloqqa oid ta'limoti.
15. Alisher Navoiy asarlarida axloqqa oid ta'limoti.
16. Fitrat asarlarida axloqiy muammolar.
17. Cho'lpon qarashlarida axloqiy faoliyat masalalari.
18. "Ommaviy madaniyat" hodisasining g'ayri axloqiy mohiyati.
19. Axloqning jamiyatdagi funksiyalari.
20. Axloq me'yorlari va ularning namoyon bo'lishi.
21. Axloqiy madaniyat.
22. Axloqiy muhit: muammo va yechimlar.
23. Axloq va huquq, farqi va o'zaro aloqadorligi.

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

- 1. Kim birinchi bo'lib etikani mustaqil fan sifatida ilmiy-falsafiy bilimlar safiga kiritgan?**
  - Platon
  - Suqrot
  - Aristotel
  - Geraklit
- 2. "Mavh etaman ezgu fikr, ezgu kalom, ezgu amalni va jumla yovuz fikrat kamol va yovuz amallardan yuz buraman". Ushbu axloqiy g'oya qaysi ta'limotda aks etgan?**
  - Tasavvuf
  - Konfutsiy
  - Zardushtiylik
  - Islom
- 3. "Axloq" tushunchasining ma'nosini aniqlang:**
  - Arabcha, xulqning ko'pligi
  - Lotincha, xulq odobi
  - Yunoncha, tarbiya
  - Sankritcha, intizom
- 4. Axloqda nimalar aks etadi?**
  - Ijtimoiy zaruriyat, ehtiyoj va jamiyat manfaati
  - Moddiy, ma'naviy madaniyat
  - Ijtimoiy borliq, kishilar dunyoqarashi
  - Iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy munosabat
- 5. Axloqshunoslikning muhim manbalari hisoblangan "Guliston", "Bo'ston" asarlari muallifini aniqlang.**
  - Yusuf Xos Hojib
  - Sa'diy Sheroziy
  - Abduraxmon Jomiy
  - Alisher Navoiy

**6. Inson o'zini angłamas, o'rganmas ekan hech qachon mukammal bo'la olmaydi degan fikr muallifini aniqlang.**

- A. Jaloliddin Rumiy
- B. Sa'diy Sheroyiz
- C. Abduraxmon Jomiy
- D. Alisher Navoiy

**6. Qaysi alloma o'z ijodida Suqrot, Arastu, Xo'ja Xizr, Naqshband, Jomiy obrazlar orqali komil insonni kashf etadi?**

- A. Alisher Navoiy
- B. Zahriddin Bobur
- C. Jurjoniy
- D. Maxmud Qoshg'ariy

**7. O'zbek axloqiy qadriyati ko'rsatilgan javobni belgilang.**

- A. Mahalla va oila
- B. Adolat va yaxshilik
- C. Mehnatsevarlik va saxovatlilik
- D. Burch va vijdon

**8. Hozirgi kunda inson qalbi va ongi uchun kurash olib borayotgan turli maqsadlardagi axloqiy poligonlar ichidagi eng xaflisini aniqlang.**

- A. "Kosmopolitizm"
- B. "Ommaviy madaniyat"
- C. "Gedonizm"
- D. "Evdemonizm"

### ETIKANING KATEGORIYALARI VA TAMOYILLARI

#### O'quv elementlari

1. Etika kategoriyalari
2. Axloqiy qadriyatlar, ularning o'ziga xos xususiyati

#### Tayanch so'z va iboralar

Vijdon, nomus, diyonat, o'z-o'zini anglash, sadoqat, haqiqat, insoniy vazifa, burch, or-nomus, oriyat, adolat, mas'uliyat, ozgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, go'zallik va xunuklik, sabr, farosat, kechirimlilik.

**Axloq kategoriyalari.** Jamiyat taraqqiyoti va inson kamoloti jarayonida axloqning barcha qirralari o'zaro bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi. Axloq inson hayotga qadam qo'yayotgan dastlabki davrdanoq shakllanib, uning kamolotiga zamin yaratuvchi ichki ruhiy omil bo'lib xizmat qiladi. Inson tarbiya ko'rib, muayyan odob va axloq me'yorlarini, ilmlarni egallaydi, mehnat qilib tajriba orttiradi, kasb-hunar sohibi bo'ladi, malaka orttiradi, o'z qobiliyati va iste'dodini biror yoki bir necha sohada to'la namoyon etish imkoniga ega bo'ladi. Axloq zaminida vijdon, burch, imon, qadr-qimmat, ornomus, ixlos shakllanadi.

Vijdon – etika kategoriyasi bo'lib, bu kategoriya shaxsning axloqiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qilishga, o'z-o'zini anglashga qobiliyatining oliv darajasini ifodalaydi. Vijdon kishining jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini tushunishi asosida qilingan ishlarga o'z-o'zicha baho berishini ham o'z ichiga oladi. Vijdon individning o'zining va o'zgalarning fikriga jamiyatning obyektiv ehtiyojlariga muvofiq ravishda bab-baravar tanqidiy ko'z bilan qaray olish layoqatini, shuningdek, kishining faqat o'z harakatlari uchun emas, balki tevarak-atrofda so-

dir bo'layotgan voqealar uchun ham javobgarligini nazarida tutadi.

Vijdon kishining ijtimoiy yo'sinda tarbiyalanadigan qobiлиyatidir. U kishining tarixiy kamoloti darajasi hamda kishining o'zi yashaydigan obyektiv sharoitdagi daxldorligi bilan belgilanadi. Jamiyat talablariga va uning taraqqiyotiga kishining faol javob ta'siri sifatida vijdon shaxsning faqat axloqiy jihatdan o'z-o'zini kamol toptirish ichki harakatlantiruvchi kuchigina emas, balki shu bilan birga uni voqelikka faolamaliy munosabatga undovchi kuch hamdir.

Vijdon o'z harakatlarining axloqiy ahamiyatini anglashning ratsional jihatida ham, emotsional kechinmalar tizimida ham yuz berishi mumkin. Vijdon barcha insoniy fazilatlarni tartibga solib turuvchi axloqiylik mezonidir.

Voiz Koshifiyning "Axloqiy Muxsiniy" asarida "Vijdoni, nomusi, diyonati bo'limgan kishi dunyoda bo'lgan hamma yomonlikni qilishga tayyordir. Yomonlik qilmagan, ya'ni yaxshi odam vijdonlidir" deb qayd etadi. Ma'rifikatparvar alloma Abdulla Avloniyning vijdon haqidagi quyidagi fikrlari masalani yana ham chuqurroq tushunishga imkon beradi: "Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan hissiyot, ya'ni tuyg'uni tuymakdan iborat quvvatni aytur. Biz hamma vaqt faol va harakatimizning yaxshi va yomonligini, foydali va zararligini vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon inson aqli va fikrining haqiqiy mezonidirkim, bu tarozi ila o'z kamchiliklarimizni o'lchab bilmak ila barobar, boshqalarning ham faol va harakatini sezurmiz. Agar ishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo'lsa, muhabbat qo'yur, agar qabohat va yomon ishlar bo'lsa, nafrat qilur. Biz janobi haqning amri (ma'rufi) va nahiyni (ta'qiqlarini) fikr va ruhimiz mana shu quvvati bilan vijdonimiz ila ayra bo'lurmiz"<sup>1</sup>.

Ingliz ruhshunosi Charlz Xarton: "O'z xulqi, xatti-harakatlari haqida fikr qiluvchi individ uchun yagona rahnomolik qiluvchi birdan bir tamoyil uning vijdonidir. Uning uchun vij-

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. O'san millat.-T., 1993.- B.92

don, bu – haqiqat, oxirgi instansiadir, uni o'zgartirish o'zini axloqiy jihatdan o'ldirish bilan barobar”<sup>1</sup> – deb yozadi.

Burch – axloqiy tushuncha bo'lib, u kishi zimmasiga vazifa belgilovchi tuyg'u hisoblanadi. Burch insoniy va ijtimoiy sifatlarni mujassam etishi bilan shaxsning axloqiy ongida «o'zini anglash» tushunchasini hosil qiladi. “Jamiyatimiz fuqarosi va davlat bir-biriga nisbatan bo'lgan huquqlari va burchlari bilan o'zaro bog'liqdirlar”<sup>2</sup>.

Burch tushunchasini axloqiy normalarga birinchi bo'lib yunon mutafakkiri Demokrit olib kirgan. U burchni inson hamkatining ichki motivi bilan bog'laydi va burch hissi insonni nojoyiz harakatlardan tiyilishida muhim o'rinn tutadi deydi.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida burchga quyidagi ta'rif berilgan: “Burch kishining biror shaxs, oila, jamoa, jamiyat, Vatan oldidagi axloqiy majburiyatini anglatadigan axloq kategoriyasidir”.

Burch shaxsni axloqiy jihatdan o'z insoniy vazifasini qat'iy bajarish ruhida voyaga yetkazadi. Qadimgi hind falsafasida burch haqida shunday deyiladi: “Senga baxt keltiradimi yoki baxtsizlik keltiradimi – burchingni ado et. Kim o'z burchini ado etsa va uning natijasida keladigan oqibatlarni xotirjam qarshi olsa, u qalban yuksakdir”<sup>3</sup>. Burch – insoniy vazifanining majmui. Insonlik vazifasini bajarishda shaxsiy manfaat tuyg'usi cheklanadi, burchni bajarish natijasida keladigan har qanday oqibatdan qoniqish hosil qilinadi.

Shaxsda burch sifatini hosil qilish uchun uch tushuncha muhim ahamiyatga ega. Bular: o'zini anglash, sadoqat va haqiqat. Zero, shaxsning o'zligini anglashi – muhim masala. Bu masala ilk bor yetti donishmanddan biri Xilom (er. avv. 596–528-yillar) tomonidan ilgari surilgan: «O'zingni bilgil,

<sup>1</sup> Кулли Ч.Х. Человеческая природа и социальный порядок. Дом интеллектуальной книги.-М.: Идея пресс, 2000.- С.262

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Т.: O'zbekiston, 2010. 19-modda. – B.7.

<sup>3</sup> Serjilo tafakkur durdonalaridan. – Т.: Navro'z, 2003. – B.11

shunda sen Xudoni hamda Koinotni bilasan»<sup>1</sup>. Buni shunday tushunish lozim: insonda butun borliqning sifatlari, xususiyatlari va xossalari mavjud, shu sababli inson o'z mohiyatini anglab yetishi bilan barcha mavjudotning sir-asrorini anglab yetadi. Bu g'oya asrlar davomida insonni butun olamning markazi sifatida ko'rish uchun asos bo'lib keldi. O'zini anglagan kishi o'z ahvoldidan kelib chiqib, o'zgalarni tushunadi. Demak, bugungi kunda shaxs o'zini anglashi bilan o'zining kim ekanligini, kimlarning avlodi ekanligini va ularga munosib bo'lish lozimligini biladi. Jamiyatimizda o'zini anglagan shaxs oilasi, xalqi, jamiyat va davlat oldidagi vazifalarini biladi va sidqidildan ado etadi.

Sadoqat burch xususiyatlaridan biri bo'lib, u kishining axloqiy yetuklikdagi darajasini belgilaydi. Sadoqat shaxsning o'z axloqiy xatti-harakati uchun javobgarlik hissidir. Burchning negizlaridan yana biri haqiqatdir. Haqiqat shaxs axloqida burch sifatini shakllantirishda axloqiy instinkt bo'lib xizmat qiladi.

Burch insonning va ijtimoiy sifatlarning mujassamlashuvi bilan shaxsning axloqiy ongida "o'zini anglash" tushunchasini hosil qiladi. U aynan axloqiy va huquqiy jihatdan shaxsda besh xususiyatni tarkib toptiradi:

- shaxsning o'z-o'zini anglashi;
- shaxsning o'zgalar manfaatini himoya qilishi;
- shaxsning o'z jamiyatini muhofaza qilishi;
- shaxsning davlat xizmatida bo'lishi;
- shaxsning umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishi.

Binobarin, burch – insoniy vazifaning majmui. Insonlik vazifasini bajarishda shaxsiy manfaat tuyg'usi cheklanadi, burchni bajarish natijasida keladigan har qanday oqibatdan qoniqish hosil qilinadi. Faylasuf Gegef: «Insonning axloqiy burchi o'z faoliyati va idroki vositasida erkinlikni qo'lga kiritishidir», – deganida haq edi. Bu o'rinda erkinlik tushunchasi shaxsning o'z insoniy vazifasini bajarib, zimmasidagi ma'naviy

<sup>1</sup> Serjilo tafakkur durdonalaridan. – T.: Navro'z, 2003. – B.29

yukdan xalos bo'lishni anglatadi. Shaxsning ma'naviy-ruhiy erkin bo'lishi, ya'ni uning halollik, poklik va nazokatilik holatiga yetishi uchun burchni bajarishi shart. O'zga axloqiy sifatlardan farqli o'laroq burchda qat'iylik va shartlilik mavjud. Burch bajarilishi shart, inson bunga majbur. Shu ma'noda, uning zid tushunchasi yo'q. Hech kim burchsiz bo'lmaydi: yo burchli bo'ladi yoki bu tushunchadan xoli etiladi.

Yaxshilik –har bir aqlli vujudda jo bo'lgan va inson yashaydigan sharoitga bog'liq bo'lmanan axloqiy qonunning buyurganlariga muvofiq keluvchi narsadan iborat. Arastu mazkur kategoriyaning mohiyatini chuqur ochib bergen: Yaxshilik o'z-o'zicha mavjud degan borliq kategoriyasiga, sifat va munosabat kategoriyasiga tegishlidir. Yaxshilik turli-tuman va unibitta g'oyaga bog'liq degan taqdirimizda ham, uning axloqqa hech qanday aloqasi bo'lmay, kishilar unga erisha olmasdilar. Axloq esa amaliy masalalarni hal etadi. Yaxshilik tushunchasi maqsad bilan bog'liq va u doim unga intiladi. Bu maqsad orqali boshqa maqsadga erishishga intilish bo'lmasligi kerak. Inson baxti faoliyatiga bog'liq. Yaxshilik jonning tug'ma sifati bo'lmay, balki xolis qilingan, ega bo'lingan narsadir va shuning uchun huzur – halovat barchanining umumiyligi maqsadidir.

Voiz Koshifiy quyidagi misrasida mazkur kategoriyaning mohiyatini aniq ochib bergen:

*Odam nomi yaxshilik bilan eslash tufayli boqiydir,  
Hayotlik ayyomining hosili yaxshi nom orttirishdir*

Koshifiy "Axloqi Muhsiniy" asarining uch bobini yaxshilik tushunchasini tushuntirishga bag'ishlangan. Yigirmanchi bob "Hayrat va yaxshi ishlar bayonida", o'ttiz sakkizinchil bob "Yaxshi birla suhbat tutmoq bayonida", qirqinchil bob "Tobelar va xizmatkorlar tarbiyati bayonida" yaxshilikning tabiatini, mazmuni, yaxshi xulq, yaxshi insonlar va yaxshi amallar masalalarini ochib bergen. "Yaxshilar birla ham suhbat va donolar birla hamnishin bo'lmoq saodat abadiy kimyosi va davlat daromadi rahnamosidur" deydi.

*“Yaxshilarning ziyoligiga o‘zungni ol,  
Poklarning mehrini ko‘nglungga sol.  
Har sifatkim, yaxi ul kishini qilur,  
Yaxshilarning suhbatidan to bilur”<sup>1</sup>.*

Yaxshilik odat singari faoliyat orqali erishiladigan sifatdir, yaxshilikning odatdan farqi shuki, odat maqsad ila shakllanmaydi, yaxshilikka maxsus ta’lim va ongli ravishda erishiladi. Insonning yaxshi bo‘lishi oqilona xatti-harakati, tarbiyasi va o‘z vazifasiga bo‘lgan munosabatida ko‘rinadi. Barcha yaxshiliklarni ikki turga bo‘lish mumkin. Dianoetika – jonning oqil qismi (donolik amaliyligi, izlanishligi) orqali bo‘ladi. Etik qismi jonning irodaga intilishi tufayli bo‘ladi<sup>2</sup>.

**Adolat kategoriyasi.** Ijtimoiy ravnaq butun inson jamiyatি murakkab, sermashaqqat tarixiy taraqqiyotning markaziy o‘qini tashkil etib kelgan bo‘lsa, adolat orzusi, armoni, adolatga intilib yashash hamisha ushbu ravnaqning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib xizmat qilgan. Bashariyat ma’naviy hayoti tarixining eng mo’tabar zarvaraqlari ham ayni adolat masalasiga, uni odamzod turmushida qaror toptirish muammolarini hal etish yo’llarini izlab topish masalalariga bag‘ishlangan. Mabodo, butun insoniyat sa’yi harakatlarining bosh mazmuni, ularning maqsad-muddaosini bir so‘z bilan ifoda etish zarur bo‘lsa, mazkur so‘z adolat tushunchasidan iborat bo‘lgan bo‘lur edi. U – adolatga erishishning birdan bir yo‘li, usuli, vositasi bilimda, aql-zakovatda, tafakkurda ekanligini barcha zamonlar daholari tomonidan e’tirof etilishidir.

“Navoiy asarlari lug‘ati” da adl (adolatga) shunday ta’rif beriladi: qadru- qimmatda bir- biri bilan barobar bo‘lgan ikki narsa yoki ikki odamning har biri; tuya ustida ikki kajavada o’tirgan ikki odamning har biri; monand, o‘xhash, teng. Adl – adolat, to‘g‘rilik, insof. Adlu- dod- adolat-insof<sup>3</sup> .

<sup>1</sup> Koshifiy. Axloq Muhsiniy, 20-bob. B.77

<sup>2</sup> G‘arb falsafasi. T.: O‘FMJ. 2004.-B.. 157–158.

<sup>3</sup> Navoiy asarlari lug‘ati. – T.: G. G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti. 1972. – B.30.

Falsafa qomusiy lug'atida adolatga shunday ta'rif beriladi: "Adolat inson mohiyati va uning dahlsiz huquqlarini muayyan darajadan tushinishga muvofiq keladigan burch to'g'risidagi tushunchadir. Adolat – axloqiy huquqiy shuningdek, sotsial – siyosiy ong kategoriyasidir, chunki u burchlilik nuqtayi nazаридан saqlab qolinishi yoki o'zgartirilishi lozim bo'lган ijtimoiy voqelikni baholaydi"<sup>1</sup>.

Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'atida "Adolat (arabcha odillik, to'g'rilik, hamma uchun barobar bo'lgan haqiqatning talab va tamoyillariga amal qilinishi) - insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g'oyasi, ma'naviyat, axloq va huquqning me'yoriy kategoriyalardan biri" deb ta'riflanadi.

Yuqoridagi ta'riflarga ko'ra "Adolat" tushunchasi o'zida tenglikning to'g'ri, haqiqiy va taqdirlashning zaruriy o'lchovligini ifodalaydi. Bu kategoriyaning boshqalardan farqi shundaki, u jamiyatdagi mavjud axloqiy munosabatlarni nazorat qilib turadi. Shuning uchun ham u baholovchi axloqiy kategoriya hisoblanadi.

Kunlardan bir kun Konfutsiy tog' yonidan aravada o'tib horardi. Qandaydir ayol qabr ustida dod solib yig'lardi. Konfutsiy hurmat yuzasidan aravaning old tomonidan engashib uning yig'isiga qulqoq soldi. So'ng o'z shogirdini ayolning huzuriga yubordi va u undan so'radi:

- Siz shunchalik qattiq kuyayotirsizki, birinchi marotaba qayg'u chekmayotirsiz, shekilli?
- Xuddi shunday, – javob berdi ayol. – Qachonlardir bu yerda yo'lbarsning changalidan qaynotam halok bo'lgan. So'ng esa bundan erim halok bo'ldi. Endi esa bundan o'g'lim halok bo'ldi.
- Nima uchun bu yerkarni tark etmaysiz? – so'radi Konfutsiy.
- Bu yerdaadolatsiz hokimiyat yo'q, – javob berdi ayol.
- Buni eslab qol, shogird, – dedi Konfutsiy. – Adolatsiz hokimiyat – yo'lbarsdan vahshiyroqdir.

<sup>1</sup> Filosofkaya ensiklopediya.-M., 1970.5-tom. -S. 119

Ushbu hikoyada adolat ijtimoiy va axloqiy zulmga qarshi kurashda hosil bo'ladigan talabni o'zida ifodalaydi.

Adolat – shaxs uchun ijtimoiy va umuminsoniy ma'nolarga ega eng muhim axloqiy sifat. Arastudan tortib Jon Rolgacha bo'lган faylasuflar shaxsnинг axloqiy yetukligida adolatning ahamiyati to'g'risida turlicha qarashiarni ilgari surishgan. Adolat odil bo'lishlik, ya'ni yomonliklardan, zulmdan tiyilish, o'zgalarga nisbatan nohaqlik qilmaslik, haqiqatparvar bo'lish kabi go'zal axloq ko'rinishidir. Shu boisdan ham adolat axloqshunoslikning asosiy kategoriyasi sifatida umuminsoniy qadriyat darajasida o'r ganiladi.

Aristotel' tomonidan aytilgan "adolat, bu – qalbning erishgan xossasi bo'lib, u tufayli odamlar adolatli xatti-harakatlarga qobiliyatli bo'ladilar va uning tufayli adolatli harakatlar qiladilar hamda adolatni hohlaydilar" degan hikmati butun insoniyat tarixi aslida adolatni anglash va ushbu adolatni qo'lga kiritish uchun kurash tarixidan iborat ekanligini isbotladi. U shubhasiz, juda haq edi. Zero, inson doimo o'zini erkin his qilishga, hur va mustaqil yashash, tahlikasiz turmush kechirishga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun insoniyat tarixinining turli davrlarda jahonning barcha mintaqalarida adolat uchun kurashning shaklan turlicha, mohiyatan o'xhash bo'lган, mustaqil, erkin va farovon hayot kechirishga intilish hodisalari mavjud bo'lган.

O'rta asr Sharqining buyuk faylasufi Abu Nasr Forobiy adolatning axloqiy jihatlariga e'tibor qaratgan. "Adolatlilik hammaga taalluqlidir, agar kishi o'zining hamma faoliyatlarida, boshqa birovlar bilan bo'lган munosabatlarida adolatli bo'lsa, zo'r fazilatdir. Boyliklarni taqsimlashdagi adolatlilik, o'z ulushini saqlashdagi adolatlilik bu adolatlilikning eng ommaviy ko'rinishlaridan biridir" va "Adolatlik, avvalo, shahar aholisining hammasiga tegishli bo'lган xayirli narsalarning to'g'ri taqsimlanishida va shu taqsimlangan boylikning to'la saqlanib qolishida ifodalananadi. Bu xayirli narsalar, boyliklar, salomatlik, hurmat, ehtirom, martabalar va shunga o'xhash boshqa narsalar bo'lib, bulardan har bir ki-

shi o'ziga yarasha bo'lagini olishi kerak, bulardan ko'p yoki oz olish adolatsizlikdir. Agar oz teksa u odamga nisbatan adolatsizlikdir, agar ko'p olsa, xalqqa, ya'ni boshqalarga nisbatan adolatsizlikdir. O'z ulushini olgan har bir kishi uni ehtiyyot qilib saqlashi kerak", "Inson faoliyatining adolatga yaqinligi yoki uzoqligi, uning xulqiga, yashagan jamiyatiga bog'liq. Agar unda yomonlik fikrlari ozroq bo'lsa, adolatga yaqin bo'ladi, agar ko'proq bo'lsa, adolatlikdan, insofdan uzoqroq bo'ladi"<sup>1</sup>.

Forobiy adolatga qobiliyatiga qarab taqsimlash va muhim masalalarda to'g'rilikka asoslanish hamda shartnomalarga so'diq qolish xos ekanligini ta'kidlaydi.

Yaxshilik va yomonlik, ayniqsa, adolat va adolatsizlikka yaqin turuvchi tushunchalardir. Yaxshilik va yomonlik iroda erkinligiga asoslanadi va faqat insonga xosdir. Yaxshilik insonning beshta ruhiy quvvatiga tegishlidir. Bular: aqliy nazariy, aqliy amaliy, intiluvchi, tasavvur va his qilish quvvatlaridir. Inson baxt-saodatni faqat aqliy nazariy quvvat orqali idrok qilib yetishadi. Alloma fikriga ko'ra adolat yaxshilik, donolik, saxiylik, shijoat va shunga o'xshash tushunchalar bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Ezgulik, yaxshilik va adolat bitta maqsadga, ya'ni baxt-saodatga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yaxshilik va adolatsiz ijtimoiy ideal va baxt-saodatga erishib bo'lsaydi<sup>2</sup>.

Abu Nasr Forobiy adolatni mehribonlik bilan bog'liq degan fikrni ilgari suradi. Allomaning talqinicha mehribonlik uch xil bo'ladi. Birinchisi, Xudoga bo'lgan mehribonlik, ikkinchisi, dunyoviy ishlarga mehr-muhabbat, uchinchisi esa, birinchisi bilan ikkinchisi o'tasidagi narsalarga bo'lgan mehr-muhabbatdir. Forobiy Allohma bo'lgan mehr-muxabbatni asosiy deb ataydi. Keyingisi "dunyoviy ishlarga bo'lgan munosabat, ya'ni saodatga erishuv haqidagi qarashlar tugallangan qarashlar

<sup>1</sup> Forobiy. Risolalar. -T.: Fan, 1975.-B.115-116,128.

<sup>2</sup> Аль-Фараби. Гражданская политика. Социально-этические трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1975.С.114

deb atalib, ularga bo'lgan mehr-muhabbat tugallangan mehr-muhabbat deb ataladi”<sup>1</sup>

O'z davrida Jaloliddin Davoniy: «Adolat butun kamolot majmuyi bo'lsa, yomonlik uning aksi, ya'ni butun kamchiliklar majmuyidir»<sup>2</sup>, degan edi. Adolat shaxsda aqlilik, tenglik va mardlik xususiyatlarini tarkib toptiradi. Faylasuf olim Jon Rolz ta'kidlaganidek, adolatli shaxs o'z faoliyatida muammolar yechimini topishi, og'ir paytda o'zgalarga namura bo'lishi, insoniy fazilatlar bilan ularga ta'sir ko'rsatishi kerak.

Xusayin Voiz Koshifiy adolatni insoniy fazilat sifatida ifodalaydi. “Adolatning ma'nisi raiyat haqida barobarlik ko'zlamoq bo'lurkim to raoyo yo'l tobmag'ay adl aybidur-kim mulkka oroyish berur va shuoyidurkim aning nuri birla qorong'uli yorur va haq subhonahu taolo bandalarini adl sifatida buyurur”<sup>3</sup>

Adolat shaxsning o'zi va o'zgalar uchun manfaat keltiradigan axloqiy sifatga ega bo'lishini anglatib, uning eng muhim komponentlaridan biri aql hisoblanadi. Zero, aql insonni o'zga mavjudotlardan ajratgan asosiy xususiyatdir. Sharq mutafakkirlari insonda aqlni o'stirishda ikki masalaga e'tibor qaratishgan. Aql ikki xil bo'ladi: tabiiy va kasbiy. Tabiiy aql tug'ma bo'ladi, kasbiy aql esa tajriba vositasida hosil qilinadi<sup>4</sup>. Buni shunday tushunmoq kerak: insonda aql tug'ma bo'ladi, shu sababli rivojlanib, mukammallahib borish xususiyatiga ega. Tarbiya vositasida aql tuyg'usi takomillashib boradi, yaxshi tarbiya olgan shaxsda aql kamolotga yetadi, tarbiyasiz qolgan kishi aql tuyg'usining dastlabki bosqichida qolib ketadi. Inson tug'ma aql tuyg'usini ilm-u hunar va kasbi bilan kamolotga yetkazadi.

<sup>1</sup> Forobiy. Risolalar. T.: Fan, 1975.-B.115

<sup>2</sup> Sharq donishmandlari hikmatlari. / Tuzuvchi Ahad Tursun. – T.: Sharq, 2006. – B.110

<sup>3</sup> Koshifiy. Axloqi Muhsiniy. 15-bob. –B. 60.

<sup>4</sup> Ibn Muqaffa. Muqaddima. // Kalila va Dimna. – T.: G'afur G'ulom, 1977. – B.26

Adolatning ikkinchi komponenti tenglik, ya'ni insonning o'zgalar huquqini hisobga olishidir. Bunda inson o'z haq-huquqining o'zgalarda ham mavjud ekanligini his qiladi, umumiy manfaat uchun haq-huquqlarini me'yoriy darajaga keltiradi. Bu masala inson sha'ni bilan bog'liq. Unga ko'ra, inson tenglik tamoyiliga amal qilishi bilan o'z sha'ni va ornomusini himoya qiladi. Chunki tenglik hukm surgan joyda sotqinlik, xoinlik kabi yolg'on ehtiroslar bo'lmaydi. Sharq faylasuflari tenglik axloqiy xususiyatiga amal qilishda odamlar ikki toifaga bo'linishini uqtiradi:

1. Hushyor odamlar. Bular xavf yuz bermasligi uchun o'zgalar haqiga rioya qiladilar.
2. Tadbirsiz odamlar. Bular o'z haq-huquqlariga mahliyo bo'lib, chorasiz qoladilar.

Adolatning uchinchi komponenti mardlik. Shu bois ham o'z davrida Sa'diy Sheroziy mardlik adolatli bo'lishdadir deb ta'kidlagan. Mardlik insonning xatti-harakatida jasoratlilik tuyg'usining namoyon bo'lishidir. Mardlik insonni o'zgalar manfaati yo'lida o'z xatti-harakatlari bilan fidoyilik ko'rsatishida namoyon bo'ladi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mardlik xususiyatiga ega kishilarni ma'naviy jasorat sohiblari deb ataydi.

Haqiqatan ham, mardlik insonning o'z tuyg'ularidan g'olib kelib, o'zgalar mushkulini oson qilishga yo'naltirilgan ma'naviy quvvatdir. Sharq faylasuflarining fikricha, mard insonlar uch narsaga intiladi: yaxshi hayot kechirmoq, odamlar orasida yaxshi mavqega ega bo'lmoq, savobli ishlar qilmoq. Buning uchun ular to'rt vositaga tayanadi: halol mehnat bilan boylik to'playdi, halol boylikni qanday va qayerga sarflashni biladi, isrofgarchilikdan qochadi, odamlarga yordam berish bilan zavqlanadi.

Rivoyat qilishlaricha, podshoh Jamshid shikorga ketayotsa, oldidan jannatsimon bir bog' chiqibdi. Yuz xil meva g'arq pishib yotgan emish. Shoh bog'bondan ichishga suv so'rabdi. Bog'bon uyiga kirib bir anorni siqqan ekan, piyola to'la sharbat tushibdi. Keltirib Jamshidga beribdi. U bir simirib piyolani bo'shatibdi.

– Otaxon, bu bog' kimga qaraydi? – so'rabdi shohanshoh.  
– Hech kimga. Men parvarish qilaman, mevasidan el, o'tgan-ketgan musofirlar bahramand bo'ladi, – javob beribdi chol.

– Men Jamshidshoh bo'laman. Shuncha katta bog'ni bi o'zingiz yeb yotmasdan, har yili podsholik xazinasiga yuz tangadan jarima to'lab turing, – debdida yo'lida davom etibdi shoh.

Jamshid ovdan qaytishida yana boqqa kitib, sharbat so'rabdi. Bog'bon o'nta anorni siqqan ekan, bir qultumcha sharbat chiqibdi, xolos. Shoh bog'bonning hayallagani sababini so'rabdi.

– Adl bilan el farovon, zulm bilan yurt xarob deganlar. Sendan zulm zohir bo'lgani uchun o'nta anorni siqsam ham yarim piyola suv chiqmadi, – debdi bog'bon.

Jamshid qilmishidan pushaymon bo'lib, uni jarimadan ozod qilibdi<sup>1</sup>.

Adolat, burch, mas'uliyat kabi axloqiy kategoriyalar mohiyatiga ko'ra huquqiy funksiyalarni bajarish xarakteriga ham ega. Adolat odil bo'lish, ya'ni yomonliklardan, zulmdan tiyilish, o'zgalarga nisbatan nohaqlik qilmaslik, haqiqatparvar bo'lish kabi xususiyatlarni tarkib toptiradi. Adolatning yana bir muhim xususiyati tenglik, ya'ni "... Insonning o'zgalar huquqini hisobga olishidir"<sup>2</sup>.

Adolatning zidi jaholatdir. Jaholat insonda mol-u dunyoga o'chlik, o'z nafsiqa qullik, shahvatparastlik, amalparastlik, badbaxtlik va razolatni hosil qiladi<sup>3</sup>. Jaholatning oldini oluvchi, himoya qiluvchi vosita adolatdir. Ota-bobolarimiz: "Adolatning bitta surati bor, zulm, jaholatning surati mingta", – deb bejiz aytishmagan. Chunki adolat himoya qilinmasa, uning uchun kurashilmasa, sog'lom raqobat muhiti

<sup>1</sup> Homidiy H. Qo'hna Sharq darg' alari. T.: Sharq, 1999.-B.3.

<sup>2</sup> Qarang: Novaya filosofskaya ensiklopediya. 4-x t. – M.: Mysl, 2001. – S. 180.

<sup>3</sup> Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. – T.: YOzuvchi, 1993. – B.162

yo'qoladi. Xalqning ahvoli adolat bilan yaxshilansa, jaholat bilan yomonlashadi. Shuning uchun ham Sohibqiron Amir Temur "Kuch adolatdadir" degan shiorni diliga jo qilgan.

Demak, adolat va burch kategoriyasi shaxsning axloqiy shakllanishi hamda faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Adolat va burchga ega shaxsga har bir jamiyatda zaruriyat seziladi. Hozirgi kunda shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotida adolat va burch fazilati muhim o'rin tutib, u ijtimoiy hayotda kechayotgan jarayonni to'g'ri anglash imkonini beradi.

Mas'uliyat adolatli bo'lishning mezoni sifatida namoyon bo'ladi. Chunki mas'uliyat ma'naviy xatti-harakat asosida shaxsda uch sifatni hosil qiladi: vujud pokligi, mustahkam iroda, maqbul fe'l-atvor.

Mohiyatiga ko'ra huquq ham o'z o'rnida mas'uliyat hamdir. Huquq mas'uliyatsiz, mas'uliyat esa huquqsiz yashay olmaydi. Bularning birini ikkinchisidan ajratish mumkin emas. Chunki huquqsiz mas'uliyat qullik, tobelik bo'lsa, mas'uliyatsiz huquq boshboshdoqlikdir. Shuning uchun ham huquq deganda mas'uliyatni, mas'uliyat deganda huquqni tushunish kerak. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, huquq chinakamiga huquq darajasiga ko'tarilmog'i uchun erkinlikka tayanmog'i lozim. Aniqroq qilib aytganda, erkinlik va mas'uliyat biri ikkinchisi bilan qo'shilsa, biri ikkinchisi bilan qorishib aralashib ketsa, o'shanda chinakamiga huquq borlig'i vujudga keladi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kimki hech qanday huquqqa ega bo'lmasa, unda hech qanday mas'uliyat bo'lmaydi va aksincha<sup>1</sup>.

Mazkur holatni nemis faylasufi F. V. Gegel oiladagi ota mas'uliyati va huquqi misolida izohlashga harakat qiladi. "Ota bo'lish, – deb yozadi mutafakkir, – oila a'zolari oldidagi mas'uliyatdir. Ushbu mas'uliyat nafaqat bolalarni tinglash,

<sup>1</sup> CHoriev A. Inson falsafasi. II. Mustaqil shaxs. – T.: CHinor ERK, 2002. –B. 172

ularga qulq solish, balki ularni erkin kishilar qilib tarbiyalash huquqi otada mavjud ekanligidan ham dalolat beradi”<sup>1</sup>.

Demak, mas’uliyat va huquq inson faoliyatida amal qiluvchi uyg'un tushunchalardir. Garchi huquq ijtimoiy, mulkiy, siyosiy va, aytish mumkinki, maskuraviy jarayonlar hosilasi bo'lsa-da, u jamiyatdag'i har bir fuqaroning ongi va qalbidan o'tgandan so'nggina muayyan mazmunga ega bo'lib, davlat va jamiyat hayotida muhim o'rinni tuta boshlaydi. Ayniqsa, respublikamiz kelajagini ta'minlovchi yoshlarning huquqiy saviyasini yuksaltirish o'z xatti-harakatlari, faoliyatlarini ehtiroslar yoki istaklarga erk berish asosida emas, balki munosabat asosida yo'lga qo'yish g'oyat muhimdir.

Jamiyatning taraqqiyot bilan doimiy munosabatini ushlab turuvchi, insonning o'z-o'zini anglab, har bir harakatini ma'naviy faoliyatga muvofiqlashtiruvchi eng muhim va umumiy xususiyat – bu uning faolligidir.

Shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglash muammolari uning faoliyi, u yoki bu faoliyat turlaridagi ishtiroki va uni uddalashi kabi bir-biri bilan aloqador sifatlari orqali bayon etiladi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov qayd etganidek, “Har kuni, har soatda fidoyi bo'lish, o'zini tomchi va tomchi, zarrama-zarra buyuk maqsadlar sari charchamay, toliqmay, tinimsiz safarbar etib borish, bu fazilatni doimiy, kundalik faoliyat mezoniga aylantirish – haqiqiy qahramonlik, aslida, mana shu”<sup>2</sup>.

Bugungi rivojlanish jarayonida shaxsning adolat, burch va mas'uliyat kabi axloqiy sifatlarning sohibiga aylanishi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Chunki O'zbekiston jamiyatining hozirgi taraqqiyot bosqichida ikki jihat ko'zga tashlanmoqda: birinchisi, jamiyatning ma'naviy-axloqiy muhit shaxsga keng imkoniyatlar berayotganligi; ikkinchisi, shaxs-

<sup>1</sup> Гегель Г. Ф. Сочинения. Том 3. – М., 1956. – С. 294.72

<sup>2</sup> Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.165

ning o'z faoliyati bilan jamiyat ma'naviy-axloqiy muhitiga in'sir o'tkazayotganligi.

Ma'lumki, odamning asosiy qadri mehnat va unga munobbat bilan belgilanadi. Jamiyat va davlat tomonidan odam mehnatiga beriladigan munosib baho sotsial adolatning umalda namoyon bo'lishi, axloqning barqaror tus olish omillidir. Demak, shaxs va jamiyat takomilida o'zaro uyg'unlik yo'nalishi mavjud. Biroq bu o'rinda shaxsnинг eng muhim axloqiy sifatlariga ega bo'lishi hamon asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi shaxs axloqiy kategoriyalarning adolat, burch va mas'uliyat sifatlarisiz komil inson bo'la olmaydi. Aslida, bu sifatlarda ijtimoiy ma'no nisbatan ustuvor. Lekin ularning zamirida ma'naviy-axloqiy baholash elementi ilk rejada turadi.

Inson nimaga e'tiqod qilayotganini, nimaga ishonayotganini, nimaga intilayotganini, xulq-atvori va vijdonni nima-ga moslashtirish lozimligini anglab yetishi va bilishi lozim. Bu uning ixlosida ko'rindi.

Ixlos kishining ijtimoiy voqelikdagi hodisa jarayonlarga munosabati, qiziqishi, ishtiyobi, ishonchi negizida shakllanadigan, imoni, e'tiqodi, diyonati asosida takomillashib borib faoliyatga yo'nalish beruvchi botiniy tuyg'u, intilish, maqsadlar mujassamidir.

E'tiqod insonning xulq-atvori va xatti-harakatining birligini ifodalovchi integrativ tushunchadir. O'z navbatida e'tiqod inson xatti-harakatining yo'nalishini belgilovchi asosiy ko'rsatkichdir. E'tiqodning takomili – imonning basalomatligi bilan bog'liq. Imon-e'tiqod axloqiy qadriyat sifatida insonni turli hayot qiyinchiliklariga duch kelganda ham o'z insoniyigini saqlab qolishda, qiyinchiliklarni yengishda kuch baxshida etadi, uni ruhiy tushkunlikdan saqlaydi.

Etiqod muayyan falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy g'oyalari va qarashlarning inson ongiga singib, uning tafakkur uslubi va faoliyatiga yo'nalish beruvchi mezonga aylanishi hamdir. Har qanday ijtimoiy g'oya, axloq-odob tizimi inson tomonidan muayyan maqsadlar va ehtiyojlar bi-

Jan bog'liq ravishda anglanilib, ongiga chuqur singib, uning faoliyatiga maqsad va yo'naliш beradigan ma'naviy zamin bo'lgandagina e'tiqodiga aylanadi. Etiqod biror ishni amalga oshirish yoki maqsadlar tizimini aniqlashda kishiga ishonch, umid baxsh etadi.<sup>1</sup>

Ixlos bo'limgan joyda e'tiqod ham bo'lmaydi. E'tiqod milliy va umuminsoniy qadriyatlarga inson aynan ixlos qo'yish vositasida bog'lanadi, uning sharofati bilan hayotiylashadi. Ixlos tufayli e'tiqod aqliy hodisadan ko'ngil hodisasiga aylanadi. E'tiqod, shuningdek, ixlos orqali xoslashgan (individual) shakl oladi, muayyan shaxsning etiqodiga aylanadi. Ixlos ilm va ishonch kabi e'tiqodning uzviy tarkibiy qismidir.

Ixlos insonda shakllanayotgan muayyan qiziqishni o'zida aks ettiradi. Qiziqishning ixlosga aylanishi murakkab amaliyruhiy sinovlar orqali yuz beradi hamda bevosita o'sha kishining manfaat va maqsadlarini ham o'zida mujassamlashtiradi. Demak, ixlos shaxsda, avvalo ehtiyoj, qolaversa, tinimsiz mehnat, mashaqqatlarga chidamlilik, iroda hamda oldiga qo'ygan maqsadga erishishdagi qatiylik asosida shakllanadi.

Har sohada halollikni ustuvor bilish - ixlos shakllanishini ma'naviy-ruhiy asosini tashkil etadi. Aynan halollik insoniy fazilat sifatida ixlosning shakllanishi va takomilida muhim o'rinn tutadi.

Ixlosni bir qator kategorial tushunchalarga: insonning insonga ixlosi, do'stga ixlos, ustozga ixlos, ilmga ixlos, kasbkorga, xunarga ixlos, san'atga ixlos, dinga ixlos, tadbirkorlikka ixlos kabi turlarga ajratish mumkin.

Ma'rifatparvar mutafakkir Muhammad Rizo Ogahiyning qarashlarida ilmga ixlos ulug'langan:

*Keldi ashobi jahon avsofi g'aflat mujibi,  
Ne uchun kim uyqu hosil bo'lg'usi afsonadan.  
Sidqu ixlos o'lsa kimda jam'i o'lur hosil murod,*

<sup>1</sup> Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari.-T.: Universitet, 1998.-B.56.

*Kim tug'or mundog' o'g'il andog' atou onadan.  
Talab yo'lida aylar kishida bo'lsa gar ixlos,  
Murodu manzilig'a bo'lg'usidir rahbari ixlos,  
Komil axli aro albatta tobg'ay rutbai oliy  
Maoniy kasbida har kimsakim qildi hunarga ixlos.  
Etsang ixlosdin bir sidq ajab ermas<sup>11</sup>.*

Yuqoridagi fikrlarda Ogahiy kishida ixlos bo'lsa, u o'zining murod- maqsadiga erishishi uchun katta imkoniyatlarga ega bo'lishini alohida uqtiradi.

Islom ilmi va ma'naviyatining mashhur namoyondasi So'fi Ollohyor ilmu toliblarning ilmgaga bo'lgan ixlosini ulug'lar ekan, ayrim hollarda ana shunday ixlosmand muridlar yetarli emasligi uni tashvishlantirgan.

*Topilganda muningdek lujjai xos  
Qani ixlosi ko'p himmatli g'ovvos,  
Cho'mib olg'ay ilmgaga duru maqsud,  
Va gar na, qo'l solib qochmoq nechuk sud<sup>2</sup>.*

Ixlosi murid avval ilm daryosiga cho'mib maqsud injusini olur, shundan keyingina o'zini ko'ra. Chunki shayxning o'zigagina qo'l berib, majlisida turmay qochib ketmoqdan foyda yo'qdir, shunday ekan, majlisda o'tirishda davom qil, undan so'ng, yetilib kamol toparsan. Demak, insonning kamolot yo'li o'z ustoziga, ilm va hunarga ixlos qo'yishi bilan takomilga yetadi. Ilm-ma'rifatga ixlosmandlik mashhur mutafakkirlarimizning hayoti va ijodining asosiy mezoni bo'lgan.

Ixlosning mukammal bo'lishligida ibrat alohida o'rinni tutadi Chunki, fe'l-atvorni faqat pand-nasihat, dashnom, ma'ruza shakllantirmaydi, uni asosan munosabat va ibrat shakllantiradi.

<sup>1</sup> Ogahiy. Asarlar. – II-jild. – T., 1972. – B. 267.

<sup>2</sup> Risolai Aziza" – "Sabot ul - ojizm" shahri. – T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000. –B. 244-245

“Boburning bir harbiy yurishi paytida qattiq sovuq edi. Sovuq shunday zo'r ediki, hatto uning qo'shinlaridan bir necha kishi sovuqdan o'ladi. Shunda Bobur anhorning muzium sindirib, 16 marta suvga shung'iydi. Boburning bunday jasorati tarbiya berish usuligina emas, balki tarbiya vositasi ham edi. Shuning uchun bayon etilgan voqeа kutilgan natijani berdi. Bobur qo'shinida tetiklik, quvnoqlik qaror topadi. Sovuqdan qo'rqiб, harbiy yurishdan bosh tortish kabi holatlarga chek qo'yiladi. Olg'a intilish kuchaydi<sup>1</sup>.

Keltirilgan misolda ibratni inson tarbiyasiga ta'sirini muayyan bir qirrasi, ya'ni insonni inson orqali tarbiyalash o'z aksini topgan.

**Axloqiy qadriyatlar, ularning o'ziga xos xususiyati.** Axloqiy qadriyatlar insoniy fazilat va xislatlar uyg'unligini o'zida mujassamlashtirgan, jamiyatdagi ijtimoiy tartiblar, huquq, odob normalarini anglash, unga rioya qilish hamda qadrlash asosida takomillashib boradigan umuminsoniy fazilatning ham fikriy, ham amaliy me'yorlari majmuidir.

Axloqiy fazilatlar tabiatini teran tahlil qilgan Arastu fikricha, axloqiy fazilat ruhning holati bo'la olmaydi, uni insonlarga tabiatning o'zi bermaydi, balki tabiat fazilatli bo'lishning imkoniyatlarini yaratadi, xolos. Barcha axloqiy fazilatlar – adolat, do'stlik, muhabbat, mardlik, mo'tadillik, sahiylik, sulhparvarlik, xushfe'lllik va hokazolar faqat inson faoliyatida namoyon bo'ladi. Axloqiy fazilat – faoliyat, xattiharakat demakdir. Adolatli ishlarni bunyod qilish bilan odam adolatli bo'lib boradi, mardona harakat bilan mard bo'ladi. Odam jamiyatda yashagani sababli uning axloqiy fazilatları hech qachon sof, xolis holda namoyon bo'lmaydi, balki faqat ijtimoiy faoliyatdagina amalga oshadi. Shuning uchun barcha axloqiy fazilatlar – ijtimoiydir<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Mirzaev I. Bobur marifati.-T.: O'qituvchi, 1996.-B.67

<sup>2</sup> Qarang: Sharq falsafasi qadriyatları va ularning O'zbekiston manaviy hayotidagi o'mi. T.: TDSHI, 2009.-B.129.

Har qanday ma'naviy axloqiy yetuklik kishidagi o'ziga xos axloqiy fazilatlar va xususiyatlар mushtarakligi asosida ilg'ab olinadi. Abu Nasr Forobiy bu xususda shunday yozadi: "Fazilat muayyan bir mantiqiy mazmunda ifodalangan mavhum tushunchagini emas, balki odamning go'zallikka, yaxshilikka erishishi uchun qilinadigan faoliyati va xattiharakatlarining aniq ifodasi hisoblanadi"<sup>1</sup>. Allomaning fikricha, odamni yaxshi ishlarni qilishga va go'zal xulqlar sohibi bo'lishga davat etuvchi ichki (axloqiy) sifatlar fazilatlar deb ataladi.

Xislat kabi fazilat ham ijtimoiylik va tarbiya mahsulidir, ammo fazilatning xislatdan farq qiluvchi jihatlari bor. Fazilat nafaqat ijtimoiylik, balki tarixiylikni ham o'zida mu-jassamlashtirib, har bir davrda kishilar tomonidan axloqiy fazilatlarga umuman bir xil talab qo'yilgan bo'lsa-da, ayrim hollarda axloqiy fazilatlar takomili kishilarning hayotiy tajribasi, bilim saviyasi, e'tiqodi nuqtayi nazaridan turfa xillik ham kasb etadi. Masalan, tasavvuf namoyandalari mashaqqat, riyozatni inson fazilatlarini takomillashtiruvchi asos deb bilganlar.

O'zbek xalqi asrlar davomida axloqiy fazilatlarini shakllantirib borgan. "Xalqimiz xarakterida chuqur ildiz otgan qat'iyat va o'ziga mustahkam ishonch, boshqalar dardiga hamdardlik, o'zga xalqlar taqdiriga chuqur ehtirom bilan yondashish, adolatparvarlik, halollik singari fazilatlar, jangavorlik va mardlik, vatanparvarlik, e'tiqod qat'iyligi, so'z va ish birligiga rioya qilish, lafz halolligi kabi xislatlar shubhasiz, xalqimiz tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan.

Har bir narsaga yaxshi niyat bilan umid bog'lash, yomonlikning oqibatidan ham yaxshilik bo'lishiga umid bilan yashash – o'zbek mentalitetning noyob durdonasi. O'zbek xalqi mentalitetining yagona bir jihat – sabrlilik va yaxshi niyatdir, siyosiy, diniy, madaniy bag'rikenglik o'zbek xalqining o'ziga

<sup>1</sup> Фараби Абу Наср. Социально-этические трактаты.-Алма-ата. 1975.-С.35.

xos fazilatlaridan biri hisoblanadi"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, L.Levitin qayd etganidek: "Yaratganning o'zi o'zbeklarga alohida ja-sorat va matonat ato etgan. Or-nomus talablari kishini o'zini qurbon qilishga majbur qiladigan xatarli vaziyatlarda ularga teng keladigani topilmaydi.

Hamdardlik, o'zaro yordam tuyg'usi o'zbeklarning qon-qoniga singib ketgan; o'zbeklar madad istab kelgan odamni balo, ofat oldida tanho qoldirmaydilar. Yurtdoshlarimiz Ik-kinchi jahon urushi yillarida o'z tuprog'idan urush tufayli surgun bo'lgan yuz minglab odamlarga boshpana bergen, issiq – sovug'idan xabar olgan, qornini to'yg'azgan O'zbekiston o'z qalbining buyukligini butun dunyoga namoyish qildi"<sup>2</sup>.

Darhaqiqat, inson axloqli yoki axloqsiz bo'lib tug'ilmaydi. Kishilar tayyor sifatlar, ko'nikmalar, fazilatlar va illatlar bilan dunyoga kelmaydi. Ular aslida hayotda shaxsiy va o'zgalar tajribasi, ajodolar an'analar, ta'llim-tarbiya natijasida shakllanadi va muayyan ijtimoiy mavqega erishadi. Ta'llim-tarbiya bilan kishilar ta'siri ostida ijobiy axloqiy fazilatlarni o'zida shakllantiradi yoki yomon sifatlar, xususiyatlar sohibiga aylanadi<sup>3</sup>. Tarbiyaning asosini ta'llim, ya'ni oldingi avlod tomonidan to'plab kelgan bilimlar, madaniy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillarni yoshlar ongiga singdirish jarayoni tashkil qiladi.

Insonning axloqiy fazilatlari haqida bir qancha Hadis-larda rivoyat qilingan, jumladan: "Nabiyy sallolohu alayhi vasallam: "Har bir musulmon sadaqa bermog'i lozimdir", -deb aytdilar. Shunda odamlar: "Agar sadaqa qilgulik narsa topilmasachi?" – deb so'rashdi. Janob Rasululloh: "Qo'llari

<sup>1</sup> Murtozaeva R.X. YOshlar va o'zbek mentaliteti xususiyatlari. SHaxs barkamolligi: axloqiy- estetik jihatlar. LSA – YAponiya hamkorlik agentligining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya materialari. Toshkent: 2012. – B. 12.

<sup>2</sup> Левитин Л., Карлайл Д.Ислом Каримов янги Ўзбекистон Президенти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б. 43.

<sup>3</sup> Ibn Sino. Tayr qissasi. O'zbek mumtoz adabiyoti namunałari. I-jild. T.: Fan, 2003.- B. 115-119

bilan mehnat qilib, o'zi ham manfaatlansin, sadaqa ham bersin!” – dedilar. Odamlar: “Agar ishlashga qurbi kelmasa yokim ishlamasa ne qilg'ay?” – deyishdi. Janob Rasululloh: “Nochor va xojatmand kishilarga madad bersin!” – dedilar. Odamlar: “Bunga ham qodir bo'lmasachi?” – deyishdi. Janob Rasululloh: “Boshqalarni yaxshilikka chorlasin!” dedilar. Odamlar: “Bunga ham qodir bo'lmasachi?” –deyishdi. Janob Rasululloh: “Yomonlikdan o'zini tiysin, o'sha uning uchun sadaqadir!” –deb javob qildilar”. Janob Rasululloh: “yo Oysha, qachon mening badxulq bo'lganimni ko'rgansan?! Qiyomat kunida Alloh nazdida eng yomon banda – odamlar yomonligidan hazar qilib qochadigan kishidir”, -dedilar<sup>1</sup>. (Bu o'rinda mantiq shundan iboratki odamlar yomonligidan hazar qilib qochadigan kishilar toifasiga kirib qolmaslik uchun o'shanday toifadagi kishilarga ham yaxshi muomala qilmoq lozimligi aytilmoqda).

Forobiy nuqtayi nazariga ko'ra baxt-saodatga erishish lu muvozanat va barqarorlik nisbati hamda komillik namunasidir. Insonning ma'naviy qiyofasida muvozanat buzilmay, barqaror bo'lsa, u saodatga erishadi. “Har bir mavjudod o'ziga xos bo'lgan martaba, eng yuksak kamolotga erishish uchun bu olamga kelgan. Insonga xos bo'lgan bu kamolotning nomi yetuk baxt-saodat deb ataladi. Bu baxt-saodat shu yuksak kamolotga erishish yo'lida bo'lgan har turli ju'ziy narsalarni o'rganishni taqozo qiladi. Ya'ni kasbhunarni egallahsga va kamolotga intilgan haqiqiy fazilat egalaridir<sup>2</sup>. Forobiy komil insonning quyidagi muhim xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi:

Farosat - aql ko'zi bilan ko'rish, voqeа - hodisalarning sabablarini mushohada etib, haqiqatni anglashdir. Husayn Voiz Koshifiyning yozishicha: “Farosatning lug'aviy ma'nosi aning

<sup>1</sup> Imam al Buxoriy. Al-jomi' as-sahih. – T.: “Qomuslar bosh tahririysi”, 1992.- B.89-90-92

<sup>2</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq mesrosi nashriyoti. 1993.-B.186.

yaxshi va yomonni ko'rib, tanimoq bo'lur. Farosat hukumat ishini ulug' shartidir”<sup>1</sup>.

Rivoyat qilishlaricha, hazrat Sulaymonning oldiga kelgan ikki ayol bir chaqaloqni talashib, da'vo qilib, har ikkisi “Bu mening farzandim”, - deydiilar. Buni isbot qilish mumkin emas edi. Sulaymon alayhissalom buyurdiki: «Bu go'dakni qilich bilan ikkiga bo'linglar, bir qismini bunisi, bir qismini esa mana bunisi olsin», - dedi. Qilich keltirdilar. Bu ikki ayoldan birisi betoqat bo'lib, ko'p yig'ladi va aytdiki: “Men o'z haqimdin kechdim, bu go'dakni o'ldirmangizlar”. Lekin ikkinchi ayolda hech qanday o'zgarish bo'lmadi. Sulaymon Payg'ambar buyurdiki: “Go'dakni bu betoqat bo'lgan ayolga beringlar, chunki farosat taqozo qiladurki, onasi ul bo'lgaykim, shafqati jo'sh qildi va o'ldirmoqqa rizosi bo'lmadi”<sup>2</sup>.

Rivoyatlarga ko'ra bir kecha Xorun ar-Rashid bir tush ko'ribdi. Tushida og'zidan barcha tishlari to'kilgan mish. Ta'bi xira bo'lgan hukmdor barcha tushni ta'bir qiluvchilarni chaqiribdi va tushini aytibdi. Ular tishlar to'kilishi qorindoshlar o'lishidan darak, sizdan boshqa kishi qolmaydi deb tush ta'bireni qilishibdi. Qattiq g'azablangan shoh ularga yuz tayoq urishni buyuribdi.

Bu holatni kuzatib turgan yosh tush ta'birschisi o'z fikrini aytishga izn so'rabdi. Shoh ruxsati bilan u shunday debdi: Ey shohim sizni umringiz barcha qorindoshlariningizdan uzoq bo'ladi debdi.

Shoh bu javobdan xursand bo'lib, uni mukofotlabdi.

Mazkur rivoyatda tush ta'biri bir xil ma'noni ifodalagan bo'lsa-da, yosh ta'biring farosati tufayli u boshqa yo'sinda izohlangan.

Sabrning ma'nosи arabchada achchiq, chidam, bardoshni anglatib, oshiqmasdan kutish yoki o'zini tiya olish, toqat, chidam-bardosh, iroda va qanoat qilish manosini anglatadi.

<sup>1</sup> Mahmudov R. Degonimning ulusg'a marg'ub et. -T.: O'zbekiston, 1992.- B.78.

<sup>2</sup> Hadis. Al-jomi as-sahih. -T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997. B.438.

Sabr kishilarning turli-tuman ziddiyatli voqeal-hodisalarga bardosh qila olishini ham ifodalaydi<sup>1</sup>.

Sabr g'azab va nafratni muxabbatga, kibrni kamtarlikka, yomonlikni yaxshilikka aylantira oluvchi qudratli kuchdir. Donishmandlar sabrning mevasi rohat, kamtarlikning mevasi muhabbat deydilar. Sabrli kishi o'zgalar baxtiyu boyligini ko'rib xasad qilmaydi, mayuslik sahrosiga yo'l olmaydi.

*Buyuk alloma Nizomiy Ganjaviy:  
Sabr qilsang agar sabrdan beshak,  
Davlating ko'payar, bunga qilma shak.  
Sabringni qilmagil sust ila malol,  
Oxista yor bo'lar baxt ila iqbol!  
Sabrni o'zingga ayla-yu shior,  
Va sabr yo'lida turgil barqaror.*

Sabr insoniy fazilatlardan biri bo'lib, hayotda yuzaga keladigan qiyinchilik va muammolarni vazminlik bilan qarshi olish, ya'ni toqatlilik va qanoatdir. Sabrning asosida inson irodasi turadi. Inson har bir narsada sabr - toqatli bo'lsa, u oxir oqibatda maqsadiga etadi.

Abdulla Avloniy buni she'r orqali quyidagicha tavsiflagan:

*Sabr ila har mushkil ish zoyil bo'lur,  
Sabr eldan maqsudina noyil bo'lur.  
Har kishida bo'lmasa sabri jamil,  
Nafs ko'yina yurub soyil bo'lur.  
Sabr qilsang, go'radan halvo bitar,  
Sabrsizlar o'z oyog'idan yitar.*

Afv – kechirimli bo'lishdir, kechirish ham insoniy fazilatdir. Kechirishning ma'nosi shuki, u biror kishining bilib yoki bilmay qilgan xatosi yoki gunohini anglagan holda, ozor bermay, kechirishdir. Afv qila olish qalbi pok, aql-farosatli

<sup>1</sup> Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T., 2009. -B.499.

kishilarga xos fazilatdir. Gunohkorni avf etish, ayniqsa, rahbarlarga, mamlakatni idora etayotgan kishilarga obro'- e'tibor keltiradi. Avf eta olish fazilati har bir inson uchun ham xos bo'lishi kerak.

Uch xislatga ega bo'lmoq oliy darajaga etmoqdir. Birinchi, senga sitam qilgan kishini kechirmoq. Ikkinci, senga yomonlik qilgan kishini yomonlab yurishdan tiyilmoq. Uchinchi, yomonlik qilganga yaxshilik qila bilmox:

*Mehrsiz, ginachi dushman dinini  
To'ldirsang mumkindir sen ehtiromga  
Ovchini ko'rgilu ibrat ol undan,  
Don bilan tushirar domga!*

Kamtarlik – axloqiy fazilatlarning eng muhimlaridan biri, inson o'zini oddiy, kansuqum tarzda tutishi, boshqalarning izzat va hurmatini joyiga qo'yishidir. Koshifiyning fikricha, kamtar bo'lish baland martabaga erishmoqning sababidir. U podsho Nafl ibn Ahmadning o'g'liga nasihatini keltiradi: "Ko'p mashaqqat bilan qo'lga kiritilgan mamlakatim uzoq saqlanishi uchun sen, avvalo, xazinaga e'tiqod qo'ymaysan. Lashkarga ishonmaysan, tavozeni ziyoda qilasan. Agar o'zingni past tutib, tavoze bilan muomala qilsang, insonlarning ko'ngil qushi sening tuzog'ingga ilinadi va hech qachon farmoningdan tashqari chiqmaydi.

*Tavozedur ko'ngulga ro'shnolik,  
Topar begona andin oshnolik.  
Tavoze kishini davlatmand etgay,  
Tavozelik kishi izzatga etgay.*<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Mashriqzamin – hikmat bo'stoni. –T.: SHarq, 2008.-B.189

<sup>2</sup> Mahmudov R. Degonimning ulusg'a marg'ub et. –T.: O'zbekiston, 1992.-B.73.

Inson o'zini boshqalardan ortiq deb bilmasligi, o'zini aqlli, o'zgalarni aqlsiz deb tasavvur qilmasligi, har qanday yaxshi ishni o'ziga loyiq va o'zgalarga noloyiq deb hisoblamasligi zarur. Bordi-yu yuqorida aytilganlarga yo'l qo'ysa, demak, bu nokamtarlik bo'ladi.

Nokamtarlar o'z kamchiliklarni ko'rmaydilar, ko'rsalar ham uni kamchilik deb hisoblamaydilar yoki tan olishni istamaydilar.

Saxiylik - insonning eng yuksak fazilatidir. "Saxiylik - qaytarishni talab qilmaydigan ehsondir. U riyokorlik va ta'magirlikdan uzoqdir. Rivoyat qilishlaricha, Iskandar Arastu-dan so'raydiki: "Dunyoning saodati nimadandir?- Sahovat va ehsondon, - javob beradi Arastu. Kishilar sahovat va ehsoning qulidir. Sahovatlilik - bu oliy himmatlilikdir. Koshifiy aytganidek: "Zarni xor bilgan har bir saxiyni zamonasi aziz deb biladi"<sup>1</sup>.

Xalq maqollarida saxiylikni axloqiy qoidalari aniq ifodalangani kuzatiladi:

"Saxiy bergenini aytmas", "Saxiyning qo'li ochiq, qo'li ochiqning yo'li ochiq", "Saxiy topsa, bo'lib er, baxil topsa, bosib yer".

Rostgo'ylik- kishidagi yaxshi xislatlardan biri hisoblanib, u insonning o'z qadr-qimmatini to'g'ri tushunish va nuqsonlarni to'g'ri ko'rsata olish ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan axloqiy fazilatidir. Rostgo'ylik insondan sabr-toqat, matonat va jasoratni talab qiladi. Rostgo'y inson qo'rquvdan forig' bo'ladi, har qanday holatda vijdoniga qarshi bormaydi, kimlarningdir ko'ziga qarab ish tutmaydi, yaqinlari yoki hamkasblarini xafa qilishdan, o'z moddiy manfaatdorligiga zarar yetkazishdan cho'chimaydi.

Rostgo'y inson aziyat chekishi, ta'na-dashnomnlarga qolishi mumkin. Lekin bularning hammasi bir odamga yoki muayyan guruhga voqelikni asl holida yetkazganidan, ularni noto'g'ri

<sup>1</sup> Mahmudov R. O'rta Osiyo mutafakkirlari ahloq-odob haqida. -T.: O'zbekiston. 1990. B.19.

yo'liga solib yubormaganidan qalbida paydo bo'lgan ma'naviy qoniqish hissi, xotirjamlik va orom tufayli yuvilib ketadi, ichki quvonch unga baland ruh bag'ishlaydi<sup>1</sup>.

Rostgo'ylik - halollikning bir ko'rinishi. Rostgo'ylik so-diqlikni, ko'ngli ochiqlikni, dangalchilikni, qat'iyatlilikni ham anglatadi.

Rivoyatlarga ko'ra qadimgi Turon mamlakatining adolatli, ma'rifatli bir podshohi bo'lgan ekan. Yurti obod, xalqi farovon bu yurt podshohining farzandi yo'q bo'lib, o'zi ham, xalqi ham bundan aziyat chekar ekan. Nihoyat podshoh bir to'xtamga kelibdi va mamlakat aholisiga rostgo'y bolani farzand qilib olishi xususida xabar berib, buni bir sharti orqali amalgaloshirishini bildiribdi.

Erta tongda maydonga yig'ilgan bolalarning har biriga gul urug'larini tarqatibdi. Shu urug'larni yaxshi parvarish qilib, chiroyli o'stirgan bolani o'g'il qilib olishini aytib, bir oy muhlat beribdi.

Bir oydan keyin maydonga yig'ilgan bolalar olib kelgan bir-biridan go'zal gullarni ko'zdan kechira boshlabdi. Barcha bolalarning idishlaridagi gullar rango-rang bo'lib tovlanib turardi. Faqat yig'lab turgan bir bolani qo'lidagi gul idishi bo'sh ekan.

Podshoh shu bolani farzandlikka olishini bildiribdi. Bundan hayron bo'lgan xalqiga podshoh shunday izoh beribdi: Barcha bolalarga tarqatilgan gul urug'lari qaynatilgan edi, demak ular ko'karmasdi. Bu bola rostgo'yligi uchun boshqa urug' olib, gul o'stirishga harakat qilmagan, men bergen urug'ni almashtirmay parvarishlashga harakat qilgan. Qolgan barcha bolalar yolg'on ishilatib, boshqa urug'dan gul o'stirib olib kelishgan.

Xalq bu xikmatdan quvonib, bolani voris deb tan olishibdi.

Shijoat - botirlilik, jasorat, dovyuraklik ma'nolarini anglatadi. Shijoatli odamni hamma o'ziga do'st sanaydi. O'z navbatida, bu ancha ko'p qirrali va murakkab fazilatlardan biri, chunki har qanday xizmat va qahramonlikni ham shijoat

<sup>1</sup> Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T., 2009. -B.496.

deb bo'lmaydi, balkiadolat qonunlariga asoslangan, jamiyat manfaatini nazarda tutgan xatti - harakatlarnigina shijoatga kiritish mumkin Husayin Voiz Koshifiy "Axloqiy Muxsiniy" asarida yozganidek:

*Kerak bizga shijoat birla shuhrat,  
Ki aningdin kishi topgay sharofat.  
El uldurkim o'zini mashhur etgay,  
Ki shuhrat topilib, jon ketsa ketgay.*

Rivoyatlarga ko'ra, bir arab sarkardasi bor edi. Qarib qolishiga qaramasdan uning dilida hamon shijoat yo'qolmagan edi. Bir kuni otga minmoqchi bo'ldi. Ikki kishi kelib, uning qo'lting'idan olib, otga zo'r-bazo'r mindirib qo'ydilar. Ular-dan biri ta'na qilib: "Otiga zo'rg'a mindirib qo'ydigu, uning qo'lidan nima ish keladi?" – dedi. Buni eshitgan sarkarda boyagi odamga dedi: "Ha, otga ikki kishi mindirdi, ammo uni ming kishi ham tushira olmaydi". Ushbu rivoyatda qo'l yurak quvvatiga tobelligi ifodalangan.

Rivoyatlarga ko'ra Anushervon Buzurgmehrdan so'radi:

– Shijoat nima?

Buzurgmehr unga:

– Yurakning quvvati! – deb javob berdi.

Anushervon yana undan:

– Nega qo'lning quvvati emas? – deb so'radi.

– Agar yurakda quvvat bo'lmasa, - deb javob berdi Buzurgmehr, qo'lda quvvat bo'lmaydi, qo'l quvvati yurak quvvatiga bog'liq!

Abdulla Avloniy ta'kidiga ko'ra shijoatning ziddi dangasalik va yalqovlikdir.

Fitrat "Najot yo'li" kitobida shijoatning foydasi insoniy sharafni himoya etishda, millat izzatini joyiga qo'yishda ko'rindi deb ta'kidlaydi.

Xushmuomalalik- bu kishilarga bo'lgan ichki hurmatning tashqi alomatidir. Xushmuomalalikka amal qilgan kishi hamisha va har qanday holatda ham kishilar bilan odob doirasi-

dan chiqmasdan muloqotda bo'ladi, o'zidan yoshi kattalardan ogoh va ularga nisbatan e'tiborli bo'ladi, jismoniy kuch talab qiladigan ishda xotin - qizlarga samimiy yordam ko'rsatadi, ularning hurmat va izzatini joyiga qo'yadi. Xushmuomala odam hech qachon boshqa kishini noqulay ahvolga solib qo'ymaydi, uning mulohazalariga baho berishda odobsizlik qilmaydi, undan o'zining ustunligini aslo pesh qilaydi, agar u kimningdir aytgan gapiga qo'shilmasa, o'sha kishing fikri noto'g'rilingiga boodoblik bilan ishontirishga, buni isbotlashga harakat qilmadi, lekin qo'pollik qilmaydi, chunki qo'pollik, dag'allik kishi xulq-atvorini bezamaydi.

Avvalo, muomala insongagina xos xislat bo'lib, uning o'ta madaniyatli, xushhol bo'lishligi shaxs barkamolligining muhim belgisi hisoblanadi. Shunga ko'ra, xushmuomalalik insonning har qanday kishi bilan o'zaro muomalasida ham o'z ifodasini topishi lozim. Dag'al odam bamisol tuzsiz bir taom yoki pishmagan mevani eslatuvchidir. Shu bois inson barcha o'ziga tegishli ijobiy xislatlarni kamol toptirishga intilmog'i zarur. Axir: "Shirin noning bo'lmasa, shirin so'zing bo'lsin", - deb bejiz aytmaydi xalqimiz. Xushmuomalalikni hozirgi kun-da bizdagi o'ta kamyob fazilatlar qatoriga qo'shish mumkin.

Insoniy fazilatlar va xislatlar ixlosmandlikning ijobiy tomonlarini shakllantirishga qanchalik mos bo'lsa, insondagi qusur va nuqsonlar ixlosmandlikni shakllantirishdagi salbiy tomonlarga shu darajada dahldordir. Istaymizmi - yo'qmi, bundan qat'iy nazar, yomonlik toifasiga daxldor yovuzlik, hasad, dilozorlik, yolg'onchilik, g'iybat, tuhmat, xoinlik, xassislik,adolatsizlik, xudbinlik kabi illatlar kundalik hayotimizda obyektiv tarzda kishilarning subyektiv faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ana shularni ba'zi birlariga to'xtalmoqchimiz.

Hasad -boshqalarning rohatini ko'rolmaslik. Hasad himmat pastligi va ko'ngil qoraligidan hosil bo'ladi. Bular esa jaholat natijalaridir. Hasad insonni, olov o'tinni yondirib kuydirgandek, kuydiradi. Hasadgo'ylik odamning yuzini qora qiluvchi yomon xislatdir. Bu to'g'rida shunday hikoyat bor: Iskandar

zamonida bir jonivor paydo bo'libdi. Unga nima ro'para kelsa, halok bo'lar ekan. Iskandar olimlarni yig'ib, chora topishni buyuribdi. Lekin hech qanday chora topisha olmabdi. Oxiri Arastu (Arestotel) unga chora topibdi. Uning buyrug'iga ko'ra, oyna yasadilar, oynaning orqasiga bir odam yashirinib turdi. Hayvon odamning isini bilib, u oyna tomonga yurdi va oynada o'z aksini ko'rди-yu yiqlidi va o'ldi. Bu holdan Iskandar taajj-ubga tushib, sababini so'radi: - ey malik, bu jonivor necha yil yer ostida bo'lgan badbo'y najosatdin qudrat olgan mahluq erdi va xolo yer yuziga chiqdi va ani ko'zida zahri qotil bor erdiki, nazari har kishiga tushsa, filhol ul kishi o'lar erdi va man aning oldiga oyna olib bordim, aksi anda paydo bo'ldi, nazari tushdi va ul nazar bu aks vositasi birla o'ziga siroyat qilib halok bo'ldi<sup>1</sup>. Bundan shunday xulosa chiqadiki, hasad o'ti shunday yomonki, u kuydirgani hech narsa topa olmasa, o'z egasini kuydiradi, ya'ni hasadchi o'z hasadi ta'sirida bir kuni halokat chuquriga yiqladi.

Hasadning sabalari:

1. Dushmanlik va yomon ko'rish.
2. Ko'ra olmaslik.
3. Kibr.
4. Maqsadga erisholmay qolishdan qo'rqish.
5. Mansabparastlik va shuhratparastlik.

Eng og'ir qalb xastaliklaridan biri hasadning zarari ko'pdir.

Zararlari:

1. Avvalo, hasad axloqsizlik alomatidir.
2. Hasadchi o'z hasadi tufayli ich-ichini yeydi, qalbi dard-alamga to'ladi.
3. Hasad egasining martabasini kamaytiradi.
4. Hasadchini odamlar yomon ko'radi.
5. Hasad katta yomonliklarning manba'sidir.
6. Hasad jamiyatni buzuvchi cho'qmoqdir.

Qalb xastaliklarini faqat ilm va amal bilan davolash mumkin. Avvalo, har bir kishi hasad o'zining axloq va imon dunyo-

<sup>1</sup> Nazarov M. Tohirov O. Ma'naviyat-ibrat.-T.: Menhaj, 2001. B.14.

sigal, sog'lig'iga zarar ekanini yaxshi anglab yetmog'i lozim. Ne'mat hasad qilingan odamdan uning hasadi tufayli zavolga uchramasligini, aksincha hasad bois o'zi jizg'anak bo'lishi, azoblanishi mumkinligini tushunmog'i kerak. Hasad dardiga mubtalo bo'lgan kishi hasadi unga qaysi amalni buyuradigan bo'lsa, o'shaning aksini qilmog'i lozim bo'ladi. Misol uchun, unga dushmanini yomonlashni amr qilmoqda, u uni maqtashga o'tsin.

G'iybatchilik - eng yomon illatdir. G'iybatning lug'atdagi ma'nosi bir narsaning ko'zdan to'silishidir. Hadislarga ko'ra g'iybat insonning bor ayblarini uning yo'qligida zikr qilish, kamchiligin qidirishdir.

O'tmisht mutafakkirlarning ta'kidlashicha, g'iybatchining ishi zino ishidin yomonroq, azobliroqdir. Qur'onda keltirilishicha, g'iybat qiluvchilar "Murdor go'shtini yeyuvchi qurtlardir va har kishida odamiylik bo'yi bordur - murdor go'shtin parhez qilur"<sup>1</sup>.

*To ilojing bor ersa qilma kishini g'iybat  
Chunki g'iybatchu erur el ko'zida beizzat<sup>2</sup>.*

G'iybat biror kishining orqasidan gapirish, aybini topish, yomonlash, bola-chaqasi, xotini, hulqi, boyligi va qarindoshlari haqida bemazza gaplarni gapirishdir.

*Odat bo'lsa har kimga g'iybat,  
Ishonmagin unga hech qachon.  
Yomonlasa birovni senga,  
Yomonlaydi seni ham pinhon.  
Qora ko'ngil bo'lgan -chun davot,  
Ikki tili bordir begumon.  
Biri – uning qalami bo'lsa,  
Yozgan xati – ikkinchi zabon.*

<sup>1</sup> Mahmudov R. Degonimning ulusg'a marg'ub et. -T.: O'zbekiston, 1992.- B.50

<sup>2</sup> O'sha manba. B.50

Gohida g‘iybat qalb bilan sodir etiladi. Bu gumon qilishdir. Badgumonlik kishilar haqida bo‘lar-bo‘lmasga yomon shubhalar qilish, ularga nisbatan tuhmat va hadik ma’nosida fikr yuritishdir. O‘zaro nizolar va kelishmovchiliklar ko‘p hollarda bir-biridan yomon gumonda bo‘lishdan ham kelib chiqadi.

**G‘iybat sasblari:**

1. Achchig‘ini to‘kib solish.
2. Tengdoshlar va hamsuhbatlarga sherik bo‘lish, ularning gapini qo‘llab-quvvatlash.
3. O‘z obro‘sini ko‘tarish uchun birovni ayblash.
4. Hasad.

G‘iybatning bir elementi chaqimchilikdir. Bu illatning xususiyatini Avloniy quyidagi she‘r orqali tavsiflagan:

*Chaqimchilar buzar ulfat hisorin,*

*Nifoqa o‘g‘ratur millatni korin.*

*Chaqimchi til yomon ajdar tilidan,*

*Solur jonga alamlik zahri morin.*

*Yomon til ming tilim bo‘lg‘oni yaxshi,*

*Sochar ummat aro kinu niqorin.*

*Yomon til sohibining dushmanidur,*

*Yo‘qotgay sha‘nu shavkat e’tiborin.*

**Yolg‘onchilik.** Xalq ichida qadimdan “Yolg‘on - qalbni kemiradi”, - degan naql bor. Shuning uchuh ham yolg‘onchilik jamiyatdagi eng yomon illatlardan biridir.

Yolg‘on arab tilida “kizb” deyiladi va lug‘atdarostning teskarisini anglatadi. Yolg‘on xabar uning voqelikka to‘g‘ri kelmasligidir. Yolg‘on so‘zda bo‘lishi bilan birga amalda ham bo‘ladi. Bunda yolg‘onchi bo‘lmagan narsani bo‘lgan qilib ko‘rsatish uchun hiyla qiladi. Yoki uning aksi bo‘lib, bo‘lgan narsani bo‘lmagan qilib ko‘rsatishga urinadi.

1. Yolg‘onning sabablari:
2. Foyda jalb qilish.
3. Zararni qaytarish

4. So'zlarni chiroyli va gapni go'zal chiqarmoqchi bo'lish Dushmandan o'ch olish maqsadi.

5. O'z obro'sini orttirish maqsadi.

Yolg'onchidan hamma jirkanadi, uning gapiga hech kim ishonmaydi, u kishilar nazaridan qoladi. Shuni ham unutmaslik kerakki, ayrim paytlarda yolg'on va yolg'onchilik orasida o'ziga xos farq mavjud bo'ladi. Ayrim holatlarda majburan yolg'on gapirish oqlanishi, ayrim hollarda esa albatta shart bo'lishi mumkin. Bosqinchilar qo'liga tushgan asirning yolg'on ma'lumot berishini qoralab bo'larmikan? Agar shifokor bemor manfaatini ko'zlab, unga noto'g'ri gapisra, uni hech qoralab bo'lmaydi.

Ma'lumki, yovuz niyat bilan yolg'on gapirish bor, lekin "yolg'on" va "yolg'onchilik" tushunchalari bir-biridan farq qiladi. Yolg'on-me'yorning bir marotabalik tasodifiy buzilishi, yolg'onchilik bo'lsa - sifat tabiatli belgi, me'yorning ko'p marotalab buzilishidir. Biz yuqorida aytib o'tgan hollarda yolg'onga yo'l qo'yish mumkin, lekin yolg'on gapirish odad bo'lib ketmasligi, yolg'onchilikka aylanmasligi, fe'l- atvor belgisi bo'lib qolmasligi kerak.

*Yolg'on beviqor qilur odamni,  
Yolg'on sharmisor qilur odamni!*

Kunlardan bir kuni bir kishi Ulug'bek Mirzo huzuriga kelib arz qilibdi:

- Ey podshohi olam! Men Samarqanddan Buxoroga safarga chiqqanimda hamyon-xaltamda ming tanga pulim bor edi. Shahardan chiqib ikki farsax (16 kilometr) yo'l yurgach, bir daraxt soyasiga – suv bo'yiga dam olgani o'tirdim. Men endi ovqatlanayotgan edim, shaharga ketayotgan bir do'stim paydo bo'lib qoldi. Hamyonni o'zim bilan eltishni lozim ko'rmadimda, uni haligi do'stimga berib, shaharga borgach, uyg'a eltib berishini iltimos qildim. Safardan qaytib kelgach, bilsam o'sha

---

<sup>1</sup> Homidiy H. Ko'hna Sharq darg'alari. T.: Sharq, 1999.-B. 178

do'stim hamyonni uyimga eltib bermabdi. Uning oldiga borib omonatimni so'radim.

– Men seni ham, hech qanaqa daraxtni ham ko'rgan emasman,javob berdi u.

Ulug'bek Mirzo o'sha odamni chaqirib keltiribdi.U "men u daraxtni ham, bu odamni ham ko'rmanman"deb so'zida qat'iy turib olibdi.

Ulug'bek Mirzo da'vogarga "o'sha daraxtdan uch-to'rt barg keltirgin, men uning vositasida haqiqatni aniqlayman", debdi. Da'vogar yo'lga tushishi bilan shoh uning sherigiga bir hikoyatni ayta boshlabdi. Voqeanning eng qiziq joyiga borgan-da shoh:

– Davogar o'sha daraxtning oldiga yetib bordimikan? – deb savol tashlabdi.

Hikoyatni zavq bilan tinglayotib, g'aflatda qolgan haligi kishi bexosdan:

– U daraxt shahardan ancha uzoqda, hali yetib bormagan bo'lishi kerak, – debdi.

Ulug'bek Mirzo "men bu odamni ham, daraxtni ham ko'rmanman" – demabmiding, qanday qilib do'stingni u yerga yetib bormaganini bilding, – deb so'rabdi.

U kishi yolg'oni fosh bo'lganidan qattiq o'sal bo'libdi va omonatni egasiga qaytarib beribdi<sup>1</sup>.

Yolg'onning zararlari:

1. Yolg'on o'z easini parchalaydi.
2. Yolg'on muruvvat, jamol va chiroyni ketkazadi.
3. Yolg'on aql o'g'risidir.
4. Yolg'on diynu dunyoni buzadi.
5. Yolg'on pastkashlik alomatidir.

**Baxillik.** "Baxillik" lug'atda karamlilik va saxiylikning ziddidir. Hadislarga ko'ra baxillik hojat tushganda o'zidan ustun ko'rishni tark qilish, o'zgada bor narsaga toqat qilolmaslikdir. Baxillikning asosiy sababi molga bo'lgan, kibrga, mansabga bo'lgan ortiqcha muhabbatdir. Islomda mol-dunyoning ayni

<sup>1</sup> Homidiy H. Ko'hna Sharq darg'aları. T.:Sharq,1999.-B.205.

o'zi yomonlanmaydi. Balki, odamning mol-dunyoga bo'lgan munosabatidagi ma'no yomonlashadi.

Baxilllik odamning o'z moliga jonu dilidan yopishib olishidir. Baxil odam o'zini yeyishi va kiyinishi uchun ham pul sarf etishni istamaydi. Hind hakimlarining kinoya qilib yozishlari-cha, o'z mol-mulklarini yaxshilik yo'lida sarflamaydigan baxil kishilar "sahiy" kishilardir. Chunki o'zlari yemay, hammasini o'zgalar uchun qoldiradilar.

Baxilllik insondagi saxiylikka tubdan qarama-qarshi bo'lgan qusurdir, u sahovatni yo'qqa chiqaradi. Pastkashlik va nokaslik esa baxillik va xasislikdan o'n chandon yomon-roqdir. Chunki baxil kishidan biron kishi bahra topmaydi, ammo mol-dunyosidan o'zi naf ko'rар, xasis o'zi ham olmas, birovga ham bermas, nokas shundayki, u qo'lidagi nonni birovga bermaydigan, o'zi ham yemaydigan va buning ustiga, yana kishilarning bir-birlariga olijanoblik, ehson qilishiga yo'l qo'yaydigan kimsadir.

Baxil yaxshilikni yomon ko'radi, yomonlikka esa qarsak uradi. Baxilllik bir tikon, agar u kimga botsa ozor yetkazadi. Baxil odam yo'ldosh bo'lmaydi, bordi-yu yo'ldosh bo'lsa, zarari uradi.

Baxilllik jamiyat a'zolari ichida bir-birini ko'ra olmaslikka, turli fitnalar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Baxilllikning zararlari:

1. Baxilllik ulug'ning obro'sini to'kadi.
2. Baxilllik axloqni buzuvchidir.
3. Baxilllik insonni halokatga eltuvchidir.
4. Baxilllik kishini ich-ichidan kemiradi.

Baxilllik davolasa bo'ladi. Buning uchun kishi baxilllikning zararlari va oqibatlarini anglab olishi, qanoatli va karamli bo'lish odoblarini o'zlashtirishi lozimdir.

G'arazgo'ylik lug'atda arabcha mafaat degan ma'noni anglatadi. G'arazgo'ylikning belgisi, bu illatdagи kishilar yomonlikni yaxshilik sifatida, yaxshilikni esa yomonlik sifatida idrok etadilar. Chunki ularning qalbi olijanoblik va yaxshilikni ko'ra olmaslik zangi ostida qolgan. Shuning uchun ham

kishilar ulardan yiroqroq yurishga harakat qilishadi, ularning so'zlariga ishonmaydilar.

G'arazgo'ylik kishilararo munosabatlар va ularning holatiga rahna soluvchi illat hisoblanadi.

Hikoyatga ko'ra Balxda o'z ishining ustasi, insofli bir duradgor bo'lib, u oqila xotini bilan tinch, baxtli hayot kechirar ekan. Duradgorning qo'shnisi ularning shirin, osuda turmushi-ni alam bilan kuzatar, o'zining notinch oilasi va barakasi yo'q ro'zg'ori bilan qiyoslar ekan. U o'ylab-o'ylab duradgorning xotini xususida yomon gap oralatib, oilasini buzmoqchi bo'libdi.

Xotini xususidagi mish-mishlardan xabar topgan yigitning ko'ngliga shubha oralabdi. Xotini buni rad etsa-da, gumon yigitni tinchini buzibdi. Ishida avvalgi shijoat yo'q, daromatidan ham unum ketibdi. Mayga berilibdi. Kundagi janjaldan bezor bo'lган xotini bolalarini olib ota uyiga qaytibdi.

G'arazgo'ylik tufayli bir chiroyli oila vayron bo'libdi.

G'arazgo'ylikning zamirida boshqa kishilar baxt-saodatini ko'rolmaslik, yomon niyat, g'ayirlik, yovuz maqsad ya-shiringan. G'arazgo'ylikning obyekti – yon-atrofdagilardan ma'lum bir kishi yoki kishilarga qaratilgan adovatli maqsad. G'arazgo'y kishi ma'lum bir niyatini amalga oshirmagunicha undan bu illatning asoratlarini topish qiyin. Chunki, u o'z niyatlarini hammaga oshkor qilmaydi. G'arazgo'ylik nafaqat o'zaro shaxsiy munosabatlarga, balki jamiyat turmush tarziga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi hamda kishilar o'ttasida adovat, gina-qudrat, begonalik, oxir-oqibat dushmanlik urug'ini soladi. G'arazgo'ylikning jamiyat oldidagi ijtimoiy – mohiyati shaxsiy manfaatparastliknidan iborat<sup>1</sup>.

G'arazgo'ylikning zararlari:

1. Doimiy notichlik va shubbada yashashga olib keladi.
  2. Tajovuzkorlikni keltirib chiqaradi.
  3. Asabiylik va jazavalı holatlarning yuzaga keltiradi.
  4. Domiy qo'rquv va zo'ravonlikka moyillik paydo bo'ladi.
- G'arazgo'ylikni ruhiy tarbiya orqali bartaraf etish mumkin.

<sup>1</sup> Ma'naviyat asosiy tushbunchalar izohli lug'ati. T., 2009. -B.721.

**Yaxshilik va yomonlik.** Bu ikki tushuncha qutbiy xarak-terga ega, ya’ni inson hayotining barcha ijobiy tomonlari yaxshilik hisoblansa, ijtimoiy taraqqiyot, insoniy qadr-qimmatlarning yuksalishiga to’sqinlik qiladigan va unga bo’lgan barcha xatti- harakatlar esa yomonlikka kiradi.

Rivoyatga ko’ra, Luqmoni Hakimning oldiga bir guruh kishilar mehmon bo’lib kelishdi. Undan hikmatga oid narsalarни so’rashdi. Shunda kelganlardan biri:

– Ey hakim, sen falon yerda cho’ponlik qilgan kishi emas misan?- deb so’rab qoldi.

– Ha, o’sha cho’ponman, – javob berdi Luqmon, - hozir ko’rib turibsanki, hakimman.

– Bu darajaga qanday erishding? – so’radi yana u.

**Luqmoni Haqim unga:**

– To’g’ri so’zlashdan, odamlarga yaxshilik qilishdan, omonatga hiyonat qilmaslikdan, yolg’on so’zlamaslikdan, behuda gapirmaslikdan, musibat va qiyinchiliklarga mardona chidashdan, o’zini barchadan kam olishdan va harom luqma totmaslikdan! – deb javob berdi.

Donishmandlar biror kimsaga katta yaxshilik qilgan bo’lsang, uni kichik deb bil, birov senga yaxshilik qilgan bo’lsa, uni katta deb bil, birovga yaxshilik qilgan bo’lsang, yaxshililingni aytib, uni kamsitma, birovga ichirgan va ed-irganingni minnat qilib, zaharga aylantirma deb uqtirganlar. Chunki evaziga narsa kutib qilingan yaxshilik hisoblanmaydi, balki u oddiy oldi-berdidan iborat xolos.

*Yaxshilik qilishga bo’lmasa imkon,  
Yomonlik qilmagin, qaytar o’zingga<sup>1</sup>!*

Ruhiy tarbiya kitobida yaxshilikning mohiyati quyidagi-cha izohlangan: “Yaxshilik yuzingizni mashriq yoki marg‘ib tomonga burishingizda emas. Yaxshilik...yaxshi ko’rgan molini qarindoshlariga, yetimlarga, miskinlarga, ko’chada qol-

<sup>1</sup> Mashriqzamin – hikmat bo’stoni. –T.: Sharq, 2008.-B. 191-192

ganlarga, tilanchilarga berganidur...ahd qilganda ahdiga vafo qiluvchidir, kambag'allik, qiyinchilik paytida va shiddat vaqtida sabr qiluvchilarga xosdir... insonni ota-onasiga yaxshilik qilishi solih amaldir".

Manmanlik – ijtimoiy munosabatlarda o'zini o'zgalardan yuqori qo'yish, ularga past nazar bilan qarash, boshqalarning fikr-mulohazalarini e'tiborga olmaydigan, faqat o'zini haq deb, o'zgalarni tan olmaydigan kishilarga xos salbiy xususiyatni ifodalaydigan atama<sup>1</sup>.

Rivoyatlarga ko'ra Anushirvonning o'g'li Hursus Ahvoz viloyatiga borgan paytda o'sha yerning hokimi bilan muloqotda bo'ldi va bir kuni unga dedi: Senda yagona bir aybdan boshqa hech qanday aybni ko'rmadim. Ammo o'sha ko'rgan aybim bilgilki, o'nta aybni o'z orqasidan ergashtirib yuradi.

Hokim: u qanday ayb ekan? Orqasidan ergashtirib keladiganlari esa qaysilar, aytib ber!

Hursus dedi: o'sha ayb kerilish va manmanlikdur. Bilgilki, unga ergashadigan ayblarning birinchisi, mensimaslik bo'lib, uning oqibati xalq nafratiga yo'liqishdir. Ikkinchisi, odamlarni taftish va tadqiq qilib, ularga dashnom bergen holda o'zi esa kasb-hunarning birortasiga ham ega bo'lmaslik. Uchinchisi, o'qishdan or qilish, buning natijasida ilmu-adabdan bebahra qolish. To'rtinchisi, o'tirishdan barchadan o'zini ustun va dono deb bilish, buning natijasida o'ziga dushman orttirish va obro'yini to'kish. Beshinchisi, manmanlik tufayli chegaradan chiqish, balandroq amalni xohlab qolish, natijada xoru-zor bo'lib, o'z martabasidan ham ajrash. Oltinchisi, odamlarning haq-huquqini hurmat qilmaslik, bemorlardan xol so'ramaslik va shunga o'xhash narsalardan ko'z yumish. Yettinchisi, odamlarga xavf solish, ularni masxara qilish, natijada beqadr bo'lish. Sakkizinchisi, maslahatsiz ish tutish, natijada hijolat chekib, nadomat tortish. To'qqizinchisi, odamlar meni ulug' fahmlaydi, deb o'ylash va gumonda yurish. Fozil va komil

<sup>1</sup> Manaviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T., 2009.

kishilarga qulq solmay, haqorat ko'zi bilan qarash, natijada ularning nazaridan qolish<sup>1</sup>.

Alloma Axmad Yassaviy manmanlikka berilgan odamni o'z qadrini bilmagan, o'zgalar qadrini e'zozlamagan inson sifatida ifodalaydi:

*Hayfi odam o'z qadrini o'zi bilmas,  
Manlik qilib, yaxshilarni ko'zi ilmas<sup>2</sup>.*

Manmanlikning ofatlaridan biri kibrga olib boradi. Kibrdan esa ko'plab ofatlar tug'ilishi sir emas. Agar manmanlik va kibr jam' bo'lib qolsa, ikkisi barcha fazilatlarni yo'qqa chiqaradi.

Insonning olamga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabati axloqiy ong doirasida yuz ko'rsatadi. Bu munosabat kishilarning xulq-atvori, urf-odatlari, xarakteri, imon-e'tiqodiga yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan baho berishda ko'rindi. Zotan, axloqda tiriklik mazmuni, insonning yorug' dunyodagi burchi, or-nomusi o'z ifodasini topgan bo'ladi.

"Butun tabiat quyosh nuri bilan tirik. Ammo inson quyosh nuridan bahramand bo'lish bilan cheklana olmaydi. Inson ruhi yaxshi odamlarning so'zidan, siyemosidan, ijodidan taraladigan ma'naviy ziyoga ham katta ehtiyoj sezadi. Chunki ham tabii y nur, ham ma'naviy ziyo bilan yo'g'rilgan inson hayotigina barkamol bo'ladi" deganda atoqli adib P.Qodirov ham haq edi.

Alloma Jaloliddin Rumiy zamonamiz olimlari qilni qirq yoradilar, o'zlariga bog'liq bo'lмаган narsalarni juda yaxshi biladilar, ammo o'ta muhim, o'zlar uchun qolgan barcha narsalarndan yanada yaqin bo'lganni, ya'ni o'zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo'lган borliq bu-ularning menligidir deganlar. Bu bilan mavloniy Rumiy insonni avvalo, ko'zini ochishga va ochilgan ko'zlar bilan o'z mohiyatiga nazar tashlashga undaganlar.

<sup>1</sup> Mashriqzamin – hikmat bo'stoni. –T.: Sharq, 2008. –B.343.

<sup>2</sup> Homidiy H. Ko'hna Sharq darhalari. T.: Sharq, 1999. –B. 115.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan xulosa quyidagicha:

1. Axloqni sayqallash dunyodagi eng muhim ishlardan sanaladi.
2. Axloqiy dunyo o'z tabiatiga ko'ta ijtimoiy bo'lib, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda alohida ahamiyatga ega.
3. Axloqiy tarbiyaga oid manbalarni, o'git va hikmatlarni mudom o'rganish asnosida o'z xulqidagi illatlarni isloh qilish.
4. Insonlarga nisbatan kengbag'ir va kechirimli bo'lishni o'rganish.
5. Boshqalarga nisbatan go'zal muomala va tavozuli bo'lishni o'zlashtirish.
6. Ezgu fikrli va ezgu amalda bo'lish orqali shu sifatdagi kishilar bilan ko'p va mudom aloqa o'rnatish.
7. O'zini anglab yetish, o'zini tanish, o'z-o'zini takomil eta bilih orqali haqiqatga (Haqqa) yaqinlashish.
8. Inson aqli, bilimi va e'tiqodi orqali o'zligini anglaydi, hayotini barqarorlashtiradi.
9. Adolatparvar bo'lish, bu yo'lda aql va ilmga, imon va halollikka suyanish.
10. Inson o'z taqdiri va hayotiga o'zi mas'ul, o'z-o'zini nazorat qilishi va hulqlanishi o'ziga bog'liq.
11. Hayotiy ibrat va tajribalardan oqilona foydalanish.
12. Odamlar o'rtasida nizolarni tugatish, yaxshilikka charqish ulug'lik belgisidir.
13. Insonning halovat topishi insoniy fazilatlarni o'zlashtirish va amalda qo'llashidadir.
14. Manfaatlar to'qnashuvi va o'zaro ziddiyatlarni kishi o'z-o'zini tanqid qilish orqali bartaraf etish mumkin.

## QO'SHIMCHA VA TUSHUNTIRUVCHI MATNLAR

**Axloqiy yetuklik ruhiy va ma'naviy uyg'unlik bilan shartlanadi**

### RUHIY HOLAT

Uning tabiatı, instinkt, did, kayfiyat, mayl, tuyg'u, kechinma, hayrat, iztirob, zavq, qo'rquv.

Shu elementlarning biri beqarorlik holatiga tushsa butun ruhiyatga ta'sir ko'rsatadi

Insonning ruhiy sog'lomligi va axloqiy manaviy barqarorligi fiziologik holatini belgilab beradi

### MA'NAVİY HOLAT

Tafakkur, bilim, aql, maqsad, farosat, ijod, muloqot, e'tiqod, ixlos, imon.

Tafakkur ham nazariy ham amaliy protsedura bo'lib, unga muvofiq inson o'z-o'zini va jamiyat talablarini anglashi zarur

Tafakkur, e'tiqod, axloq, ruhiyat, dunyoqarash doimo aloqadorlikda shakllanadi va rivojlanadi

Axloqiy  
yetuklik

Ichki muvozanat  
va barqarorlik

Ilm-ma'rifatga  
tayanish

O'z-o'zini  
tashkillashtirish

O'z-o'zini  
tanqid

O'zining  
haqiqatini  
anglash

Hayot  
mohiyatini  
bilsih

*Etika  
kategoriyalari*

Yaxshilik va  
yomonlik, adolat,  
burch, qadr-  
qimmat va or-  
nomus, vijdon,  
muhabbat va nafrat

*Etikaning asosiy  
tamoyillari*

Insonparvarlik,  
vatanparvarlik,  
mehnatsevarlik,  
baynalminallik,  
hamjihatlik

*Etikaning asosiy  
tamoyillari*

Halollik,  
rostgo'ylik,  
kamtarlik,  
insoftililik,  
xushmuomalalik

**Axloqiy talab (norma)lar**

Rostgo'ylik

Hushmuomalalik

Kechirimlilik

Bag'rikenglik

Farosatlilik

Kamtarlik

Sabrlilik

Qanoatlilik

Yaxshilik

Halollik

Mehnatsevarlik

Odamiylik

To'g'rilik

Pokizalik

Donolik

Olijanoblik



## "AVESTO" DA YAXSHILIK KATEGORIYASI

"Men Yaxshi niyat, Yaxshi so'z va Yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman. Men yaxshilikdan iborat Mazda qonuniga non-shavkat baxsh etaman" ("Yasna", 14).

"Yaxshilik ta'limini va sadoqatini amalgalashirib... yaxshi bokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta'limni amalgalashirinsinlar" ("Yasna", 48, 5-6 boblar).

"Oziq-ovqat yaxshilanishi bilan xalqning axloq-odobi ham kuchayadi. Non mo'l-ko'l bo'lsa, ilohiy so'zlar yaxshiroq idrok etiladi"

("Yasna" 33, 3-bob.)

"Har bir nekbin odam yaxshi niyat bilan ikki qo'llab erga ishlov bersin, biron dastgohni yurgizib yaxshi kun kechirsin, yaxshi chorva parvarishlab rizqu ro'z topsin"

("Yasna" 34, 3-bob.)

Avestoda "Yaxshi fikr deganda...yaqin kishisiga mehribon bo'lish, muhtoj va xavf-xatar ostida qolganda ko'maklashishga shaylik, yovuzlikka qarshi, kishilar baxt-saodati uchun faol kurashishga shaylik, hamma bilan ahl va totuvlikda, o'z maslakdosh birodarları bilan do'stlik va hamkorlikda yashashga intilish ruhidagi niyatlar va fikrlar musaffoligi tushuniladi.

Inson o'z fikri-xayolida boshqalarga hasad qilmasligi lozim, yaxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi va boshqa jaholatlarga berilmaydi, chunki bunday holatida yaxshi niyatini yo'qotadi, burch va adolat haqida unitadi va nojo'ya harakatlar qiladi".

*A.Makovelskiy*

## YAXSHILIK KATEGORIYASI

### I. Gyote.

“Barcha kamchiliklardan qat’iy nazar, odamlar har narsadan ham ko’ta ko’proq mehrga loyiq”

### V. Gyugo.

“Birovga qilingan yaxshilik kishini shunisi bilan rom etadiki, u shafaqqa o’xshab oxiri o’chib ketmaydi, qaytaga yanada yorqinlashib o’zimizga qaytib keladi”

### J. Golsuorsi.

“Yaxshilik ko’p bo’lsa ham zarar keltirmaydigan fazilatdir”

### M. Monten.

“Yaxshilik qilgan chog’ingda ko’ksing qandaydir tog’day ko’tarilib, qonuniy g’ururlanasan, sof vijdonli odamgina shunday bo’ladi”

### J. Juber.

“O’ylagan ishing yaxshilikka olib kelmasa, barcha ezgu orzularing behudadir”

### J. Reksin.

“Yaxshilik qilish har qanday yuksaklik sari tashlangan qadamdir; ezgulik qilmasang, bir kunmas bir kun tubanlik seni o’z qariga tortadi, yaxshilik o’rniga yomonlik qilasan”

### I.S. Turgenev.

“Ko’rsatma bo'yicha qilingan yaxshilik – yaxshilik emas”

### R. Tagor.

“Kimki yaxshilik qilaman deb xaddan tashqari uzoq muhokama yuritsa, yaxshilik qilishga vaqt qolmaydi”

### D.I. Pisarev.

“Majburan qilingan yaxshilikning qimmati yo’q”

### L.N. Tolstoy.

“Ysama ezgulikdan yomoni yo’q. Oshkora yomonlikdan ko’ta odam yasama ezgulikdan ko’proq nafratlanadi”

## ADOLAT KATEGORIYASI

*Arabcha odillik, to‘g‘rilik, hamma uchun barobar bo‘lgan haqiqatning talab va tamoyillariga amal qilinishi*

*Qadru-qimmatda bir-biri bilan barobar bo‘lgan ikki narsa yoki odamning har biri*

*Jamiyatda adolatning qaror topishi hukmdorning fazilatlariga, davlatning ichki va tashqi funksiyalariga bog‘liq*

*Xizmatga adolatli kishilar tanlanib, vijdonsiz kishilar chetga surib qo‘yilsa, xalq itoat etadi. Xizmatga vijdonsiz kishilar tanlanib, adolatli insonlar chetga surib qo‘yilsa, xalq xokimiyatga bo‘ysinmaydi*

*Adolat burchlilik nuqtayi nazaridan saqlab qolinishi yoki o‘zgartirilishi lozim bo‘lgan ijtimoiy voqelikni baholaydi.*

*Adolat – to‘g‘ri, qonuniy, rostdan, vijdonan, haqqoniy, qilingan ish*

*Adolat bir go‘zallik va zebolikdir.  
Chidamlilik, donishmandlik va mardlik birgalikda adolatni yuzaga keltiradi*

*Adolat axloqni hosil qiladigan eng muhim aloqa va munosabtlar yig‘indisi bo‘lib, tenglikning to‘g‘ri, haqiqiy va taqdirlashning zaruriy o‘lchovidir. U jamiyatdagi mavjud axloqiy munosabatlarni tartibga solib turadi.*

## HIKMATLARDA AXLOQIY KATEGORIYALAR

*Luqmoni Hakimdan so'rashdi:  
Yaxshi odam bo'lish uchun  
nimalarga rioxqa qilmoq kerak?*

- So'zni yetti o'ylab, bir ayting.
- Jahl kelganda sukut saqlang.
- Yaxshilik qilishni va saxiylikni fazilat deb biling.
- Birovning haqiga xiyonat qilmang.
- Halol mehnat davlatu-saodatning xazinasi ekanini unutmang

*Buyuk xakim Abu Ali ibn Sinodan so'rashdi:*

*Xastalikating sabablarini nima?  
Xastalik besh sabab bilan yuz beradi:*

1. Ko'p yeb, ko'p yotishdan
2. Oz o'ylab, ko'p gapirishdan
3. Nojo'ya harakatlar qilib, kuch-quvvatni behuda sovurishdan
4. Fitna-fasod qilib, dil og'ritishdan
5. Dangasa bo'lib, kulula tushib yotishdan

## O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA AXLOQ TAMOYILLARI

- Bilib o'tir o'rningni, har yerga suqma burningni.
- Birovning uyiga boqma, bemahal eshik qoqma.
- Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin.
- Yomonga yondashma, yaxshidan adashma.
- Kamtarlik – inson ziynati.

- Ko'p vaqqillagan donodan ko'ra, jim o'tirgan nodon yaxshi
- Notiq mahmadana bo'lsa, majlisning burdi ketar.
- Sen o'zingni maqtama, seni birov maqtasin
- Hulq har kim o'z qiyofasini ko'rsatadigan ko'zgudir.

## HADISLARDA AXLOQIY

### FAZILATLAR

*Uch xil sifat borki, kimda-kim  
ularga ega bo'lsa, Tangri  
giyomat kuni uni himoya qilib,  
o'z jannatiga kirgizur:*

1. Zaiflar bilan xushmuomala da bo'lish.
2. Ota-onaga shafqatli bo'lish.
3. Qo'l ostidagilarga himmatli bo'lish.

*Uch xil sifat borki, kimda-kim  
ularga ega bo'lsa, xotirjam  
bo'ladi:*

1. Omonotga xiyonat qilmaslik.
2. Davlatining boriga qanoat qilish.
3. Har ishda sabrli bo'lish.

- So'z va har bir ishda haqqoniy bo'lish.
- Guvohlik berganda ko'rgan va eshitganini to'g'ri ifoda etish.
- Xafa qilgan kishini kechirish, gina saqlamaslik.
- Odamlarga foydali daraxtlar ekish.
- Halolligiga shubha bo'lgan narsani xarid qilmaslik.
- Arazlagan kishilarni sulhga keltirib yarashtirish.
- Va'daga vafo qilish.
- Bemorlarning holidan xabar olish.
- Gapda va ishda adolatsizlik qilmaslik.
- Birovning mulkiga ko'z olaytirmaslik.
- Yaxshilik (ezgulik)ni ixtiyoriy baham ko'rish.
- Orastalik va pokizalikni saqlash.
- Ulug'larni mehrini qozonish.

## Konfusiy axloq piramidasi

Jamiyatda va jamiyat uchun yashash

Bir-biriga yom bermoq

Mansabi va yoshi katta bo'lgan kimsalarga qulog solish

O'zini tiyish, har narsada me'yoriga rioya qilish

Insonparvar bo'lish

## Buddaviylik axloq talablari

Qotillikdan saqlanish

Zebu-ziynatlardan saqlanish

O'yin-kulgidan saqlanish

O'g'rilikdan saqlanish

Mast qiluvchi narsalardan saqlanish


G'iybat va bo'htondan saqlanish

Gumrohlikdan saqlanish

Yolg'on, qalbaki narsalardan saqlanish

Ochko'zlikdan saqlanish

**“Go‘zal fe'l-atvor”  
qoidalari**



**AXLOQIY HIKMATLAR**

Aybsiz do'st qidirgan do'stsiz qoladi.

Inson xatti-harakatlari uning fikrlari tarjimonidir

Birov seni o'zingda yo'q sifatlar bilan madh elsa, unday odamga ishonma, chunki o'sha senda yo'q yomon sifatlar bilan o'zga yerda seni yomonlashga qodir.

Aqlilik ikki narsadan iborat: g'azab kelganda o'zini bosishdan va birovdan kuchli bo'lganda uni kechirishdan.

## AXLOQ TAMOYILLARI

### Insonparvarlik

Odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish

### Vatanparvarlik

Vatanining ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, u oldidagi ma'suliyat va burchni anglash

### Millatparvarlik

O'z millatining o'ziga xos jihatlariga hurmat va sadoqat ruhida qarash, millatning har tomonlama taraqqiy topishiga xizmat qilish

## Global axloqiy qadriyatlar

Zo'ravonlikdan voz kechish va hayotni hurmat qilish

Birodarlik va adolatga asoslangan iqtisodiy tartib o'rnatish

Sabr-toqat va haqiqatgo'ylik

Teng huquqlilik

## Umuminsoniy o'git

- Aqli odam doim haqiqatni gapiradi.
- Ya'ni, hech kimni aldamaydimi?
- Yo'q, o'zini o'zi aldamaydi.

Bizning boshqalar ortidan yugurishimizga hojat yo'q, bizga o'zimizni ochiq baholamoq, kimligimizni tushunmoq, yolg'onдан chiqmoq lozim

## AXLOQIY O'GITLAR

Uch xislatga ega bo'lmoq oliv  
darajaga yetmoqdir:

1. senga sitam qilgan kishini kechir-moq.
2. senga yomonlik qilgan kishini yomonlab yurishdan tiyilmoq.
3. yomonlik qilganga yaxshilik qila bilmoq.

*Muiniddin Juvaniy*

Beshta sifat kimda bo'lsa, u odam ulug'lik va izzat otiga minadi.

Ular:

1. to'g'ri so'zlik;
2. simi yashira bilish;
3. va'daga vafo;
4. nasihatni qabul qilish;
5. omonotga xiyonat qilmaslik.

*Bobur*

Xushxulqlikning o'nta nishonasi bor. Bular:

1. yaxshi ishlarda odamlar bilan hamisha birga bo'lish;
2. nafs kuyiga kirmaslik;
3. o'zgalar aybini qidirmaslik;
4. birovdan biror ayb sodir bo'lsa, uni yaxshilikka yo'yish;
5. aybdor uzr so'rasha, aybini kechirish;
6. muhtojlar hojatini chiqarish;
7. o'zi haqida o'ylayvermay, boshqalar haqida ham qayg'urish;
8. o'z aybiga iqror bo'lish;
9. ochiq yuzlik bo'llish;
10. xushmuomala bo'lish.

*Abulbarakat Oodiriv*

Duny odagi beshta fazilatni amalga oshira oladigan odam insonparvardir. Bular:

1. jiddiylik;
2. bag'ni kenglik;
3. ishonchililik;
4. qobiliyat;
5. mehr-muruvvat.

*Konfutsiy*

Besh toifa kishi bilan do'st tutinma va suhbat qurma:

1. fisqu fujur ahli;
2. baxil va xasis kishi;
3. yolg'onchilar;
4. johil, nodon kishi;
5. munofiq kishi.

*Muhammad Jabalrudiy*

## AXLOQIY HIKMATLAR

Do'st shundayki, suhbatingni malol olmaydi, uzoqda yursang unutmaydi, boylik va kambag'allikda o'zgarmaydi, hojating bo'lsa amalga oshirish uchun jon-jahdi bilan kirishadi, yaxshiligini minnat qilmaydi, biror hojati bo'lsa sendan yashirmaydi, ahvolini sir tutmaydi, senga qancha yaxshilik qilsa, uni shuncha kam deb hisoblaydi, sendan ozgina yaxshilik ko'rsa, uni ko'p deydi, barcha ishda o'zini senga hamnafas deb his qiladi.

*Muiniddin Juvaniy*

Inson o'zini boshqalardan ortiq deb bilmasligi, o'zini aqli, o'zgalarni aqlsiz deb tasavvur qilmasligi, har qanday yaxshi ishni o'ziga loyiq va o'zgalarga noloyiq deb hisoblamasligi zarur. Bordi-yu yuqorida aytilganlarga yo'l qo'yilsa, demak, bu xudbinlik bo'ladi. Xudbin odamlar o'z kamchiliklarini ko'rmaydilar, ko'rsalar ham uni kamchilik deb hisoblamaydilar yoki tan olishni istamaydilar. Boshqalarning kamchiligini ko'rib qolsalar, shov-shuv ko'tarishga urinadilar.

*Muhammad Husayni*

Oriflar odobidan biri - sukutdir. Sukut ikki xil bo'ladi.

Biri avomning sukuti. Ya'ni haqiqiy solik bosib o'tishi lozim bo'lgan muqarrar ruhiy masofani o'tamagan murudning sukuti. Zero, hali u pishib yetilmagan. Til bog'lab qo'yilmasa, zarar yetkazadi.

Ikkinchisi - xoslar sukuti. Bu komil oriflarga xos bo'lib, haqiqiy sir-asrorini duch kelgan hangomatalablarga so'ylashlari ravo emasdir. Bu o'rinda ularning sukutlari afzal.

*Jaloliddin Rumiy*

## INSONNING O‘Z-O‘ZINI TASHKILLASHTIRISH

**o‘z-o‘zini tartibga  
solish**

**o‘z-o‘zini  
saqlash**

**o‘z-o‘zini  
boshqarish**

**o‘z-o‘zidan rivojlanish**

**o‘z-o‘ziga yetarlilik**

**o‘z-o‘zini  
tashkil qilish**

**o‘z-o‘zidan harakat  
qilish**

**o‘z-o‘zini  
tarbiyalash**

**o‘z-o‘zini nazorat  
qilsish**

**o‘z-o‘zini baholash**

**o‘z-o‘zini bilish**

**o‘z-o‘zini tanqid qilish**

**o‘z-o‘zini anglash**

## AXLOQ-ODOBGA ASOSLANGAN ASARLAR

Zardushit	"Avesto"
Hind eposi	"Kalila va Dimna", "Maxobxarat"
Forobiy Abu Nasr	"Fozil odamlar shahri ", "Baxt-saodatga erishuv risolasi"
Kaykovus	"Qobusnoma"
Jaloliddin Rumiy	"Ma'naviy masnaviy", "Ichingdagichindadur"
Yusuf Xos Hojib	"Qutadg'u bilig"
Axmad Yugnakiy	"Hibatul-haqoyiq"
Sa'diy Sheraziy	"Bo'ston", "Guliston"
Abdurahmon Jomiy	"Bahoriston"
Husayn Voiz Koshifiy	"Axloqi Muhsiniy", "Axloqi Karim", "Masnaviy", "Javohirnomma"
Alisher Navoiy	"Mahbub ul-qulub"
Xondamir	"Makorim ul-axloq", "Axbot ul-ahyor"
Jaloliddin Davoniy	"Axloqi Jaloliy"
Muiniddin Juvayniy	"Nigoriston"
Majididdin Havofiy	"Guliston"
So'fi Ollohyor	"Sabot ul-ojizin"
Yusuf Samandar Termiziy	"Dastur ul-mulk"
Abdulla Avloniy	"Turkiy guliston yoxud axloq"
Fitrat	"Najot yo'li", "Oila"
Usmonov M	"Yaxshi fazilat insonga ziynat"
Usmonov R	"Saodatnoma"
Abdurahmonov A	"Saodatga eltuvchi bilim"

## **MUSTAQIL ISHLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Burchning axloqiy kategoriyalar tarkibidagi xususiyatini aniqlang.
2. Axloqiy haqiqat nima?
3. Mutanosib adolat deganda nimani tushunasiz?
4. "Axloqiy fazilatlar inson niyatida aks etadi" degan fikrning mohiyatini olib bering.
5. Qanday yaxshilik inson umrini ziyoda qiladi?
6. Adolat odamlarni qanaqa yomonliklardan saqlaydi?
7. "Odobing obro'ying" xalq maqoli mazmunini olib bering.
8. "Uyat – o'limdan qattiq" maqoliga misollar keltiring.
9. "Kimki muloyimlik urug'ini sepsa, salomatlik mevasini teradi". Ushbu fikrning mag'zini olib bering.
10. Nodonlikning belgilari va sabablarini aytib bering.
11. "Axloqiy tubanlik"ning belgilari va zararli oqibatlari
12. Axloqiy baholash nima va uning ko'rsatkichlari (mezonzlari)ni aytинг.
13. YOmonlikning yomonligi nimada?
14. "Ma'naviyat" va "axloq" tushunchalarining umumiy xususiyati va farqi.
15. Lafzi halollik fazilatini mazmuni va ko'rinishlarini olib bering.
16. Ochiqko'llik va sahovatpeshalik fazilatlaridagi umumiylig va o'ziga xoslikni aytинг.
17. O'ktamlik fazilatining mazmunini olib bering va unga misollar keltiring.
18. Odillik va haqqoniylik fazilatlarining umumiy xususiyati va farqi.
19. Zakovatlilik, fozillik va zukkolik fazilatlarining umumiy xususiyati va farqi.
20. Matonatlilik, chidamlilik va g'ayratlilik fazilatlarining umumiy xususiyati va farqi nimada?

21. "Inson hamma narsaning o'lchovidir" degan iboranning mohiyatini ochib bering.
22. "Axloqiy muhit" tushunchasini ochib bering.
23. Juvonmardlik(Futuvvat) nima? Uning xususiyatlarini ayting.
24. Amir Temur va Bobur shaxsiyatidagi fazilatlarni ayting.
25. Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan fikrini asoslab bering.
26. Abdulla Avloniyning "Tarbiya beruvchining o'zi tarbiyali bo'lishi lozim" degan iborasini mohiyati.
27. Informatsion jamiyatning inson axloqiy borlig'iga ta'sirini tushuntirib bering.

### REFERAT MAVZULARI

1. Axloqiy tasavvur va uning xususiyati.
2. Shaxs irodasi va uni shakllantirish omillari.
3. Vatanparvarlik madaniyati.
4. Burch va daxldorlik, ularning bog'liqligi.
5. Ma'suliyat – axloqlilikni baholovchi tushuncha.
6. Kamarbastalik fazilatining mazmuni va namoyon bo'lishi.
7. Halollik va poklik tushunchalarining mazmuni.
8. Ma'naviy-axloqiy ong, uning tuzilishi, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari.
9. Yoshlarda hayotiy pozitsiyani shakllantirish omillari.
10. Yoshlar axloqiy faolligini ta'minlashda ma'naviy idealning belgilovchilik roli va ahamiyati.
11. Shaxsda milliy xarakterni shakllantirish va takomillashtirib borish omillari, komponentlari.
12. Ijtimoiy rivojlanishda shaxs ma'naviyati va intellektual salohiyatning aloqadorligi.
13. Yoshlar tarbiyasida "innovatsion oila" tamoyilining ahamiyati.

14. Globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy tahdidlarga qarshi kurashda ma'rifat va diniy bag'rikenglik.
15. Global etika va uning masalalari.
16. "Ommaviy madaniyat", uning axloqiy qiyofaga tahdidi
17. Gedonizm talmotining mohiyati.
18. Ixtiyor erkinligi va axloqiy tanlov.
19. Kasbiy odob va axloqiy madaniyatning uyg'unligi.
20. Etika kategoriyalarining jamiyat munosabatlarda namoyon bo'lishi.
21. Etikaning zamonaviy kategoriyalari va muammolari.
22. Sog'lom turmush tarzining axloqiy tamoyillari.
23. San'atning shaxs axloqiy tarbiyasiga ta'siri.
24. Inson axloqiy borlig'ini shakllantirish omillari va vositalari.
25. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch".
26. Inson axloqiy borlig'i va gnoseologiyasi.
27. Axloqiy qadriyatlar, ularning funksional xususiyati.
28. Axloqiy tarbiya: muammo va yechimlar.

## MAVZUGA OID TEST SAVOLLARI

- 1. Insonning axloqiy qiyofasini qaysi axloqiy kategoriya tavsiflaydi?**  
A. Yaxshilik  
B. Burch  
C. Vijdon  
D. Adolat
  
- 2. Etikaning qaysi kategoriyasi jamiyatdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni ifodalarydi?**  
A. Yaxshilik  
B. Burch  
C. Vijdon  
D. Adolat
  
- 3. "Ijtimoiy hodisa bo'lib, kishining hayotida sodir bo'layotgan ijobiy yoki salbiy holatlarga munosabatida ifodalananadi". Ushbu ta'rif axloqning qaysi kategoriyasini ifodalarydi?**  
A. Yaxshilik  
B. Burch  
C. Vijdon  
D. Adolat
  
- 4. "Aqlilik, oqillik bilan yashamasdan turib, pokiza va oqilona yashash mumkin bo'limganligi kabi pokiza va oqilona yashash, yoqimli hayot kechirish uchun oqilsizlikdan, aqlsizlikdan forig' bo'lmoq kerak" degan fikr muallifini aniqlang?**  
A. Arastu  
B. Epikur  
C. Zardusht  
D. Forobiy

**5. Odamning ichki va tashqi intilishlari, imkoniyat va salohiyatini maqsad yo'lida safarbar etish, qat'iyat bilan harakat qilish, sinov va mashaqqatlarni yengib o'tish, har qanday sharoitda ham ruhiy muvozanatni saqlashga asosi bo'ladigan fazilat qanday ataladi?**

- A. Iroda
- B. Sabr
- C. SHijoat
- D. Mas'uliyat

**6. Izzat – nafs, qadr tuyg'ularini qanday tushuncha ifodalaydi?**

- A. Oriyat
- B. Nomus
- C. Ishonch
- D. G'urur

**7. Salbiy illatlardan biri bo'lgan shaxsning o'sishi, obro'-e'tibori oshishi, yutug'i va iste'dodini ich-ichidan ko'ra olmaslik qaysi tushunchada ifodalanadi?**

- A. Badgumonlik
- B. Batollik
- C. Baxillik
- D. Bag'ritoshlik

**8. Insonni mukammal qiluvchi, nomunosib harakat dan chegaralovchi manaviy quvvatni aniqlang.**

- A. Burch
- B. Aql
- C. Vijdon
- D. Oriyat

**9. Bundaylar odamning atrofdagilardan yashirib yuradigan zaif joyini bilib olib, unga qayta-qayta tegaverishadi. Tana va minnat qilishga moyil bo'ladi, mulohazadan**

**yiroq bo'ladi. Ular bilan muloqot qilish qiyin. Ushbu fi-krda kishidagi qanday illat ko'rsatilgan?**

- A. Manmanlik
- B. Andishasizlik
- C. Chaqimchilik
- D. Munofiqlik

**10. "Axloqiy o'zlikni anglash" tushunchasini mohiyati yoritilgan javobni belgilang.**

- A. Millatning, ana shu millat vakillarining axloqiy o'ziga xosligini anglash
- B. Millatning urf-odatlarini anglash
- C. Millatning qadr-qimmatini va merosini anglashi
- G. Millatning ruhiy olamini anglash

**11. Axloqda "iroda erkinligi" tushunchasi nimani o'zida ifodalaydi?**

- A. Aqlga muvofiq, vijdon amri va mas'uliyatga bo'y singan holda xatti-harakatini tanlashni
- B. Taqdiri azal, inson taqdiriga yozilganidan boshqa narsa qilmasligini
- C. Instinktiv tarzda shakllangan iroda insonning barcha intilishlarining asosida turishini
- G.Tajriba asosila shakllangan udum va odatlarni ixtiyoriy bajarishni

## XULOSA

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotidagi muommolar, kishilarimizning turmush tarzi, tafakkuridagi, ruhiyatidagi o'zgarishlarni insoniy fazilatlar ustuvorligiga yo'naltirish uchun uning ilmiy-amaliy yechimiga jiddiy qarash zarur.

Bu borada avvalo, yoshlар manaviy-axloqiy ongini shakllanishtirish va rivojlantirishga oid qarashlarni takomillashtirish, muammolarni aniqlash va ularni yechishning konseptual asoslarini ijtimoiy-falsafiy tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Axloq nazariyasi va amaliyoti uning tarixi bilan qonuniy ravishda bog'langan. Shuning uchun axloq va axloqlilik hodisasini uning taraqqiyoti va muammolari tahlili orqali o'rghanish kutilgan natijani beradi. Sevimli shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek "Ming asrlar ichra pinhon..." yashab kelayotgan juda tabarruk urf-odatlarni, axloqiy g'oyalari va o'gitlarni, hayotiy ma'naviy-axloqiy tamoyillarni, dasturiy umuminsoniy qadriyatlarni saqlab qolish kerak. Kattalarga hurmat, kichiklarga shafqat, qarindosh-urug'lar o'tasida bir-birlariga samimiy oqibat, qo'ni-qo'shni o'tasidagi mehr, bir-birlarini bilish, yaqinlar o'tasida bordi-keldi qilib turishlar, o'zini ham, o'zgani ham tanish, insof, diyonat, har narsaga halol, pok munosabatda bo'lish kabilar o'shanday belgilardandir. Bu kabi qadriyatlар yoshlар ma'naviy-axloqiy ongi, uning qaror topishiga ijobjiy ta'sir qiluvchi omillardir.

Bilim va ilm, tajriba va malaka, qobiliyat va iste'dod ma'naviyatlilikning muhim jihatlari sifatida muayyan axloqiy kamolot zaminida shakllanadi. Aql-idrokning amaliy ifodalari real ko'rinishlaridan biri har doim axloq-odob bo'lgan. Abu Ali Ibn Sino yozganidek, har qanday bilim narsaning ichki sabablarini bilish yo'li bilan hosil bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, ilm hodisalarini kuzatish, ularni o'rghanish va sabablarini bilishga asoslanadi. Ilmning maqsadi kuzatish va tekshirish qurolini to'g'ri bilishdan iboratdir. Mana shunday qurol yordami bilangina o'rghanilayotgan hodisalar haqida mukammal bilimga ega bo'lish mumkin.

Shu nuqtayi nazarlardan kelib chiqib Etika fanida :

- fanni emas, balki hodisalarni o'rganish (phenomenon based learning)
  - axloq hodisasidagi xilma-xillik, nochiziqlilik va chiziqlilik, ochiqlik va yopiqlik, ichki va tashqi tebranish, beqarorlik va beqarorlik holatlarini sabab va omillarini o'rganish ;
  - yoshlarni yangi va o'zgarib borayotgan dunyo muhitiga moslashib ketishga o'rgatish;
  - katta va haqiqiy hayotga tayyorlash;
  - madaniyatlar va turmush tarzining boshqa shakllari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilish amaliyotini o'rganish kerak;
  - urbanizatsiya va o'z-o'zini boshqarish holatini to'g'ri tashkil etish;
  - an'anaviy darslar o'rniga "bo'limlar" tashkil etish kerak. Bunda axloq va axloqlilik (yoki aqloqsizlik)ni turli tarafdan o'rganish nazarda tutilmoqda. Misol uchun, burch kategoriyasini shaxsning o'z-o'zini anglashi nuqtayi nazaridan; shaxsning o'zgalar manfaatini himoya qilishi nuqtayi nazaridan; shaxsning o'z jamiyatini muhofaza qilishi nuqtayi nazaridan; shaxsning davlat xizmatida bo'lishi nuqtai nazaridan, shaxsning umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilishni mezonidan o'rganish ko'zda tutilmoqda.

Etika fanining muammoiy maydonini hozirgi zamon odamlari va jamiyatları orasidagi munosabatlar, majburiyat, xarakter va emotsiya, egoizm va hissiyot, axloq va erkinlik kabi dolzarb masalalar bilan kengaytirib, "Jikzo", "Blended learning", "Case Study", "SWOT tahlil", "4 pog'ona", "VEEN", "Sinkveyn", "Yo'naltiruvchi matn", "Tadqiqot sinfi", "Dialog orqali talim", "Qanday", "Nima uchun", "Muammolik" o'qitish texnologiyalari asosida o'quvchining o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tashkillashtirishi va o'zaro baho berish, muhokama qilish, tanqid va aniqlik kiritish, kreativ fikrlash tamoyillari asosida ta'limiylarini tashkil qilish kerak.

## ATAMALAR IZOHЛИ LUG'ATI

**ADAB** – hulqni chiroyli qilish, so'zni va fe'lni soz qilish.

**AXLOQ** – lotincha “*moralis*”, “*mores*” so'zlaridan olingan bo'lib, ma'nosi xulq, odat demakdir. Axloq so'zi arabcha bo'lib, xulq so'zining ko'pligidir.

**AXLOQIY BAHOLASH** – ijtimoiy voqelikning turli hodisalarini va kishilarning xatti-harakatlarini ular qanday axloqiy ahamiyatga ega bo'lishiga qarab ma'qullash yoki qoralash.

**AXLOQIY QOIDALAR** – bir xildagi ish amallarga joriy qilinadigan umumiy talab va ta'qiqlar vositasi bilan kishilar xatti-harakatini tartibga soluvchi axloq-odob talablari.

**AXLOQIY ONG** – ma'naviy faoliyat, bu faoliyatni tartibga soluvchi, burchli bo'lishning, insonga qo'yiladigan talablarning turli shakllarida yuz beradigan axloqiy munosabatlarni va mazkur munosabatlarni tegishli tasavvurlar tarzida aks etishi.

**AHLI MA'NI** – aql va idrok bilan ish ko'rvuchi yuksak tafakkur sohiblari.

**AHLI SUVRAT** – kibrilanish, vigorli bo'lish, zebu ziynatga berilish, o'zgalarga zulm o'tkazishdan huzurlanish.

**AXLOQIY FAZILAT** – odamni yaxshi ishlarni qilishga va go'zal xulqlar sohibi bo'lishga da'vat etuvchi ichki (axloqiy) sifatlar.

**BARQARORLIK** – inson ma'naviy borlig'ida turli holatlar rational va garmonik tarzda faoliyat olib borishi.

**BAXTU SAODAT** – insonning oliy motivatsiyasi va maqsadi, muvozanat va barqarorlik.

**BEQARORLIK** – inson moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining doimiy tarzda o'sib botishi.

**GEDONIZM** – gedonizm (yunoncha, nedone- lazzatlanish) lazzatlanib umr kechirish inson hayotining asl mazmunini tashkil etishi lozim, degan qarashga asos bo'lgan g'oya va turmush tarziga intilishni ifodalaydi. Gedonizmni mutlaqlashtirish inson hayotida moddiy boyliklar rolini oshirib, ma'naviy qadriyatlarga e'tiborni su-saytirishga olib keladi.

**DONOLIK** – eng a'llo darajadagi narsalar to'g'risidagi eng yuqori bilim.

**IBRAT** – arabcha o'git, pand-nasihat, o'rnak.

**INSON** – biosotsial va ruhiy-ma'naviy mavjudod, o'z-o'zini tashkillashtiruvchi tizim.

**INSON MA'NAVIY BORLIG'I** – murakkab strukturaga, ko'plab xos-salarga, atributiv jihatlarga ega bo'lgan murakkab tizim.

**IXLOS** – kishining ijtimoiy voqelikdagi hodisa jarayonlarga munosabati, qiziqishi, ishtiyobi, ishonchi negizida shakllanadigan, imoni, e'tiqodi, diyonati asosida takomillashib borib faoliyatga yo'naliш beruvchi botiniy tuyg'u, intilish, maqsadlar mujassamidir.

**ODAT** – hamma tan olgan tartib-harakat tarzi, barcha etirof etgan axloqiy ko'nikmaga aylangan va o'zlashtirilgan hayot mezonlari.

**URF-ODAT** – ijtimoiy guruh yoki jamiyat tomonidan qabul qilib olinadigan xulq-atvorning bir ko'rinishi, kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni boshqarishning manaviy-axloqiy omili.

**O'Z - O'ZINI NAZORAT QILISH** – insонning o'z hatti harakatlarini, emotsiyalarini boshqara olish qobiliyati.

**O'Z-O'ZINI TANQID QILISH** – insонning o'z harakatlaridagi hatolarni topa olishi, o'z-o'zidan qoniqmaslik asosida o'z faoliyatini tanqidiy baholashi.

**O'Z-O'ZINI ANGLASH** – insонning o'z mavjudlik mohiyatini anglashi, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi.

**XULQ (ODOB)** – deganda, rasm-taomul, odat-odatlarning butunligi, odamlar o'rtasida iqtisodiy tuzum taqozosi bilan, turmush sharoitning alohida tarzidan, an'analaridan paydo bo'lgan va lekin muntazam qarashlar, qoidalar, yo'l-yo'riqlar tizimiga kirmagan munosabatlarning xususiyati tushuniladi. Xulq (odob) – odamlarning amaliy xatti-harakati, odamlar o'rtasidagi amaliy munosabatlardir.

**EVDEMONIZM** – baxt-saodat, rohat-farog'atni kishilar xayotining oliy maqsadi deb hisoblaydigan axloqiy yo'naliш.

**ETIKA** – yunoncha "ethos" olingan bo'lib, ma'nosи xulq, odat degan ma'noni bildiradi. Etika axloqning paydo bo'lishi va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini, axloqiy hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini, axloqning ijtimoiy mohiyatini va u orqali ijtimoiy jarayonlarni o'rganadi.

**ETIKET** – insон va jamiyat tashqi madaniyatining asosiy qismi bo'lib, yaxshi xulq, jamoat joylarida o'zini to'g'ri tutish, tashqi qiyofa va muomila madaniyati tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi.

**ETOSFERA** – axloqiy muhit

**E'TIQOD** – insон shaxsining axloqiy qiyofasi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ustuvor g'oyalari va intilishlari.

## **FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar.- J.2. T. Ma'naviyat, 1998.
2. Abdullaev A. Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur. -T.: Ma'naviyat, 1999.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Yozuvchi, 1993.
4. Azizov Sh., Azizova S. Ma'rifatparvarlik – ijtimoiy-madaniy hodisa. T., 2008.
5. Aliqulov X., va b. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlar mutafakkirlar talqinida.-Andijon,2003.
6. Бердяев Н.А.Человек. Микроском и макрокосм.Гл.из книги: смхсл творчества. Опыт оправдания человека.Феномен человека. Антология. М.,1993.
7. Boboxonov A., Maxsumov M. Abdulla Avloniy pedagogik faoliyati va talim-tarbiya borasilagi fikrlari.-T.: O'qituvchi,1966
8. G'arb falsafasi.(Q.Nazarov va boshqalar) -T:. Sharq, 2004.
9. Гегел Г. Ф. Сочинения. -Том 3. М., 1956.
10. Jaloliddin Rumi. Ichindagi ichindadur.-T.: Yangi asr avlodi, 2013.
11. Jaloliddin Rumi. Masnaviy hikmatlari. -T:. Navro'z. 2016.
12. Jalolov A. Mustaqillik ma'suliysi. -T.: O'zbekiston. 1996.
13. Ibn Sino. Tayr qissasi. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari 1-jild. -T.: Fan, 2003.
14. Ibn Sino. Tayr qissasi. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari 1-jild.- T.: "Fan". 2003.
15. Ibrohim Haqqul. Ijod iqlimi.-T:.Fan.2009.
16. Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va sha'riyat.- T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1991.
17. Imom al Buxoriy. Al-jomi' as-sahih. -T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1992.
18. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar.-T:.1998.
19. Yo'ldoshev J. Hasanov S. Avestoda axloqiy ta'limiy masalalar.-T.: O'qituvchi. 1992.
20. Kaykovus.Qobusnama.-T:.O'qituvchi,2006.
21. Kamolov N. Tasavvuf. -T.: Yozuvchi, 1996.
22. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.- T.: Ma'naviyat.2008.
23. Komilov N. Tasavvuf.-T:. Mavarounnah - O'zbekiston. 2009.

24. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar.-T.:Yangi asr avlod. 2014
25. Koshify. Axloqiy Muhsini. -21-bob.
26. Qodirov P. Ma'naviyat, modernizm va absurd // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2004.Nº 12.
27. Levitin L., Karlayl D. Islom Karimov yangi O'zbekiston Prezidenti. - Toshkent: O'zbekiston, 1996.
28. Maxmudov R. Husayn Voiz Koshifiyning falsafiy-axloqiy qarashlari. T.: Mumtoz so'z.2015.
29. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. -T:. Fan. 1991.
30. Mahmud Asad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. T.: Cho'lpon. 2000
31. Mahmudov R. Degonimning ulusg'a marg'ub et. T.: O'zbekiston. 1992.
32. Mahmudov R. O'rta Osiyo mutafakkirlari axloq-odob haqida.T.: O'zbekiston. 1990.
33. Mashriqzamin – hikmat bo'stoni. -T.: Sharq, 2008.
34. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. T., 2009.
35. Mirzaev I. Bobur marifati.-T:. O'qituvchi, 1996
36. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halq-imiz bilan quramiz.-T., O'zbekiston. 2017.-B.482
37. Murtozaeva R.X. Yoshlar va o'zbek mentaliteti xususiyatlari. Shaxs barkamolligi: axloqiy- estetik jihatlar. LSA – Yaponiya hamkorlik agentligining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda bo'lib o'tgan xalqaro konferensiya materialari. Toshkent., 2012.
38. Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub. – T., 1983.
39. Nazarov M. Tohirov O. Ma'naviyat-ibrat.T.: Menhoj, 2001.
40. Novaya filosofskaya ensiklopediya. 4-x t. M.: Mysl, 2001.
41. Ochiliev A. Madaniyat falsafasi.Toshkent. 2009.
42. Sartr J.P. Izbrannye proizvedenie. Ekzistensializm-eto gumanizm.M.respublika.S.439(1);440(2)
43. Serjilo tafakkur durdonalaridan. –T.: Navro'z. 2003.
44. Sinergetika mohiyati, qonuniyatlar va amaliyotda namoyon bo'lishi. T.:Navro'z, 2017.
45. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. T-3.T.:O'ME. 2002.
46. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O'zbekiston. 2010.
47. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.
48. Falsafa.Komusiy lug'at.-T:.SHarq, 2004.

49. Farabi. Sotsialno-eticheskie traktaty. -Alma-Ata. 1975.
50. Filosofiya XX veka. Uchebnoe posobiye.-M.:Znanie, 1977.
51. Filosofskiy slovar.-M.,1992.
52. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.-T.: Ma'naviyat, 2000.
53. Xotamov A. Ekzistensializm falsafasi.-T.:Istiqlol. 2013
54. Hadis. Al-jomi as-sahih.-T.: Qomuslar bosh tahririysi. 1997.
55. Homidiy H. Avestodan SHohnomagacha. T.:SHarq, 2007.
56. Choriev A. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. - T.: CHinor ERK, 2002.
57. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. -T.: SHarq, 2004.
58. Sharq donishmandlari hikmatlari. / Tuzuvchi Ahad Tursun.-T.: SHarq, 2006.
59. YUsupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari.-T.:Universitet, 1998.
60. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilik. -T. 1990.

**Internet saytlari:**

61. [www.Ziyo.net](http://www.Ziyo.net), uz
62. [www.faylasuf.uz](http://www.faylasuf.uz)

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
<b>BIRINCHI QISM. AXLOQSHUNOSLIK .....</b>	<b>7</b>
1. Axloqning tabiatи va uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni.....	7
2. Tasavvuf axloq konsepsiysi.....	7
3. Shaxs axloqiy madaniyati.....	7
4. Hozirgi zamон axloq muammolari.....	7
<b>IKKINCHI QISM. ETIKANING KATEGORIYALARI VA TAMOYILLARI.....</b>	<b>93</b>
1. Etika kategoriyalari .....	93
2. Axloqiy qadriyatlar, ularning o'ziga xos xususiyati .....	93
Xulosa.....	152
Atamalar izohli lug'ati .....	154
Foydalaniman va tavsiya etilayotgan adabiyotlar .....	156

**B.M. OCHILOVA**

## **AXLOQ FALSAFASI**

Muharrir:	Xudoyberdi Po'latxo'jaev
Rassom	Zayniddinxo'ja Shukurxo'jayev
Sahifalovchilar	Egamberdi Jabborov
Musahhiha:	Dilnoza Jabborova

Nashriyot litsenziyasi AI № 003, 20.07.2018-y.

Bosishga 28.10.2019-yilda ruxsat etildi.

qog'oz bichimi 60/84 1/16. Nashr tobog'i 10,5.

Shartli bosma tabog' 10.0 Shartnoma 15/18. Adadi 300.

Buyurtma № 15

«IJOD-PRINT» MChJ nashriyoti.

100011, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Navoiy 30-uy

MChJ «IPAK YO'LI POLIGRAF» bosmaxonasida chop etildi  
Toshkent sh., 100170, Avayhon ko'chasi, 98

ISBN 978 9943-5591-6-5

A standard linear barcode representing the ISBN number 978 9943-5591-6-5.

9 789943 559165